

MASHHURA YULDOSHEVA

XUSHMUOMALALIK NAZARIYASINING
SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI
(SOTSIOPRAGMATIKA)

MONOGRAFIYA



Mashhura Yuldosheva

**XUSHMUOMALALIK
NAZARIYASINING
SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI
*(Tohir Malik asarlari misolida)***

Monografiya

«Iste'dod ziyo press» nashriyoti

Namangan

2025

UO'K: 821-512-133-9

KBK: 84(O'zb)7

Y-101

Mashhura Yuldosheva. Xushmuomalalik nazariyasining sotsiopragmatik tadqiqi (Tohir Malik asarlari misolida). «Iste'dod ziyo press» nashriyoti, Namangan, 2025. 148 b.

Ushbu monografiyada xushmuomalalik nazariyasining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va uning sotsiopragmatik tadqiqiga oid dolzarb nazariy masalalar, xususan, xushmuomalalik strategiyalari, yuz (face) nazariyasi, nutq aktlari, presuppozitsiya, implikatsiya, sotsiopragmatik kompotensiya kabi asosiy pragmatik kategoriyalar hamda sotsial chegaralangan leksika, ijtimoiy identifikatsiya, laqab kabi lingvistik birliklar Tohir Malikning asarlari misolida yoritilgan.

Monografiya tilshunos olimlar, mazkur soha bo'yicha izlanish olib borayotgan mutaxassislar, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

Muharrir: - **Usmonova Hurinisa Sharapovna**, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

M.Sobirova - Namangan davlat pedagogika instituti "Filologiya" kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

N. Qazaqova - Namangan davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Monografiya Namangan davlat pedagogika instituti O'quv uslubiy, texnikaviy kengash yig'ilishining 2025-yil 18-apreldagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan va chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-794-83-4

© Mashhura Yuldosheva.
© «Iste'dod ziyo press» nashriyoti, 2025.

KIRISH

Jahon tilshunosligi XXI asrdan buyon yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishi, shuningdek, tilning ijtimoiy vazifalarini chuqur o‘rganish zaruriyati bilan bog‘liq holda sezilarli taraqqiyotga erishmoqda. Bunda til birliklarining muloqot jarayonida qanday qo‘llanishi, ularning ijtimoiy kontekstdagi roli hamda maqsadga erishishdagi vositachilik funksiyalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Sotsiopragmatika bu jarayonda markaziy o‘rin tutib, mazkur soha til hamda jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro murakkab munosabatlarni, jumladan, ijtimoiy omillar til birliklarining semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlariga qanday ta’sir etishini chuqur o‘rganmoqda. Sotsiopragmatik tadqiqotlar muloqot jarayonlarining tilshunoslikka xos aspektlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan tahlil qilish imkonini bermoqda.

Dunyo tilshunosligida badiiy matnlarning sotsiopragmatik tahlili zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning chuqur nazariy asosga ega, muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bu esa asar personajlarining nutqiy faoliyati orqali ularning ijtimoiy statusi, shaxsiy va o‘zaro munosabatlarining lingvistik ifodalanish xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan keng o‘rganish, aniqlash imkonini bermoqda. Xushmuomalalik strategiyalari aynan shu jarayonda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular personajlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofani tartibga solish, ularning sotsial va shaxsiy maqomini ko‘rsatish, muloqot jarayonida ijtimoiy me’yorlar hamda qoidalarni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning lingvistik ilmiy asoslarini aniqlash ahamiyati dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbek tilshunosligida sotsiopragmatika taraqqiy etayotgan sohalardan biri bo‘lib, bu sohaning tayanch tushunchalari mazmun-mohiyatini ilmiy asoslash, badiiy matnda nutqiy voqelanishini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ayniqsa, “Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun hech qachon o‘zining dolzarbligini va zaruriyligini yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qoladi”¹. Shunday ekan, nutq strategiyalarining milliy darajadagi ahamiyati, ayniqsa, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda dolzarb bo‘lib, bu

¹ Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson maanfaatlarini taminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent, ”O‘zbekiston” HMIO‘, 2017. – B. 44.

jarayon millatning ma’naviy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tohir Malik asarlarida qo‘llangan til birliklarining sotsial va pragmatik jihatlari, xushmuomalalik strategiyalari, ijtimoiy-badiiy kontekstlar sotsiopragmatik tahlil uchun boy material bo‘la oladi.

Sotsiopragmatik tadqiqotlar, avvalo, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshlagan bo‘lsa-da, ularning ahamiyati hozirgi kunda yanada ortib bormoqda. Jahon va o‘zbek tilshunosligida sotsiopragmatika masalalariga oid bir qator tadqiqotlar mavjud. Yevropa tilshunosligida G.Lich, P.Braun va S.Levinson, J.Kalpepper, S.Marmaridu, M.Haug, Y.Obana, Daniel Z.Kadar, M.Terkurafi, J.Xolms, J.Petre² indonez tilshunosligida K.Rahardi, M.Rohmadi, Harun Joko Prayitno, Abdul Aziz kabi bir qator tilshunoslar tomonidan sotsiopragmatikaning nazariy-ilmiy asoslari yoritilgan bo‘lsa³, o‘zbek tilshunosligida bu soha taraqqiyotida Sh.Iskandarova, S.Mo‘minov, M.Qurbanova, M.Buzrukova, M.Hakimov, S.Boymirzayeva, Sh.Safarov, H.Turdiyeva, H.Hojiyeva, G.Tirova, M.Xolmurodova, G.Nyazova, L.Raupova, M.Xolova, X.Yo‘ldosheva⁴ kabilarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega.

² Lich, G.N. Principles of Pragmatics. – London and New York: Longman,1983. – Pp. 250. /Lich, G. N. The Pragmatics of Politeness. – New York: Oxford University Press, 2014. – Pp. 369./ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 345 / Culpeper, J. Historical sociopragmatics. – John Benjamins Publishing Company, 2011. – Pp. 132.; Haugh M. and Culpeper, J. (2018). Integrative pragmatics and (im)politeness theory. In C. Ilie and N. R. Norrick, eds., Pragmatics and Its Interfaces. – Amsterdam: John Benjamins, 2018. – Pp. 213-39./ Marmaridou S. Pragmalinguistics and sociopragmatics/ Haugh M., Daniel Z. Kadar. Marina Terkourafi, The Cambridge Handbook of Sociopragmatics. – New York: Cambridge university press, 2021. – Pp. 781./Yasuko Obana and Michael Haugh, Sociopragmatics of Japanese. – New York: Taylor & Francis, 2023. – Pp. 238/ Cornelia Ilie and Neal R. Norrick (Eds.), Pragmatics and its Interfaces. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2018. – Pp. 1-7./ J. Petre, The Sociopragmatics of Stance. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2021. – Pp. 246.

³ Rahardi K. Sosiopragmatik. – Jakarta: Erlangga, 2009. – Pp. 376; Harun Joko Prayitno, Studi Sosiopragmatik. – Indonesia/Surakarta: Muhammadiyah University Press, 2017. – Pp. 272./ Abdul Aziz, Sosiopragmatik Politik: Kajian Sosiopragmatik Dalam Debat Pilkada. Indonesia: Syiah Kuala University Press, 2022. – Pp. 180.

⁴ Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 140.; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий–лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари дри...дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 235.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 320. ; Сафаров Ш., Г. Тоирова. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – Б. 38; Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Фарғона, 1996. – Б. 16.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини: Филол. фанлари доктори ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 265., Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, Академнашр: 2013. –Б. 176.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матнининг коммуникатив прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари доктори... дисс. автореферати. – Тошкент, 2010. – Б. 49.; Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б.238.; Турдиева Х. Нутқий етикет бирликларининг лингвопрагматик тадқики: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 180.; Ҳожиева Х. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний–нутқий хусусияти: Филол. фанлари номзоди...дисс. – Самарқанд, 2001. – Б.130.; Buzrukova M. Iltimos Nutqiy aktining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o‘zbek materiallarida). Filol. fan.

Lekin tilshunosligimizda badiiy kontekstning sotsiopragmatik tadqiqi borasidagi ilmiy izlanishlarni yetarli deb bo‘lmaydi. Shuningdek, Tohir Malik asarlarida xushmuomalalik strategiyalari sotsiopragmatik aspektida hali tadqiq etilmagan. Adib ijodi adabiyotshunoslilik nuqtayi nazaridan T.Irisboyevning “Hozirgi o‘zbek detektiv adabiyotining taraqqiyot xususiyatlari (Tohir Malikning “Shaytanat” asari asosida) nomli ilmiy-tadqiqot ishida o‘zbek detektiv adabiyotining shakllanish va rivojlanish yo‘llari yoritilgan bo‘lsa, Sh.Sulaymonovning o‘zbek detektiv nasri genezisi va tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida detektivning folklor janrlari bilan aloqasi, detektivda syujet tabiatni kabi masalalar xususida so‘z yuritilgan, bundan tashqari, B.Holikov, A.Davronov. H.Asanova, G.Tovboyeva, Y.Uzoqova, X.G‘ayiboyev⁵ kabi yosh tadqiqotchilar Tohir Malik asarlarini g‘oyaviy, badiiy qimmati jihatidan tahlil etganlar. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan G.Nyazova “Detektiv romanlar tilining sotsiopragmatik aspekti va gender xususiyatlari” nomli ilmiy-tadqiqot ishida Tohir Malik “Shaytanat” romanida genderni ifodalovchi lisoniy vositalarning sotsioligivistik xususiyatini aniqlash uchun ayol va erkak nutqini lisoniy jihatdan qiyosiy tahlil qilgan, S.Davranova, N.Qobilova, B.Qarayeva, N.Musulmanova kabi izlanuvchilar tomonidan adibning asarlari leksik-semantik, lingvokulturulogik, sotsiolingvistik aspektida tahlil qilinmoqda.

doktori (phd)...diss. – Smarqand, 2021. – В. 169.; Холмуродова М. Эркин Аъзам қиссалари тилининг социопрагматик аспекти: Филол. фан. докт. (PhD)...дисс. – Андижон, 2021. – Б. 132.; Нязова Г. Детектив романларнинг тилининг сотаиопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари: Филол. фан. доктори (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 144.; Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқики: Филол. фанлари докт. ... дисс. автореф.–Тошкент, 2022. – Б. 48.; Xolova M. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalk kategoriaysining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari: monografiya. – Buxoro, 2023. – В. 66.; Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. dokt. ...diss. Avtoref. – В. 30.

⁵Ирисбоев Т.Т. Хозирги ўзбек детектив адабиётининг тараққиёт хусусиятлари (Тохир Маликнинг “Шайтанат” асари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс.– Toshkent., 2001. – В. 157. ; Сулаймонов Ш.С. Ўзбек детектив насири: генезиси ва табиати. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2002. – Б. 24.; Holikov B. Detektiv romanlarda vogelikning badiiy talqinini tizimli modellashtirish (Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” va Tohir Malikning “Shaytanat” asarlari misolida”). Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2011. – В. 40.; Davronov A. Tohir Malik ijodida uslubiy o‘ziga xoslik//Til va adabiyot ta’limi, 2020. – № 12.– В. 30-31.; Asanova H. Yozuvchi Tohir Malikning “Nafs kishanlari” asari badiiy va falsafiy tahlili//Internatsional scientific journal, 2023. – № 5. – В. 97-100.; Tovboyeva G. Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasida o‘smir bolalarning taqdirlari tahlili // Новости образования: исследование в XXI веке, 2023. – № 10. – В. 38-40.; Uzoqova Y. Tohir Malik asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish mexanizmlari//Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024.– № 2. – В. 308-309.; G‘ayiboyev X. Tohir Malikning “Shaytanat” romanini qahramonlari tahlili va asarning jamiyatga ta’siri//Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023. – В. 104-106.

I BOB. BADIY KONTEKST SOTSIOPRAGMATIKASI VA TADIQIQOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI


1.1-§. Sotsiopragmatikaning shakllanishi va taraqqiyoti

Bugungi kunda lingvistik tadqiqotlar tilning tabiatini ochishga qaratilgan sa'y-harakatlar pragmatikani, ya'ni jonli muloqotni tushunishga asoslanmasdan kutilgan natijalarni bermasligini anglashning ortishi natijasida so'nggi yigirma yil ichida pragmatika tilshunoslik evolutsiyasining cho'qqisi sifatida tadqiq etilib, o'z nazariy va amaliy ahamiyatini kengaytirib, boyitib bormoqda.

1960-yillarning boshlarida Jerrold Katz va uning hamkasblari tilshunoslik nazariyasiga semantikani kiritishga intildilar, natijada struktural tilshunoslikda muhim burilish yasadi.

1971-yilda Jorj Lakoff va Jeyms Ross tilni o'rganishda sintaksis va semantikani aniq ajratib bo'lmasligi haqidagi g'oyani ilgari surdilar. Tilning tuzilishi (sintaksis) va ma'nosi (semantika) o'zaro uzviy bog'liq holda lingvistik tahlilda yaxlit tarzda ko'rib chiqilishi zarur ekanligini ta'kidlashdi. Bu yondashuv til birliklari va ularning ma'nosidan foydalanish mohiyatini to'g'ri anglash muhimligini ko'rsatadi. Real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llashni o'rganuvchi va tahlil qiluvchi yondashuvda semantika, sintaksis va vaziyat omillarini uyg'unlashtirish lingvistikaning yangi yo'nalishlarini rivojlantirishda dastlabki qadam bo'lib xizmat qildi.

1972-yilda Stalnaker Charlz Morris tomonidan ilgari kiritilgan tushunchani soddalashtirdi va pragmatikaning ta'rifini, til aktlari bilan birga sodir bo'ladigan kontekstni o'rganishni taklif etdi. Keyinroq, 1983-yilda, J.N.Lich pragmatikaga yangi qarash olib kirdi, ya'ni u pragmatika turli kontekstda nutq holatining ma'nosini o'rganishdir, deya izohlagan. Demak, semantika muayyan kontekstga bog'lanmagan ma'noni o'rgansa, pragmatika kontekst bilan bog'liq ma'noni tadqiq etadi.



1.1.1-chizma. *Semiotika va pragmatikaning farqli belgilari.*

“Pragmatika” atamasi (yunon tilida “faoliyat” yoki “harakat”) ilk marta semiotika nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan Ch.Morris tomonidan fan sohasiga kiritilgan va belgilar bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil qilishda qo‘llangan. Olim Charlz Morris Pirs g‘oyalarini rivojlantirgan holda semiotikani uch qismga ajratdi:

- 1) semantika – belgilarning voqelik obyektlariga munosabati to‘g‘risidagi ta’limot;
- 2) sintaktika – belgilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish;
- 3) pragmatika – belgilarning interpretatorlar, ya’ni belgilar tizimidan foydalanuvchilarga munosabati haqidagi ta’limot⁶.

Pragmatikani o‘rganishga e’tibor 1977-yilda “Journal of Pragmatics” jurnalining nashr etilishi bilan rasman e’tirof etildi. Keyinroq 1987-yilda pragmatikaga oid turli maqolalar muhokama qilingan konferensiya bo‘lib o‘tdi⁷.


Bugungi kunda pragmatika tilshunoslikning deyksis, presuppozitsiya, nutq aktlari va suhbat implikaturasi kabi nutqiy birliklar masalalariga e’tibor qaratadigan bo‘limi ekanligi ko‘ramiz.

⁶Madaminova M. Matn pragmatik tafsifida sintaktik birliklarning o‘rni. Toshkent: Bookmany print, 2023. – B.5.

⁷ Asida Wahyu Asri Putradi, Asep Supriyani, Pragmatik. – Indonesia: PT Bumi Akksara, 2024. – Pp.8.

Pragmatik tadqiqotlarda til konteksti foydalanuvchilar jamoasi bilan bog‘liq holda o‘rganila boshlandi, buni tilshunos Mey “Pragmatika ijtimoiy konteksti bilan belgilanadigan tildan foydalanish sharqlarini o‘rganadigan soha” deya ta’riflagan. Uning fikricha, tildan foydalanish, asosan, jamiyatning ijtimoiy (sotsial) konteksti bilan aniqlanadi. Ijtimoiy kontekst – bu jamiyat a’zolari o‘rtasida ma’lum madaniy sharoitlarda amalga oshadigan muloqot va o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan lingvistik jarayon.

Til va nutq vaziyatlari o‘rtasidagi munosabatdan tashqari pragmatikada o‘rganiladigan yana bir masala nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar hamdir. Bundan kelib chiqadiki, pragmatika nutqning har bir ishtirokchisi tushunishi kerak bo‘lgan suhbat tamoyillarini ham tekshiradi⁸.



1.1.2- chizma. Umumiyl pragmatika tarmoqlari.

Pragmatik bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish uchun gaplarning lingvistik shakli bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy va kontekstual o‘ziga xosliklarini tahlil qilish zarurdir.⁹

Sotsiolingvistika (lot. *societas* – jamiyat va *linguistica* – tilshunoslik) tilshunoslikning til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganuvchi sohasi sifatida shakllangan bo‘lib, tilning ijtimoiy tuzilmalardagi o‘rnini hamda rivojlanish omillarini tahlil qiladi. Sotsiologiya va lingvistikaning sintezidan iborat ushbu fan doirasida quyidagi masalalar ilmiy jihatdan tadqiq etiladi:

⁸ Dr. Nasarudin,Susi Susanti, Akmal Pragmatik: Konsep Teori dan Praktek. Indonesia: Cetakan Pertama, 2023. – Pp. 92.

⁹ Jesús Romero-Trillo, Yearbook of Corpus Linguistics and Pragmatics. – Spain: Springer International Publishing Switzerland, 2016. – Pp 130.

- til va ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik;
- ijtimoiy omillar ta’sirida tilning dinamik rivojlanish jarayoni;
- ommaviy kommunikatsiya vositalari, jumladan, radio, televideniya va kinematografiya orqali til birliklarining keng qo‘llanilishi va ommalashuvi;
- og‘zaki va yozma shakldagi nutqiy birliklarning nisbiy ahamiyatidagi o‘zgarishlar;
- til siyosatini amalga oshirishda davlat va jamiyat oldida turgan vazifalar hamda mexanizmlar;
- xalqaro miqyosda nutq madaniyatining ommaviy auditoriyaga ta’siri va uning tarqalishi¹⁰.

Sotsiolingvistika til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni muhokama qiladi. Til – muloqot vositasi, jamiyat esa ko‘p odamlardan iborat jamoalar yigindisidir. Shu sababdan ham til geografik joylashuvi yoki joyiga ko‘ra ma’lum ijtimoiy muhitlarda qo‘llanadi. Joy muloqotda inson tiliga ta’sir qiluvchi muhim jihatdir, chunki inson foydalanadigan til uslubi u kishining yashash joyini ko‘rsatadi. Sotsiolingvistika fanida tilning muayyan jamoalar orasida qo‘llanilishi madaniyat, etnik kelib chiqish, din, jins, yosh, ta’lim darajasi va ijtimoiy mavqe kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi. Ushbu yondashuv turli vaziyatlarda tilning ishlatalish usullarini tahlil qilish bilan birga, ijtimoiy rollar va stereotiplarni aniqlashga imkon beradi. Dialekt, yosh va ijtimoiy maqomga oid tafovutlar muloqot davomida kuch dinamikasini shakllantirib, munosabatlar ijtimoiy-madaniy kontekstda baholanadi. Tilning ushbu o‘zgaruvchanligi sotsiolingvistik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi va ilmiy izlanishlar uchun muhim zamin yaratadi.

D.Elova va G.Safarovalar lisoniy belgilarni insonlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatilik darajasiga ko‘ra qanday qo‘llashlarini, ya’ni ijtimoiy muhitning nutqiy muomalaga qanday ta’sir qilishini tadqiq etganlar. Masalan, “sof” lingvistikada *jag‘ini ezmoq* iborasi ot va fe’ldan tarkib topgan

¹⁰ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2002. – Б. 76.

frazeologik birlik sifatida talqin qilinsa, sotsiolingvistikani mazkur ibora qaysi tabaqa vakilining so‘zlashuv nutqida qo‘llanilgani qiziqtiradi¹¹ deya izohlaydilar. Xo‘sish, qanday qilib bularning barchasi sotsiopragmatikada boshqacha tadqiq qilinadi?

Sotsiopragmatika (lot. *societas* – “jamiyat” va yunoncha *pragma* – “faoliyat”, “harakat”) — tilshunoslikning ijtimoiy kontekstlarda tilning funksional realizatsiyasi va kommunikativ aktlarning jamiyatda me’yorlashgan shart-sharoitlarga muvofiqligini o‘rganuvchi subsohasidir. Bu yo‘nalish til birliklarining ijtimoiy me’yorlar va pragmatik vaziyatlarga ko‘ra qo‘llanilishi, ularning sotsial o‘zaro munosabatlardagi pragmatik roli hamda turli sotsiokommunikativ vaziyatlardagi kontekstual semantik xususiyatlarini tizimli tadqiq qilishga qaratilgan. Shu tarzda, sotsiopragmatik tadqiqtolar tilning jamiyatdagи kommunikativ jarayonlaridagi diskursiv dinamikasini tahlil qilish orqali kommunikativ jarayonlar va sotsiolingvistik aspektlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.


Sotsiopragmatika til va nutqni o‘rganishga yondashuvdir. J.Lich (1983) birinchi bo‘lib sotsiopragmatikani pragmatikaning hal qiluvchi tarkibiy qismi sifatida belgilaydi va tilshunoslikning alohida bir sohasi ekanligini e’tirof etadi. U “The Pragmatics of Politeness” kitobida sotsiopragmatikani “socio-pragmatic” shaklida, ya’ni defis (chiziqcha) bilan yozgan edi. Umumiy pragmatika “tildan kommunikativ foydalanishning umumiy shartlari” bo‘lib, Lich uni ikki sohaga ajratadi: pragmalingvistika va sosiopragmatika. Birinchisi nazarda tutilgan pragmatikaning lingvistik qismi bo‘lib, u til birliklarining qo‘llanishi va ularning muloqot jarayonidagi ma’nolarini o‘rganadi. Ikkinchisi “pragmatikaning sotsiologik interfeysi” ga ishora qiladi, ya’ni pragmatika va sotsiologiya o‘rtasidagi munosabatdir.

Sotsiopragmatika – turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda tilning qo‘llanilish usullarini o‘rganuvchi soha bo‘lib, bu tilning lokal ijtimoiy sharoitlar,

¹¹ Elova D., Safarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2021. – B. 8.

ya’ni an’analar, qadriyatlar, norma-me’yorlar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanishini tahlil qiladi¹².

Pragmatika va sotsiolingvistika o‘rtasidagi interaktsion munosabatlar ijtimoiy kontekstlarda olib boriladigan pragmatik tahlillar orqali aniqlanadi. Shu kesishish nuqtasida sotsiopragmatika sohasi shakllanib, sotsiolingvistika va pragmatikaning integrativ aspektlarini chuqurroq yoritadi:



1.1.3-chizma. *Sotsiopragmatikaning shakllanishi.*

Sotsiolingvistika va pragmatika o‘rtasidagi chegarani aniqlovchi ikki mustaqil, lekin o‘zaro bog‘liq paradigmatic yo‘nalish mavjud. Sotsiolingvistika asosan, kommunikativ diskurslarda qo‘llaniladigan lingvistik uslublarning ijtimoiy identifikatorlar, masalan, sind, jins, va yosh kabi statik ijtimoiy determinantalarga nisbatan barqaror korrelyatsiyasini o‘rganadi.

Pragmatika esa asosan kommunikativ jarayonda subyektning dinamik ijtimoiy roli va statusiga bog‘liq holda o‘zgaruvchan til birikmalarining moslashuvchan repertuarini tahlil qiladi. Shu orqali adresantning sotsiolingvistik holatga muvofiqligi va diskursiv strategiyalardagi sotsiopragmatik moslashuvni yoritadi¹³.

¹² Lich, G. N. Principles of Pragmatics. London and New York: Longman, 1983. – Pp. 10-11.

Haugh M., Daniel Z. Kadar. Marina Terkourafi, The Cambridge Handbook of Sociopragmatics. New York: Cambridge university press, 2021. – Pp.4.

¹³ Haugh M., Daniel Z. Kadar. Marina Terkourafi, The Cambridge Handbook of Sociopragmatics. New York: Cambridge university press, 2021. – Pp. 19.

X.Yuldosheva ushbu ikki tilshunoslik sohasi orasidagi farqni ajratar ekan, “Muloqot jarayonining ijtimoiy shaxslar orasida shakllanishi sotsiolingvistikaga, uning ma’lum nutq vaziyati, nutq sharoitiga moslashuvi masalasi esa sotsiopragmatikga daxldor muommolardir”¹⁴ deya izohlaydi.

Sotsiolingvistika tilning jamiyat bilan o‘zaro ta’sirini tahlil qiladi va uni ijtimoiy qatlamlar, guruhlar hamda geografik hududlar kesimida turlicha namoyon bo‘lishini tadqiq etadi. Ushbu yo‘nalishda “xaritalash” konsepsiysi orqali tilning sotsial sharoitlar bo‘yicha differentsiatsiyalashuvi o‘rganiladi. Sotsiopragmatika esa til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning ijtimoiy kontekstda namoyon bo‘ladigan mikropragmatik jihatlariga e’tibor qaratib, tilning ijtimoiy ma’nolarni qanday konstruksiya qilishini tahlil etadi. Shu bilan, sotsiolingvistika tilning umumiyligi sotsial xususiyatlarini identifikasiya qilishga xizmat qilsa, sotsiopragmatika tilning ijtimoiy kontekstda pragmatik funksiyalarini amalga oshirish usullarini tahlil qiladi¹⁵.

Ijtimoiy lingvistika statik bo‘lib, ma’lum bir jamiyat tilining “ma’lum bir vaqtdagi suratini” ifoda etadi, pragmatika (sotsiopragmatika) esa dinamik bo‘lib, u jamiyatdagi kommunikatorlarning tildan vaziyatga qarab qanday foydalanishini tasvirlaydi. Sotsiopragmatika asosiy e’tiborni “til harakati va ijtimoiy tuzilma o‘rtasidagi munosabat” ga qaratadi¹⁶ hamda tildan foydalanishning ijtimoiy, o‘zaro ta’siri va me’yoriy jihatlarini tushuntirishda foydalanuvchini birinchi o‘ringa qo‘yishga intiladi. Bu sohada ko‘pincha “Men kimman?” degan savol ustun bo‘ladi.

Sotsiopragmatika tilning pragmatik xususiyatlari va ularning dinamik ijtimoiy kontekstlarda amaliy realizatsiyasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, shaxslararo kommunikatsiyalarda tilning qanday qo‘llanilishini, ya’ni xushmuomalalik, yuz konsepsiysi, o‘zaro munosabatlar, emotSIONAL holatlar, etika, ijtimoiy kuch

¹⁴ Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. – Qarshi: Intellekt, 2022. – B.135

¹⁵ Wolfram Bublitz, Neal R. Norrick (eds), Handbook of pragmatics. – Berlin/Boston:Walter de Gruyter, 2021. – Pp. 98.

¹⁶ Kate Beeching, Helen Woodfield, Researching Sociopragmatic Variability. – USA: Palgrave Macmillan, 2015. – Pp. 51.

dinamikasi va hazil kabi ijtimoiy fenomenlarning shakllanishini tahlil qiladi. Sotsiolingvistika esa tilning ijtimoiy strukturalar, ya’ni jamiyat va individlar o‘rtasidagi kommunikativ aloqalarni o‘rganishga qaratilgan¹⁷.

Shuningdek, sotsiopragmatika ijtimoiy qatlam, sinf va guruhlar o‘rtasidagi kommunikativ ta’sirlarda tilning pragmatik resurs sifatida qanday foydalанишни tahlil qilish orqali madaniy qadriyatlarning lingvistik ifodalanish shakllarini ochib beradi. Bu yo‘nalish tilning muayyan sharoitdagi pragmatik funksiyalari va lingvistik resurslarning sotsial kontekstdagi o‘zaro bog‘liqliklarini o‘rganish orqali diskursiv hodisalarini ilmiy jihatdan kategoriyalash imkoniyatini yaratadi¹⁸.


Dastlab, sotsiopragmatika pragmatikaning kichik bo‘limi sifatida baholanadi, ammo, bizningcha, uni hozirgi kunda pragmatikadan “kattalashib” borayotgan tilshunoslik sohasi deya tariflay olamiz, chunki endi pragmatika ham sotsiolingvistikaning kategoriylarini o‘zida jamlagan yangi tilshunoslik sohasidir. U turli madaniyatga xos bo‘lgan nutq qoidalarini qo‘llash kabi ijtimoiy yoki sotsiolingvistik o‘chovlarni o‘z ichiga oladi. Har qanday tilning sotsiopragmatik ko‘nikmalari lingvistik kompetensiyani ham, kommunikativ kompetensiyani ham o‘zida namoyon etadi. Sotsiopragmatika tilning fanlararo sohasi bo‘lib, u so‘zlovchilarining niyatlarini muayyan jamiyatdagi ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganadi¹⁹.

Kommunikatsiyasini chuqur va keng qamrovda tadqiq etish uchun ilmiy asoslarni taqdim etuvchi yo‘nalish sifatida tilning sotsiokultural, ijtimoiy va psixologik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur sohaning taraqqiyoti madaniy va sotsiologik kontekslarda tilning strategik funksiyalarini yoritish, ijtimoiy aloqalarning shakllanish va rivojlanish dinamikasini tahlil etish, shuningdek, tilning interaktiv jarayondagi murakkab rolini anglash imkoniyatini taqdim etadi:

¹⁷ Yasuko Obama, Michael Haugh, Sociopragmatics of Japanese. – New York : Routledge, 2023. – Pp. 11.

¹⁸ Culpeper J. Historical Sociopragmatics. – USA: John Benjamins Publishing Company, 2011. – Pp. 4.

¹⁹ Kunjana Rahardi, M.Hum. Pragmatik kontekst ekstralinguistik dalam perspektif cyberpragmatics. – Yogyakarta: Diterbitkan oleh Penerbit Amara Books, 2020. – Pp. 79.



1.1.4 - chizma. Sotsiopragmatikaning fanlararo o‘zaro ta’siri²⁰

Yuqoridagi 1.1.4-chizmada sotsiopragmatikaning turli ilmiy sohalar, jumladan, antropologiya, psixologiya, sotsiologiya va lingvistika bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda sotsiopragmatik tahlil jarayonidagi sinergetik birlashuvi yoritilgan. Ushbu chizma sotsiopragmatikaning tilning sotsiokultural, etnolingvistik va psixologik komponentlarini birlashtiruvchi kompleks ilmiy paradigma sifatida inson kommunikatsiyasini sistematik va chuqur tahlil qilish imkoniyatini ta’minlashini aks ettiradi.

Sotsiopragmatikaning antropologiya bilan bog‘liqligi, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganish orqali shakllanadi. Antropologik metodologiyalar sotsiopragmatik tadqiqotlarda madaniyatning til pragmatikasiga ta’sirini, shuningdek, turli etnik guruhlar o‘rtasidagi lingvistik aloqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali sotsiopragmatika madaniyat va tilning uyg‘unligi, shuningdek, lingvistik xatti-harakatlar va madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi.

Psixologiya bilan aloqadorligi kommunikatsiya jarayonida subyektiv kognitiv va hissiy holatlarni o‘rganishda yaqqol seziladi. Sotsiopragmatika, psixologik jarayonlar va individual psixologik xususiyatlarning til orqali qanday namoyon bo‘lishini tahlil qilish orqali, kommunikativ strategiyalar va lingvistik birliklarning psixologik sabablarini aniqlaydi. Bu yo‘nalishda psixologik omillar til

²⁰ Haugh M., Daniel Z. Kadar. Marina Terkourafi, The Cambridge Handbook of Sociopragmatics. New York: Cambridge university press, 2021. – Pp.3.

pragmatikasida muloyimlik, hamdardlik yoki tanqidning qanday shakllanishiga ta'sir qiladi, bu esa sotsiopragmatik tahlilning asosiy jihatlaridan hisoblanadi.

Sotsiologiya bilan aloqadorligi esa sotsial qatlamlarning lingvistik ifodaga ta'sirini o'rganishda aks etadi. Sotsiopragmatika sotsiologik nazariyalar asosida til orqali ijtimoiy o'zaro ta'sirlar, norma hamda qadriyatlarning kommunikativ jarayonga ta'sirini tahlil qiladi. Bu yo'nalish ijtimoiy mavqe va kuchning lingvistik ifodalishda qanday aks etishini hamda ushbu omillarning pragmatik ahamiyatini ochib beradi.

Lingvistika bilan bog'liqligi esa sotsiopragmatikaning lingvistik birliklarning semantik va pragmatik funksiyalarini tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Lingvistika asosida sotsiopragmatika til birliklarining ijtimoiy va madaniy kontekstlardagi amaliy ahamiyatini o'rganadi, bu birliklarning konnotativ va denotativ ma'nolari orqali yuzaga keluvchi pragmatik funksiyalarni tahlil qiladi. Shuningdek, lingvistika sotsiopragmatik tadqiqotlarda tilning sintaktik hamda pragmatik strukturalarini aniqlash uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Demak, sotsiopragmatika yuqoridagi fanlar bilan sinergetik birlashuvga erishib, tilning ijtimoiy, madaniy, psixologik aspektlarini birlashtiruvchi ilmiy soha sifatida inson kommunikatsiyasini tizimli va keng qamrovda tahlil qilish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu yo'nalishning rivojlanishi orqali tilning kommunikativ jarayondagi ko'p qirrali rolini, ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning shakllanishi, rivojlanishini, shuningdek, madaniy-ijtimoiy kontekstlarda tilning sotsiolingvistik ahamiyatini ochib berish imkoniyati vujudga keladi.

Sotsiopragmatika mustaqil soha sifatida ajralib chiqar ekan, natijada o'ziga xos terminlari shakllandi:

Sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizlik (sociopragmatic failure) – tilshunoslikda madaniy yoki ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keladigan kommunikativ nomuvofiqlik yoki tushunmovchilikni anglatadi. Bu holat bir yoki bir nechta til egasi o'rtasida, shuningdek, umumiy tilga ega, ammo turli madaniy va ijtimoiy tajribaga ega shaxslar o'rtasida ham sodir bo'lishi mumkin²¹.

²¹ Kasper G. and Blum-Kulka, S. (Eds.) *Interlanguage pragmatics*. – New York: Oxford University Press, 1993. – Pp. 65.

Sotsiopragmatik kompetensiya (sociopragmatic competence) – bu shaxsning ijtimoiy-madaniy sharoitda til vositalarini to‘g‘ri va samarali qo‘llash qobiliyati. Unga turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday uslublar va nutq birliklaridan foydalanish zarurligini tushunish imkonini beradi, shuningdek, har bir vaziyatning ijtimoiy va madaniy me’yorlarini inobatga olishga yordam beradi²².

Sotsiopragmatik o‘zgaruvchanlik (sociopragmatic variability) – tilning ijtimoiy va pragmatik jihatlari turli madaniy sharoitlar, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida qanday farqlanishini anglatadi. Boshqacha aytganda, odamlar kim bilan, qayerda va qanday sharoitda gaplashayotganiga qarab turlicha yondashuv tanlaydi, bu esa muloqotning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega²³.

Sotsiopragmatik parametrlar – tilning ma’lum bir ijtimoiy vaziyatda qanday qo‘llanishini belgilovchi omillar. 1. Kuch (power): bu kommunikatorlarning ijtimoiy iyerarxiyadagi mavqeyi yoki ularning bir-biriga nisbatan ta’sir darajasi, ya’ni boshqaruv va nazorat imkoniyatlari qanchalik yuqori ekanligini ifodalaydi. 2. Ijtimoiy masofa (social distance): suhbatdoshlar o‘rtasidagi yaqinlik yoki uzoqlik darajasi. 3. Ko‘rsatkich/ xarajat-foyda (rank of imposition/cost-benefit): muloqotda aytilayotgan narsaning suhbatdosh uchun qanchalik muhim yoki qiyin ekanligini anglatadi²⁴.

Sotsiopragmatik xushmuomalalik – (Lich uni “nisbiy xushmuomalalik” deb atagan) ijtimoiy kontekstda vaziyatga nisbatan xushmuomalalik²⁵.

Sotsiopragmatik tamoyillar va qoidalar, matnda muloqotning maqsadga muvofiq tashkil etilishida nazorat qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi. Ushbu tamoyil va qoidalarga rioya qilish, muloqotning ijtimoiy-kontekstual xususiyatlari hamda nutqiy vaziyatning pragmatik talablariga asoslanadi. Muloqot holati esa jamiyatga xos madaniy kodlar, ijtimoiy guruhning konvensiyalari nuqtayi nazaridan baholanadi.

²² Lestari Amber Sukesti, Interlanguge pragmatics of invitation by Indonesian EFL learners. – Indonesia: CV. Rasi Terbit, 2014. – Pp. 25.

²³ Kate Beeching, Researching sociopragmatic variability. – New York: Palgrave Macmillan, 2015. – Pp. 2.

²⁴ Eva Alcón Soler, Learning how to request in an instructed language learning context. – Berlin: Peter Lang. 2008. – Pp. 52.

²⁵ Lich, G. N. Principles of Pragmatics. – London and New York: Longman, 1983. – Pp. 10.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnlarning milliy-madaniy, kognitiv, psixolingvistik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, pragmatik hamda sotsiopragmatik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar chuqurlashib bormoqda. Bunday tadqiqotlarda badiiy asarlar ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qimmatli manba hisoblanadi, chunki unda millatning dunyoqarashi, ijtimoiy ko‘nikmalari va madaniy qadriyatlari til orqali ifodalanadi.

Ushbu dissertatsiyamizda sotsiopragmatik metodologiyaga asoslanib, Tohir Malik asarlaridagi qahramonlar nutqida til va madaniyat indikatorlari orqali namoyon bo‘ladigan kommunikativ strategiyalar, xususan, xushmuomalalik, madaniy konvensiyalarga asoslangan nutq usullarini ilmiy jihatdan tahlil qilganimiz. Ushbu yondashuv badiiy asarlardagi muloqotlarni chuqur tahlil qilish hamda qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlashga imkon bergen. Shu orqali obrazlarlarning til orqali jamiyatdagi o‘rni, mavqeyini aniq ifodalanadi, muloqotdagi xushmuomalalik aktlari orqali ularning ijtimoiy roli namoyon bo‘ladi.

1.2-§. Sotsiopragmatikada xushmuomalalik strategiyalarining o‘rni va ahamiyati

Xushmuomalalik ijtimoiy tartibni ta’minlovchi fundamental prinsip bo‘lib, u jamiyat a’zolari o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro anglashuv munosabatlarini shakllantirish uchun zaruriy omil sifatida baholanadi. Insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarda universal insoniy qadriyatlar amal qiladi, sotsial mavqe yoki ijtimoiy maqomdan qat’iy nazar, bu munosabatlar jamiyatning turli guruh va qatlamlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Xushmuomalaning ilmiy, nazariy jihatdan tadqiqi jahon tilshunosligida XX asrning o‘rtalarida boshlangan. Ayniqsa, G‘arb tilshunosligida “Politeness” ya’ni “Xushmuomalalik” atamasi o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy adabiyotlarda o‘z aksini topa boshladi va mustaqil tadqiqot sohasi sifatida rivojlandi.

Jumladan jahon tilshunoslari Lakoff, P.Braun va Levinson, G.Lich, S.Blum-Kulka, J.Kulpepper, M.Haug va boshqalar²⁶; rus tilshunosligida E.Rudneva, E.Yerzinkyan, B.Belyayeva, E.Aplatov, A.Zemskaya kabi bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan²⁷.

O‘zbek tilshunosligida Sh.Iskandarova, S.Mo‘minov, Sh.Safarov, H.Turdiyeva, B.Odinayev, S.Saydullayeva, A.Shomaxmudova, M.Xolova, N.Adanboyeva, N.Ruziyeva²⁸ kabi tilshunoslar tomonidan “nutqiy etiket” birliklari, xushmuomalalik kategoriyalari hamda usullari sotsiolingvistik, pragmatik aspektlarda tadqiq etilgan. Ammo badiiy asar konteksti misolida xushmuomalalik strategiyalari yaxlit tizim sifatida sotsiopragmatik jihatdan hali tadqiq etilmagan.

M.Hakimov xushmuomalikni (politeness) strategiyalarini (to‘g‘rirog‘i, Graysning hamkorlik tamoyili) “nutqiy etiket” nomi bilan ko‘rsatgan bo‘lsa²⁹, aynan shunday nomlash H.Turdiyeva tadqiqotlarida ham uchraydi, u nutqda insonning madaniyati, odobi, bilimi, xulq-atvori aks etadi. Bu in’ikos

²⁶ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 345.; Blum-Kulka S. Indirectness and Politeness in Requests: Same or Different? // Journal of Pragmatics, 11 (2), 1987. – Pp. 131-146.; Culpeper J. (Im)politeness in drama // Verdonk P., Short M., Culpeper J. (eds.) Exploring the Language of Drama: From Text to Context. London: Routledge, 1998. – Pp. 83-95.; Culpeper J. Impoliteness and Entertainment in the Television Quiz Show: the Weakest Link // Journal of Politeness Research, (1), 2005. – Pp. 35-72.; Haugh M. and Jocular Mockery, (Dis)affiliation and Face // Journal of Pragmatics, 42, 2010. – Pp. 106-119. Haugh M. Intercultural (im)politeness and the micro-macro issue // Trosborg A. (eds.) Pragmatics across Languages and Cultures. Berlin: Mouton de Gruyter, 2010. – Pp. 139-166

²⁷ Руднева Е.А. Рецензия на книгу: Dániel Z. Kádár., M. Haugh “Understanding Politeness” // Антропологический форум, № 27, 2014. – С. 214-221.; Ерзинкян Е. Л. Лингвистическая категория вежливости: семантика и pragmatika , Ереван, Издательство ЕГУ 2018, – С. 46-87; Алпатов В.М. Категория вежливости в современном японском языке. Москва.: Наука, 1973; Беляева Е.И. Принцип вежливости в речевом общении // Иностранные языки в школе, 1985, № 2. – С. 3-10; Ерзинкян Е.Л. Концепт вежливости в свете теории речевых актов // Иностранные языки в школе, № 4-5. Ереван, 2009. – С. 62-73; Земская Е.А. Категория вежливости в контексте речевых действий // Логический анализ языка. Язык речевых действий. Москва: Наука, 1994. – С. 131-136

²⁸ Исандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулокот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 140.; Мўминов С. Ўзбек мулокот хулқининг ижтимоий–лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари дри...дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 235.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 320.Турдиева Х. Нутқий етиket бирликларининг лингвопрагматик тадқики: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 180.; Odinayev B. O‘zbek nutqiy muloqotning lingvopragmatik xususiyatlari (Erkin A’зам асарлари misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – Б. 54.; Saydullayeva S. Ingliz va o‘zbek tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari: Filol.fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)...diss. Avtoref.– Samarqand, 2023. – Б. 48.; A. Shomaxmudova, Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqealantiruvchi sotsiopragmatik omillar (Ispan tili misolida); Filol. fanlari dok. (DSc)... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – Б. 9.; Xolova M. Ingлиз va o‘zbek badiiy asarlarda xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot, 2023. – Б. 66.; Adanboyeva N. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)...diss. avtoref. –Farg‘ona, 2024. B. 55.; Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyalarining shartlanishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)...avtoref. – Buxoro, 2024. – Б. 48.

²⁹ Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013.– Б. 48.

tilshunoslikda “nutqiy etiket” (“Politeness”) tushunchasi orqali ifodalanadi deya izoh beradi³⁰.

G.Yusupova ham “Politeness” – xushmuoammalik termini o‘riga sinonim sifatida nutqiy etiket nomini qo‘llaydi va nutqiy etiket formulalari nutqni yaratish jarayonida so‘zlovchi tomonidan hosil qilinmaydi, balki u tomonidan tayyor qoliplar sifatida qayta yaratiladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda nutqiy etiket birliklari “nutqiy etiket qoliplari”, “turg‘un muloqot qoliplari”, “nutq andazalari”, “bog‘langan ifodalar”, “qolip iboralar”, “nutq klishelari” deb ham ataladi³¹, deya yozadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ular o‘z tadqiqotlarida har qanday tilda mavjud turg‘un etiket birliklarni (salomlashish, xayrlashish, iltifot, tabrik, minnatdorchilik kabi ...) nazarda tutishganligini ko‘ramiz.

Sh.Safarovning “Pragmalingvistika”sida xushmuomalalik strategiyalari “hurmat tamoyili” deb nomlangan va bu terminni quyidagicha izohlagan: “Hurmat tamoyilining keng miqyosda o‘rganilishi natijasida sotsiopragmatika mustaqil tadqiq sohasi sifatida shakllandi. Sotsiopragmatikada hurmat kategoriyasi tamoman o‘zgacha talqinga ega. Ma’lumki, odatiy talqinda “hurmat” tushunchasi etiket, odob normalari bilan bog‘lanadi va bir shaxsning ikkinchisiga nisbatan e’tiborli bo‘lishi anglashiladi. Sotsiopragmatikada esa bu hodisa lisoniy muloqot jarayonida faollashuvchi reja-substrategiyalar to‘plami sifatida qaraladi. Bu yo‘sindagi tahlilda e’tibor u yoki bu vaziyatga mos tushadigan kommunikativ harakatlar tanloviga qaratiladi. Tanlov esa lisoniy vositlarining etiket normalaridan tashqari, normaga zid tomonlarni ham qamrab oladi³², deya izohlaydi.

Ammo xushmuomalalik strategiyalari o‘rnida nutqiy etiket nomini qo‘llash qanchalik to‘g‘ri va muvofiq?

Bizningcha, xushmuomalalik nazariyasini “nutqiy etiket” deb nomlash qisman to‘g‘ri, lekin to‘liq emas.

Tilshunoslikda “nutqiy etiket” konsepti ijtimoiy munosabatlarda odob-axloq normativlariga muvofiq kommunikativ muloqotni amalga oshirish prinsiplarini

³⁰ Турдиева Х. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқики: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 15.

³¹ Yusupova G. Koreys va o‘zbek nutqiy etiketlarining sotsiolingvistik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 11.

³² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 147

ifodalaydi. Ushbu termin ma'lum bir madaniyatga xos rasmiy va norasmiy diskursiv me'yorlarga rioya etishni anglatadi, bunda hurmat va samimiylilik kabi ijtimoiy qadriyatlar lingvistik markerlar orqali namoyon bo'ladi. "Nutqiy etiket" ijtimoiy-psixologik va pragmatik kontekstda kommunikativ hamkorlikni mustahkamlovchi asosiy kategoriya sifatida qaraladi.

Ammo, xushmuomalalik nazariyasi (politeness theory) faqat nutqiy etiket bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy munosabatlarda yuzaki samimiylikni saqlash, adresatning sotsial maqomini inobatga olish va konfliktdan qochish kabi turli lingvistik hamda diskursiv strategiyalarni qamrab oladi.

Shunday qilib, "nutqiy etiket" xushmuomalalik nazariyasining bir qismi bo'lib, lekin nazariyaning to'liq mazmunini aks ettirmaydi. Bu atama nazariyaning faqat ma'lum bir jihatiga, ya'ni muloqotdagi odob-axloq qoidalariga rioya qilishga qaratilgan qismini ifodalaydi xolos.


Demak, o'zbek tilshunosligida xushmuomalalik nazariyasini 3 xil nom bilan tadqiq etilayotgani kuzatdik, ya'ni "nutqiy etiket", "hurmat", "xushmuomalalik".

Xushmuomalalik lingvistik va madaniy kontekstda keng tarqalgan kommunikativ xatti-harakatlar tizimini ifodalaydi. O.Driskoll uni "ijtimoiy indeksatsiya vositasi" sifatida ta'riflaydi, ya'ni u shaxslararo ijtimoiy munosabatlarni identifikatsiya va nazorat qilish uchun qo'llaniladigan pragmatik mexanizmdir. Xushmuomalalik turli tillar va madaniy paradigmalar doirasida turli shakllarda ifodalansa-da, uning asosiy funksiyasi o'zgarmasdir: ijtimoiy munosabatlarni me'yorga solish va konfliktlardan chetlashish.

Xushmuomalalik ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra xushfe'lllikka nisbatan kengqamrovlidir. U insonning ham xatti-harakati, ham muloqoti natijasida vujudga keladi.

Xushmuomalalikning ifodalarini turli lingvistik resurslar orqali namoyon bo'ladi. Muayyan ijtimoiy kontekstda xushmuomalalikning pragmatik aspektlari pragmalingvistika tomonidan o'rganiladi. Pragmatik aspektlar kommunikativ ehtiyojlarni qondirish uchun til birliklarining qaysi funksiyalarda ishlatalishini, shuningdek, bu birliklarning nutq jarayonida qanday samarali qo'llanishini

o‘rganishga qaratilgan. Xushmuomalalikning sotsial komponentlari esa sotsiopragmatika tomonidan tahlil qilinadi. Sotsial komponentlar, ya’ni ijtimoiy omillar, til vositalarining ijtimoiy munosabatlarni boshqarishdagi rolini aniqlaydi, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy mavqe, masofa va o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi lingvistik strategiyalarga e’tibor qaratadi³³. Shunga ko‘ra G.Lich xushmuomalalikni pragmatik xushmuomalalik va sotsiopragmatik xushmuomalalik sifatida tasniflagan³⁴. Demak, xushmuomalalik prinsiplari pragmalingvistika va sotsiopragmatikaning o‘zaro bog‘liq tadqiqot maydonida joylashgan. Xushmuomalalik shakllari, strategiyalarini tanlash esa kommunikativ va sotsial kontekstga, shuningdek, adresant va adresat o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq bo‘lib, bu pragmalingvistika hamda sotsiopragmatika doirasida chuqur tadqiq qilinadi. Xushmuomalalik shakllari, strategiyalarining tanlanishi pragmalingvistikaga tegishli bo‘lsa, qachon, qayerda va kimga nisbatan qo‘llanishi sotsiopragmatikaga tegishlidir³⁵:



1.2.1-chizma. Xushmuomalalik nazariyasi umumiy pragmatik tadqiqot sifatida

³³Lich, G. N. The Pragmatics of Politeness. New York: Oxford University Press, 2014. – Pp. 15.

³⁴ Lich G. N. Ko‘rsatilgan manba. – Pp. 15.

³⁵ Wolfram Bublitz Andreas H. Jucker Klaus P. Schneider. Handbooks of Pragmatics, – Walter de Gruyter GmbH & Co. KG, Berlin/Boston, 2011. – Pp. 86.

Xushmuomalalik (politeness) pragmatika va sotsiopragmatika o‘rtasida integratsion vazifani bajaruvchi nazariy kategoriya sifatida muhim ahamiyatga ega. Xushmuomalalik strategiyalari nutq aktlari doirasida ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni tartibga solish, ijtimoiy masofani minimallashtirish va kommunikativ muvozanatni saqlashni ko‘zda tutadi. Bu strategiyalar o‘zaro hurmat, ijtimoiy maqomni barqarorlashtirish hamda suhbat taraflari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash kabi jarayonlarda markaziy o‘rinni egallaydi.

Pragmatika, asosan, til birliklarining semantik va kontekstual qo‘llanilishini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lsa, sotsiopragmatika bu jarayonga ijtimoiy omillar, madaniy kontekstlar va kommunikativ vaziyatlarning sotsial aspektlarini qo‘sib o‘rganadi. Shu tariqa, xushmuomalalik tamoyillari sotsiopragmatik yondashuv doirasida o‘zaro munosabatlarni boshqarish va ijtimoiy normativlarni nazorat qilish funksiyasini bajaradi.

Sotsiopragmatik tahlil tilning ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi funksiyalarini, sotsial qudrat, nufuzning ta’sirini, shuningdek, ixtiyorilik va ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonlarida qanday namoyon bo‘lishini tadqiq qiladi. 1.2.1-chizmada aks ettirilganidek, muloyimlik strategiyalari ijtimoiy-pragmatik yondashuvlar o‘rtasidagi sinergiyani namoyish etadi, ya’ni bu strategiyalar diskursiv aktlarni lingvistik va sotsial jihatlari bilan birgalikda integral tahlil qilish imkonini beradi.

Penelop Braun va Stiven Levinson tomonidan taklif qilingan xushmuomalalik nazariyasi hurmat tushunchasiga asoslanadi, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda insonning o‘zini o‘zi qadrlashi yoki uning ijtimoiy yuziga (“yuzni saqlab qolish” yoki “yuzni yo‘qotish” kabi) haqoratlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar sifatida talqin etiladi³⁶. Xushmuomalalik prinsipi – “mojaroli vaziyatlarning oldini olishga” yo‘naltirilgan nutq xatti-harakatlarining maxsus strategiyasi sifatida belgilanadi, uning maqsadi “yuzni yo‘qotish” (потерять лицо) xavfi mavjud bo‘lgan vaziyatlarda “yuzni saqlab qolish” (сохранить лицо)

³⁶ Henningsen, Mary L. M. (2017). *Politeness Theory*. [doi:10.4135/9781483381411](https://doi.org/10.4135/9781483381411).

hisoblanadi³⁷. Natijada, xushmuomalalik strategiyalari suhbatdoshlar tomonidan ijtimoiy yuzga tahdidlarning ta'sirini kamaytirish uchun qo'llaniladi³⁸.

Evrin Goffman (1966) birinchilardan bo'lib "yuz" (face)ning inson hayotidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslab bergan³⁹. Bu yuz inson tana a'zosini emas, balki muloqotda inson tomonidan doimo himoya qilinishi kerak bo'lgan ijobiy o'ziga xoslik, xarakter, obro' va imij ma'nosini anglatuvchi lingvistik termindir. Braun hamda Levinson tomonidan taklif qilingan yuz tushunchasini to'laligacha ma'qullaydilar. Ular yuzni ikki turga ajratdilar: 1) ijobiy yuz; 2) salbiy yuz.

O'zbek tilshunosligida A.Shomahmudova, H.Turdiyeva tadqiqotlarida yuz – "face" "hurmat" termini bilan tadqiq etilgan. H.Turdiyeva Braun va Levinson nazariyasiga asoslanib, ular negativ o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (negative self – respect needs) deganda bosim o'tkazmaslikka bo'lgan ehtiyojdir, pozitiv o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (positive self-respect needs) deganda ma'qullahga bo'lgan ehtiyoj nazarda tutiladi deya izohlaydi⁴⁰. A.Shomahmudova esa "Ijobiy" hurmat suhbatdoshning ijobiy qiyofasini mustahkamlashga xizmat qiladi, ya'ni so'zlovchi suhbatdoshiga bo'lgan samimiyligini e'tirof etgan holda, u bilan hamfikr ekanligini ifodalaydi.

Samimiyat, iltifot ko'rsatish, ijtimoiy guruh ichidagi vaziyatni hisobga olgan holda konstruktiv muhit yaratish va nizolardan qochish kabi jihatlarni "ijobiy" hurmat namunalari sifatida tavsiflash mumkin. "Salbiy" hurmat esa shaxs avtonomiyasini, ya'ni adresatning shaxsiy makoni va chegaralarining daxlsizligini saqlash zaruratiga urg'u beradi. Nutqiy muloqotda ijtimoiy masofa va noqulaylik mavjudligiga ishora qiladigan, og'ir-bosiqlik, vazminlik, rasmiyatchilik va xushmuomalalik ifodalari "salbiy" hurmat namunalaridandir" deb izohlaydi⁴¹.

³⁷Rasulov Zubaydullo Izomovich, xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi // BuxDU Ilmiy axborotnomasi, 2023. – №43. – B. 232-239.

³⁸ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 45.

³⁹ Hendi Pratama, Linguistic politeness in online communicaciton. – Hak cipta, 2019. – B. 5.

⁴⁰ Турдиева X. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқики: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 21.

⁴¹ Shomaxmudova A, Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqealantiruvchi sotsiopragmatik omillar: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 14.

Ko‘pincha salbiy yuz terminini tushunishda chalkashliklar bor. Salbiy yuz – bu erkinlik tushunchasi. Ijobiy yuz – bu o‘z-o‘zini qadrlash, ma’qullash va yoqtirish tushunchasini ifodalaydi. Salbiy yuz tushunchasini tushunish biroz qiyinroq. Braun va Levinson salbiy yuzni shaxsning o‘zining asosiy huquq va erkinliklariga *boshqalar tomonidan to ‘sqinlik qilmaslik istagi* sifatida belgilaydi.

Muloqotda kommunikatorlar duch keladigan tahdidlar ijtimoiy yuzga tahdid soluvchi xatti-harakatlar (FTA – Face threatening act) deb ataladi, Ijtimoiy tahdidni keltirib chiqaruvchi aktlar kommunikatorlarning ijobiy va salbiy yuz ifodalariga tahdid soladigan, odatiy va kundalik muloqotda ko‘zga tashlanadigan verbal va noverbal kommunikativ aktlardir. Bunday aktlarga, masalan, so‘rov qilish, kechirim so‘rash, iltimos bildirish, maslahat berish, tanqid kiritish, taklif qilish kabi nutqiy aktlar misol bo‘la oladi.

1.2.1-jadval.

Ijobiy va salbiy yuzga tahdid soluvchi nutqiy aktlar.

Ijobiy yuzga tahdid lar (FTA)	Salbiy yuzga tahdid lar (FTA)
tanqid va haqoratlar	buyruq va talablar
e’tiborsizlik	taqilash
raqobat, o‘zini ustun qo‘yish	biror harakatn bajarishga majburlash
kamsitish, masxara qilish	tanbeh, uyaltirish
kelishmovchiliklar	maslahat, ko‘rsatma berish
beparvolik	ogohlantirishlar
sukut saqlash	taklif, iltimoslar, so‘roqlar

“Ijtimoiy yuz” konsepsiysi shaxsning ijtimoiy muhitdagi imijini va uning ijtimoiy nufuzga ega bo‘lish jarayonidagi qiymatini ifodalaydi. Boshqalarning ijtimoiy yuzini tan olish esa shaxsning ijtimoiy statusi va obro‘siga hurmat ko‘rsatish akti sifatida qaraladi. Ijtimoiy yuz (social face) – bu subyektning jamiyatdagi qabul qilinishi, ya’ni boshqalar tomonidan o‘z ijtimoiy kontekstida qanday baholanishidir. Ijtimoiy yuzga hurmat ko‘rsatish yoki uni e’tirof etish darajasi o‘zaro ijtimoiy masofa yoki yaqinlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

Masalan, ijtimoiy jihatdan begona yoki uzoq turgan shaxs bilan kommunikativ o‘zaro ta’sirda uning ijtimoiy yuzini tan olmaslik, ya’ni yetarli darajada hurmat ko‘rsatmaslik yoki e’tiborsiz munosabatda bo‘lish norma sifatida

qabul qilinishi mumkin. Aksincha, ijtimoiy jihatdan yaqin bo‘lgan do‘sit yoki tanish bilan o‘zaro munosabatda esa “yuz” ni tan olish, yaqinlik, hamjihatlik va hurmatning aniq, sezilarli tarzda namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

O‘zaro muloqotning har bir ishtirokchisi boshqasidan o‘z ijtimoiy yuzini hurmat qilishini kutadi. Agar bunday bo‘lmasa, yuz bilan tahdid qiluvchi harakat (FTA) amalga oshiriladi. Yuzni saqlab qolish uchun harakat “framework” – yuz ishi deb ataladi⁴² yoki yuzni saqlash harakatlari (FSA – Face saving act) uchun strategiyalar to‘plami xushmuomalalik deya nomlanadi. Uning o‘ziga xos, belgi xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

- xushmuomalalik darajalari va lingvistik ifodalari jamiyatdagi shaxslarning maqomi, yoshi hamda jinsi kabi sotsial o‘zgaruvchilar asosida farqlanadi. Turli tillar, madaniyatlardagi shaxslarning ijtimoiy statusi, bilim darajasi hamda boshqa sotsial xususiyatlari xushmuomalalik strategiyalariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi;
- xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlar dinamikasini muvozanatlash orqali ijtimoiy barqarorlikni, osoyishtalikni ta’minlaydi. Ushbu fenomen universallikka ega bo‘lsa-da, har bir madaniyatda o‘ziga xos tarzda ifodalanadi va sotsial kontekstga bog‘liq ravishda farqlanadi;
- xushmuomalalik situatsion xarakterga ega bo‘lib, turli sharoitlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Qaysi strategiyalar qo‘llanishi lozimligi madaniy kontekst orqali belgilanadi. Ayrim holatlarda bu norma sotsial-ma’naviy majburiyat sifatida qabul qilinadi, boshqa vaziyatlarda esa shaxsiy tanlov erkinligi asosida amalga oshiriladi;
- xushmuomalalikning asosiy vazifasi ijtimoiy ziddiyatlarni minimallashtirish va samimiyligi, do‘stonalarni mustahkamlashdan iboratdir. Sotsiopragmatik tahlil ushbu jarayonni yanada chuqurroq o‘rganib, muloqotda uyg‘unlik va tinchlikni saqlashga xizmat qiladi.

⁴²Shomaxmudova A. Ko‘rsatilgan taddiqot. – B. 27.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Sotsiopragmatika til birliklarining ijtimoiy kontekstlarda qanday shakllanib qo‘llanilishini ijtimoiy o‘zgaruvchilar, masalan, ijtimoiy status, jins, yosh, va ijtimoiy rol orqali tahlil qiluvchi sohadir. Ushbu soha tilning pragmatik xususiyatlarini, ya’ni ijtimoiy masofa, kuch dinamikasi va kommunikativ niyatlarning nutq aktlaridagi aksini o‘rganishga qaratilgan.

2. Ijtimoiy kontekstda tilning qoida va strategik qo‘llanishini tahlil qilish an’naviy lingvistik tahlillardan tashqariga chiqadi. Shuningdek, u muloqotning ijtimoiy va sotsial-madaniy jihatlarini aniq ko‘rib chiqadi, ularga kommunikativ harakatning tarkibiy qismi maqomini beradi, shu bilan antropologik tilshunoslikning tadqiqot paradigmalari interaktiv sotsiolingvistika bilan mos keladi.

3. Ijtimoiy pragmatika so‘zlarning ishlab chiqarilishi va talqin qilinishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy parametrlarni o‘rganadi. Bu tildan foydalanish hamda ijtimoiy tuzilmaning dialektik bog‘liqligi, o‘zaro ta’sirda ijtimoiy qadriyatlarni, masalan, jins, hokimiyat va ijtimoiy maqomni mustahkamlash (yoki inkor etish) orqali ijtimoiy hamda sotsial-madaniy kontekstni (qayta) qurishga asoslanadi.

4. Xushmuomalalik – suhbatdoshlarning obro‘sini yo‘qotish xavfini minimallashtirgan holda ijtimoiy yuzga tahdid soluvchi harakatlar qilish uchun qaratilgan lingvistik strategiyalar to‘plami. Ijtimoiy yuz – ma’lum bir tarzda harakat qilish orqali o‘zimiz uchun da’vo qiladigan ijobiy ijtimoiy va lingvistik qadriyat. Uning ikki turi mavjud: salbiy yuz (erkinlik istagi) va ijobiy yuz (yoqtirish va ma’qullash istagi). Ijtimoiy yuz bilan tahdid qiluvchi harakat bu so‘zlovchining yoki tinglovchining ijobiy yoki salbiy yuziga tahdid soladigan har qanday harakatdir.

5. Xushmuomalalik tamoyili suhbatdoshlar bilan hurmat hamda qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish, munosabatlarni yaxshilash, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch va hurmatni saqlash, oshirish, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun juda ahamiyatli. Xushmuomalalik barcha munosabatlarning kalitidir va o‘zaro muloqot qilish, o‘zimizni aniqlash usulining asosiy qismidir.

II BOB. TOHIR MALIK ASARLARIDAGI XUSHMUOMALALIK

STRATEGIYALARINING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

2.1-§. Nutqiy aktlarda bevosita strategiyaning namoyon bo‘lishi

Bevosita strategiya⁴³ (Bald on record) – muloqotda so‘zlovchining kommunikativ niyatini aniq va to‘g‘ridan to‘g‘ri aks ettirishga xizmat qiladi. Bu strategiya, odatda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy tahdid (FTA) ta’sirini minimallashtirishga qaratilgan har qanday qo‘srimcha til birliklari yoki usullarsiz amalga oshiriladi. Bevosita strategiya ko‘pincha buyruq yoki talab shaklida qo‘llaniladi va bu shaklda foydalanilganida yuzaga keladigan ijtimoiy tahdid minimal darajada saqlanadi, chunki so‘zlovchi tomonidan hech qanday tuzatmalar kiritilmaydi. Xushmuomalalikning nol darjasи sifatida ham baholanashi mumkin. Ushbu strategiyadan foydalanilganda u murojaat qilinadigan shaxslarni hayratda qoldirishi yoki biroz noqulay his etilishiga sabab bo‘ladi. Bunday strategiya odatda o‘zaro yaqinlik darjasи yuqori bo‘lgan shaxslar, masalan, yaqin do‘stlar yoki oila a’zolari o‘rtasida keng qo‘llaniladi⁴⁴.

Bu strategiyada so‘zlovchi tinglovchining ijtimoiy yuziga tahdidlarni kamaytirish uchun hech qanday tuzatish qilmaydi. Uni qo‘llashning asosiy sababi shundaki, agar so‘zlovchi tinglovchining yuzini qondirishdan ko‘ra maksimal samaradorlik bilan FTA qilishni xohlasa, hatto har qanday darajada, u bevosita strategiyani tanlaydi⁴⁵. Bevosita (bald on record) strategiyasi ko‘pincha direktiv nutq aktlarini amalga oshirishda qo‘llaniladi. Direktiv nutq akti odatda tinglovchidan ma’lum bir harakatni amalga oshirishni talab qiladigan nutq aktidir. Bunga buyruq berish, so‘rash, maslahat berish, taklif qilish kabi nutqiy faoliyatlar kiradi. Direktiv nutq akti va bevosita strategiya odatda yuqori darajadagi ijtimoiy kuch, yaqinlik mavjud bo‘lgan vaziyatlarda samarali bo‘ladi, chunki bu


⁴³ Xolova B. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot, 2023. – B. 14.

⁴⁴ Xolova B. Ko‘rsatilgan manba. – B. 14.

⁴⁵ Satriani, S. Hum., M.Pd. Discourse analysis. – Indonesia / Pekalongan, Jawa tengah: Penerbit NEM, 2021. – Pp.70.

vaziyatlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish tinglovchining yuziga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladi. Ammo direktiv aktni bu strategiyaning bir qismi sifatida ko‘rsatish mumkin. Bevosita strategiya adresantning maqsadini aniq ifodalarydi va ko‘pincha nutqning formasi (shakli) va funksiyasi (pragmatik ma’no) o‘rtasida bevosita bog‘lanish bo‘lgan performativ fe’llar orqali shakllanadi.

Bevosita strategiyadan foydalanishning ikki turi ajratiladi⁴⁶:



2.1.1-chizma. *Bevosita strategiya turlari*

I. Ijtimoiy yuzga tahdid minimallashtirilmagan bevosita strategiya (Cases of non-minimization of the face threat)

Bald on record strategiyasida tuzatuvchi harakatlarsiz, ochiq (baldly) – “non-minimization of the threat⁴⁷ turi kontekstga qarab turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu turdagи strategiya to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq so‘zlashni o‘z ichiga oladi, bunda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfni kamaytirish uchun hech qanday urinish qilinmaydi. Qo‘llaniladigan ifodalar aniq va bevosita bo‘lib, suhbатdoshning his-tuyg‘ularini hisobga olmay, bevosita maqsadga yo‘naltirilgan direktiv aktlarda foydalanilganligi uchun ham direktiv strategiya⁴⁸ deb nomalanadi. Bu uslub odatda yaqin munosabatlarda yoki rasmiy kontekstlarda

⁴⁶ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp.95.

⁴⁷ Lich, G. N. The Pragmatics of Politeness. New York: Oxford University Press, 2014. – Pp. 33. / Xolova B. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot , 2023. – B. 14.

⁴⁸ Lich, G. N. Ko‘rsatilgan manba. – Pp.37.

qo‘llaniladi, bunda ijtimoiy nuqtayi nazardan qattiqroq ifodalarni qo‘llash ham mumkin. Natijada adresatning erkinligini cheklab, salbiy yuzga tahdid soladi:

1. *Buyruq*: Undash akti – buyruq akti⁴⁹, direktiv akt⁵⁰ – o‘zida kommunikativ (illokutiv) maqsadning bayon qilinishiga ko‘ra reprezentativ aktlardan farqlanadi. Undash aktini sodir etish uchun so‘zlovchi propozitsional mazmunda ma’lum bir narsa, hodisa yuzasidan xabar berish bilan tinglovchini qaysidir harakatlarni bajarishga undaydi⁵¹. Demak, undash aktida adresant biror kommunikativ niyat yoki maqsad orqali ma’lum bir ifodani talaffuz qilish bilan adresatni qaysidir xatti-harakatlarni bajarishni buyuradi:

... *Uningni o‘chir! – dedi Asadbek dag‘al ovozda. – Uyga bor, ovozingni chiqarma. Bitta-yarimta so‘rasa... ammasinikida edi, de.*

- *Voy... – Manzura eriga ajablanib qaradi. – Ammasi yo‘q-ku?*
- *He noshud, – Asadbek shunday deb g‘ijiindi. “Bu lalaygan xotin eplab bir bahona topolmasa...” – ammasi bo‘lmasa... ko‘chada mashina sal turtib ketibdi, de, kasalxonada ekan, de.. Bor... To‘xta, kim bilan kelding?*
- *Jamshid bilan.*
- *Seni tashlab, Jalilni olib kelsin. (“Shaytanat” –1.)*

Ushbu matn parchasida “*Uningni o‘chir!*” jumlasida buyruq aniq va bevosita ifoda etilgan, shoshilinchlik hamda kuchni ifodalagan; “*Uyga bor, ovozingni chiqarma*” jumlasida muloyimlik yoki tahdidni kamaytirishga urinish yo‘q; “*Bor... To‘xta, kim bilan kelding?*” – bevosita buyruq, holatning jiddiyligini ko‘rsatgan; ”*Seni tashlab, Jalilni olib kelsin.*” – qat’iy ifoda, hamma uchun ma’lum bo‘lgan kuchli pozitsiyani ifodalagan. Asadbekning dag‘allik bilan gapirishi uning avtoritetini, kuchini va murosasizligini ko‘rsatadi. Quyida kontekstda qo‘llangan buyruq aktlarini quyidagi 2.1.1-jadvalda batafsil tahlil qildik:

⁴⁹ Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013. – Б. 156.

⁵⁰ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 107.

⁵¹ Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 130.

2.1.1-jadval.

Buyruq aktining sotsiopragmatik tahlili.

Bevosita strategiya					
1.	2.	3.			
<i>Uningni o‘chir! ...</i>	<i>Uyga bor, ovozingni chiqarma.</i>	<i>Bitta-yarimta so ‘rasa... ammasinikida edi, de.</i>			
Asadbek hech qanday muloyimlik belgilarisiz, bevosita Manzuraga jim bo‘lishni buyurgan. Bu gap shoshilinchligini va uning Manzuraga nisbatan yuqori mavqeyini ko‘rsatgan.	Asadbekning bu gapida ham yumshoqlik yo‘q, ochiq buyruq akti qo‘llangan. Bu gap uning Manzuraga nisbatan hokimiyatini va vaziyat ustidan to‘liq nazoratni saqlab qolishga intilishini ko‘rsatgan.	Asadbek Manzuraga bahona aytishiga da’vat etgan. Gapning bu tarzda aytilishi, Manzuraning boshqa tanlovi yo‘qligini va Asadbekning ko‘rsatmasiga to‘liq amal qilishi kerakligini bildirgan.			
Sotsiopragmatik tahlil					
Hokimiyat va kuch:	Muloqotning pragmatik jihatlari	Ijtimoiy rollar va ularning aks ettirilishi:			
Asadbekning ustunligi	Manzuraning muteligi	Tezkorlik va shoshilinchlik (buyruq akti)	Emotsional holat (perlukatsion akt)	Gender rollar (er va xotin)	Ijtimoiy munosabatlari (boshqaruvchi va bo‘ysinuvchi)

Asadbekning bevosita strategiyani qo‘llashi uning oiladagi nazorat va kuchni o‘z qo‘lida saqlashga intilishini namoyon etgan. U shoshilinch, emotsional holatda bo‘lgani uchun bevosita va ochiqchasiga gapirgan. Bu strategiya orqali u o‘zining hokimiyatini ta’kidlagan hamda Manzurani bo‘ysinishga majburlagan. Asadbekning buyruqlar berishi, Manzuraning esa unga itoat etishi, jamiyatdagi an’anaviy gender rollarni ko‘rsatibgina qolmay, ular o‘rtasidagi suhbat sharq oilalariga xos muloqot strategiyasini ko‘rsatadi.

2. Ogohlantirish :

– *Tengiz hafsalasi pir bo‘lib, qo‘l siltadi. – Senlar mishiqlaringni oqizib, “tuhmatdan qamaldim”, deb yig‘lab yuraverasanlar. Endi gap shu, bilmasang bilib ol: men – o‘g‘riman!* (“Murdalar gapirmaydilar”, 6-b.)

Bu kontekstda ham fikrlar bevosita aytilgan bo‘lib, suhbatdoshning his tuyg‘ularini hisobga olmagan va tahdidni kamaytirishga harakat qilmagan.

So‘zlovchi o‘zining kimligini, nima bilan shug‘ullanishini ochiq aytib, ogohlantirmoqda. Bu orqali u o‘zining pozitsiyasini hamda holatini aniq ko‘rsatadi. ”*Endi gap shu, bilmasang bilib ol: men: og‘riman*” degan ifoda orqali so‘zlovchi o‘zining obro‘sini, hokimiyatini ko‘rsatmoqda. (Favqulotda vaziyatlardagi ogohlantirishlar ham shu strategiyaga asoslanadi).

3. *Maksimal samaradorlik* – bunda murojaat qilish jarayonida hech qanday ortiqcha so‘zlar yoki mulohazalar ishlatilmaydi. Faqat kerakli ma’lumotlar aniq va ravshan tarzda yetkaziladi. Gaplar qisqa, lo‘nda bo‘ladi. Maqsad – vazifani eng qisqa vaqt ichida, ortiqcha murakkabliklarsiz hal qilish bo‘lganligi uchun illokutiv kuchni ko‘rsatuvchi vosita (Illocutionary force indicating device – IFID⁵²) – gapning nima maqsadda aytilganligini ko‘rsatadigan so‘z yoki ibora – aniq ko‘zga tashlanib turadi. Quyidagi misolda “*gapiring*”, “*yashirmang*”, “*ayting*”, “*qaramang*” kabi imperativlar nutqning illokutsion kuchini ifodalab kelgan:

Rahmatulloh unga qattiq tikilib turardi.

– *Nimaga menga bunday qaraysiz? – dedi Komissar titroq ovozda. – Gapiring, maqsadingizni yashirmang, ayting!*

Rahmatulloh undan nigohini olib qochmadi. Komissar bundan battar talvasaga tushdi.

– *Qaramang menga, – dedi bu safar yalinish ohangida.* (“Ov qissasi”, 6-bet)

Muloqot jarayonida tilga xos bo‘lgan noverbal vositalardan to‘g‘ri foydalanish muloqot madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Noverbal so‘zlar muloqot kuzatish kuchi bilan yaqindan bog‘lanadi⁵³. Yuqoridagi kontekstda ham Rahmatullohning “*qattiq tikilib turishi*” noverbal xatti-harakat bo‘lib, kuch va nazoratni ifodalagan hamda kerakli, aniq javob talab qilishga undagan, natijada bevosita strategiyadan foydalanish uchun sabab bo‘lgan. Berilgan kontekstning sotsiopragmatik tahlinini quyidagi 2.1.2-jadvalda to‘liqroq tahlil qildik:

⁵² Lich, G. N. The Pragmatics of Politeness. New York: Oxford University Press, 2014. – Pp. 147.

⁵³ Shokirova H. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi, Farg‘ona; Classic, 2023. – B. 66.

2.1.2-jadval.

Maksimal samaradorlik usulining sotsiopragmatik tadqiqi

Bevosita strategiya	<i>Gapiring, maqsadingizni yashirmang, ayting!</i>	
Maqsad	<i>Maksimal samaradorlik (tez, aniq javob talab etish)</i>	
Implikatsiya	<i>Yashirin gap borligi</i>	
Muloqot	<i>Assimetrik</i>	
Ijtimoiy masofa darajasi	<i>Tanish (Rahmatulloh va komissar)</i>	
Ijtimoiy rollar		
Rahmatulloh	Rol	<i>Kuchli va o'ziga ishongan, uning qattiq tikilib turishi, nigohini olib qochmasligi orqali obro'si balandroq shaxs ekaligidan dalolat beradi.</i>
	Pozitsiya	<i>Komissarning qo'rquvini kuchaytirib, muloqotdagi ustunligini saqlagan</i>
Komissar	Rol	<i>Zaif va talvasada ekanligi, titroq ovozda gapirishi, qo'rquvi va yalinish ohangida iltimos qilishi, uni pastki va himoyasiz rolda ko'rsatgan</i>
	Pozitsiya	<i>Javob olish va o'zini himoya qilishga uringan, lekin bu harakatlar uning zaifligini yanada oshirgan.</i>

4. *Shoshilinchlikni ta'kidlash:* So‘zlovchilar tinglovchining e’tiborini jalgilishni xohlaydigan holatda, bundan tashqari u so‘zlovchi tomonidan ma’lum bir vaziyatda zarur bo‘lgan muhim yoki shoshilinchlikni ta’kidlash uchun qo‘llanadi. Ba’zi iboralar tinglovchining diqqatini jalgilish uchun shoshilinchlik darajasini ko‘rsatadi⁵⁴. Bunday hollarda ta’kidlash uchun direktiv nutqiy harakatlarning qat’iyligi “talab ijrosi uchun ajratilgan vaqtini chegaralash yo‘li bilan belgilanishi mumkin⁵⁵ va bunda intonatsiya kuchliroq bo‘ladi:

Begonaning huzurida “opa” deyishga majbur bo‘lganini Matluba tushundi.

– *Voy, tinchlikmi? – dedi u bir qadam ortga chekinib.*

– *Tinchlik, – dedi Sarvar ichkariga qadam bosib. – Bolalarining kiyintir.*

Faqat hovliqma, lekin tez bo‘l. (Murdalar gapirmaydilar, 124-b.)

II. Ijtimoiy yuzga tahdid minimallashtirilgan bevosita strategiya

Bevosita strategiya uslubi suhbatdoshlarning o‘rtasida yaxshi munosabatlar shakllanganida, yuqori darajada ishonch, o‘zaro tushunish mavjud bo‘lganda yoki so‘zlovchi suhbatdoshning his-tuyg‘ularini e’tiborga olish zarur deb

⁵⁴Ais Lu’luatus Shofa, Bald on record strategies used by the characters in secret society of second born royals movie.– Surabaya, 2022. – B. 23.

⁵⁵Шахриёр С. Прагмалингвистика, Тошкент. – 2008. – Б.171.

hisoblamaydigan vaziyatlarda qo'llaniladi. Bunda xushmuomalalik darajasini yumshatish yoki muloqotni silliq kechishiga ko'proq e'tibor bermaydi. Ushbu uslubning asosiy maqsadi vazifani tez va samarali bajarish yoki ma'lumotni juda aniq va qat'iy tarzda yetkazishdir. Agar suhbatdoshlar orasida ijtimoiy masofa yaqin bo'lmasa, strategiyaning boshqa shakllaridan foydalanish afzalroqdir.

Bevosita strategiyaning bu turi N.Ruziyeva tadqiqotlarida so'zlovchi feysiga tahdidning implisit ifodalanish holatlari⁵⁶ (Case of FTA- oriented bald – on – record usage⁵⁷), M.Xolova monografiyasida esa "tuzatish harakati bilan"⁵⁸ (With redress⁵⁹) nomlari bilan keltirilgan bo'lib, bu usulda so'zlovchi ijtimoiy yuzga tahdid (FTA)ni kamaytirish uchun yumshatuvchi lingvistik vositalardan foydalanadi. Bunga quyidagilar kiradi:

2.1.3-jadval.

Bevosita strategiyada yuzga tahdidni minimallashtiruvchi lingvistik vositalar

Iltimos ma'nosini ifodalovchi	Salomlashish va xayrlashishni ifodalovchi	Taklif va minnatdorlik ifodalovchi
<ul style="list-style-type: none"> • <i>Iltimos...</i> • <i>Kechirasiz...</i> 	<ul style="list-style-type: none"> • <i>Assalomu alaykum / va alaykum assalom</i> • <i>Salom</i> • <i>Assalom</i> • <i>Hello / privet</i> • <i>Xayr / ko'rishguncha</i> 	<ul style="list-style-type: none"> • <i>Sizga yo bera olamanmi?</i> • <i>Yordamingiz uchun rahmat!</i> • <i>Uyga kiring / ovqatdan oling / choydan iching...</i> • <i>Sizdan xursandman / minnatdorman!</i>

Bevosita strategiyada "Iltimos", "kechirasiz" modal so'zlaridan foydalanish so'zlovchining tinglovchiga hurmat ko'rsatganligini ifodalab, kommunikatorlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqani mustahkamlaydi, tinglovchining ijtimoiy yuzini (sotsial mavqeyini) saqlashga yordam beradi va talabning bajarilishi ehtimolini oshiradi:

Ayol shunay deb Zokirdan ko'zlarini olib qochib, yolg'on gapirayotganini sezdirib qo'ydi.

– Iltimos, yashirmay ayting, men haqiqatni bilgani atayin keldim. Ayam qattiq betoblar. Nima bolganini aniq bilishim shart. ("Voy onajonim...". 21-b.)

⁵⁶Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyanining shartlanishi: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)...avtoref. – Buxoro, 2024. – B.15.

⁵⁷ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 98.

⁵⁸ Xolova B. Ko'rsatilgan manba. – B. 15.

⁵⁹ Lich G. N. The Pragmatics of Politeness. New York: Oxford University Press, 2014. – Pp. 33.

O‘zbek va fors tilida nutqiy etiket birliklari (salomlashish, taklif, xayrlashish)ni kabi nutqiy aktlarning qaysi strategiyalar orqali namoyon bo‘lishini tadqiq etgan H.Turdiyeva o‘zbek nutqiy etiketida “*O‘ting*”, “*Siz kiring*” kabi buyruq shaklida ifodalangan birliklar bevosita strategiya (direktiv)ga mos kelishini aytgan⁶⁰.

Tohir Malik asarlarida ham bunday birliklar muloqotning boshlanish va tugallanish nuqtasida qo‘llanilib, suhbatdoshning ijtimoiy yuziga tahdidni kamaytirishni maqsad qilingan:

Asadbek eshik yoniga ilingan, shapaloqdek keladigan xorij telefonini olib, chiroyli tugmachalarni bosib raqam terdi.

– *Allo, kim bu? – degan erinchoq ayol ovozi keldi.*

– *To ‘xtasin kerak, – dedi Asadbek jerkib.*

– *Uxlayaptilar. – Uyg‘ot, g‘aflatni, Asadbek akam so ‘rayaptilar, de.*

– *Voy, assalomu alaykum, hozir... Ana, turib kelyaptilar...*

Yarim daqiqa o‘tmay xirildoq ovoz eshitildi:

– *Assomaykum, Bek aka, tinchmisiz, omonmisiz, yangam...* (“Shaytanat” –1.

73-b.)

Bevosita strategiya foydalanuvchining ijtimoiy yuzni yo‘qotish xavfini minimal darajada ushlab turadi. Lekin noto‘g‘ri vaziyatda qo‘llanganda bu strategiya noqulaylik yoki mojaro keltirib chiqarishi mumkin, ya’ni sintaktik birliklarning pragmatik maqsad talabi bilan og‘ishi esa til tashuvchilarining muayyan nutqiy vaziyatdagi sotsiopsixopragmatik holatiga ko‘ra yuz beradi⁶¹ va kutilmaganda ijtimoy me’yorlar buziladi, kommunikatorlarning yuziga tahdid soladi:

– *Hoy, qayinnijon, nima deyapsiz? Biz nima qibmiz?*

“*Qaynijon*” degan so‘zi hurmat emas, kesatiq ohangida aytilgani uchun o‘t ustiga moy sepilgandek bo‘ldi.

– *Nima qibmiz?! – dedi Zokir ovozini ko‘tarib.*

⁶⁰ Турдиева Х. Нутқий етиқет бирликларининг лингвопрагматик тадқики: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.122.

⁶¹ Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni. Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 33.

- *Nima qibmiz-a!! Sen ...*
- “Sen” lama, men senga kennayi bo ‘laman!
- *He, sendaqqa kennoyini...*
- Zokir! Tilingni tiy!
- *Nima deysiz, aka! Onangizni bir manjalaqi xo ‘rlasa ham otasi tufayli uyli bo ‘ldim, mashinali bo ‘ldim, deb indamay o ‘tiraverasizmi?*
- O ‘ylab gapir! Hech kim onamni xo ‘rlamadi. Xo ‘rlatgani yo ‘l qo ‘ymayman ham!
- *Xo ‘rlatgani qo ‘ymasmish... Unda bu jodugarning haqorat qilganini nima deysiz? Nega ayam mening kelishimni kutib qo ‘shnikida yotib yurdilar? Xo ‘sh?! Xo ‘rlatmasmish-a? (“Voy onajonim... ” 27-b.)*

Ushbu kontekstda “*Senlama,*” “*Zokir! Tilingni tiy!*”, “*O ‘ylab gapir!*” jumlarini (bevosita strategiya)da personajlar o‘rtasida nizo paydo bo‘lganligi uchun buyruq maylidagi fe’llar aynan kuchli ohang bilan tallaffuz qilingan, bu esa so‘zlovchi psixologik holatining o‘zgarganligidan dalolat bergen, bu esa g‘azab, norozilik, ogohlantirish aktlari orqali namoyon bo‘lgan. Pragmatik jihatdan bunday nutqiy aktlarni *pragmatik omonimiya hodisasi* sifatida ham tasnif qilish mumkin. “Pragmatik jihatdan omonim bo‘lgan bir necha nutqiy aktlar bir vaqtning o‘zida birinchi darajali ma’no imkoniyatiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi”. Bunda yuqoridagi g‘azab, norozilik, ogohlantirish ma’nolari bir qatorda anglanishi mumkin. Demak, direktiv gapning tinglovchiga yetkazmoqchi bo‘lgan axborotining mohiyatiga ko‘ra jumlaning semantik mazmuni o‘zgarib boradi.

Badiiy uslubda qo‘llaniladigan so‘zlashuv uslubiga xos usullardan yana biri *takror* so‘zni qayta qo‘llash bo‘lib, sintaktik figura sifatida badiiy matndagi his-hayajon ifodasini kuchaytirishga, qahramonlar ruhiyatini emotSIONAL holatlarini ta’sirchan aks ettirishda ahamiyatli sanaladi⁶². Yuqorida berilgan kontekst tarkibida ham “– *Xo ‘rlatgani qo ‘ymasmish... Unda bu jodugarning haqorat qilganini nima deysiz? Nega ayam mening kelishimni kutib qo ‘shnikida yotib yurdilar? Xo ‘sh?!*

⁶² Қазоқова Н. Фофур Ғулом насрий асарларининг pragmalingvistik тадқики: Филол. фан. бўйича фалсафа док...дисс. Наманганд, – Б. 78.

Xo ‘rlatmasmish-a?’” jumlasini uchratamiz. Kontekstda ikkinchi shaxsga qaratilgan fe’l-kesimdan iborat to‘liqsiz gaplar, ko‘pincha, takror holda qo‘llanib, ifodadagi emotSIONallikni kuchaytirishga xizmat qiladi⁶³. Bunda so‘zlovchining aytilgan gapni yana bir bor ta’kidlash, eslatish, kinoya maqsadida aynan “xo‘rlatmoq” so‘ziga urg‘u berilgan va fe’l tarkibidagi – *gan mish* (-gan +emish) morfemalari xabar qilinayotgan voqeani bilvosita, shubhali tarzda ifodalashga, “-a” yuklamasi esa hayratni ko‘rsatishga xizmat qilgan. Bundan tashqari adresant tomonidan ushbu so‘zning takrorlanishi oldingi kommunikativ vaziyatlar yoki hodisalarini referent sifatida aktualizatsiya qiladi, ya’ni ilgari ma’lum bo‘lgan holatga aniq ishora qilib, muloqot jarayonini pragmatik nazorat ostiga oladi, uning rivojlanishini boshqaradi va muloqot yo‘nalishini belgilaydi.

Demak, nutqda jumlanı qayta takrorlash muloqotda o‘zaro ta’sirchanlik darajasini oshiradi, kommunikatorlar o‘rtasida chuqurroq ma’no anglashini ta’minlaydi.

Erining “siz indamay o‘tiring” degan ma’nodagi imlashiga qaramay, Latifa yana gapga aralashdi:

– Voy, voy, voy! Hay, onangni kim ishlatibdi? Xuddi malikalarday kun kechirdi biznikida. Xizmatini mana men qildim. Qishlog‘ini sog‘insa ham biz aybdormi?(1)

– Malikalardaymi? Xizmatini sen gildingmi? Sen-a?(2)

– Hay, muncha do‘rillaysan? Nazir aka, ayting buningizga, tilini tiysin, izzatini bilsin. Mehmonga kelganmi buningiz o‘zi?(3)

– Yo‘q, mehmongamas! Ayamni haqoratlagan iflos tillaringni sug‘urib olgani kelganman!(4)

Zokir kutilmaganda Latifani tarsakilab urib qoldi. To Nazir o‘rnidan turib o‘rtaga tushguncha Latifa yuz - ko ‘zi aralash yana ikki marta tarsaki yedi.

(“Voy onajonim”..., 28-b.)

⁶³ Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rnii. Toshkent: Bookmany print, 2023. – B.50

Berilgan kontekstda qo‘llangan bevosita strategiyaning ijtimoiy yuzga ta’sirini 2.1.4- jadvalda batafsil izohladik:

2.1.4-jadval.

Bevosita strategiyaning ijtimoiy yuzga ta’siri.

№	Bevosita strategiyalar	Yuz	
		Ijobiy yuz tahlili	Salbiy yuz tahlili
1	– Voy, voy, voy! Hay, onangni kim ishlatibdi? Xuddi malikalarday kun kechirdi biznikida. Xizmatini mana men qildim. Qishlog‘ini sog‘insa ham biz aybdormi?	Latifa o‘zini ijobiy rolda ko‘rsatishga, ijtimoiy qadrni oshirishga, qardlanishga harakat qilgan.	Latifa bu yerda o‘zining salbiy yuzini himoya qilib, mustaqilligini, erkinligini ko‘rsatdi va bu orqali boshqalar tomonidan qadrsizlanishini rad etgan..
2	– Malikalardaymi? Xizmatini sen qildingmi? Sen-a?	Bu so‘zlar Latifaning ijobiy yuziga tahdid solgan, uni kamsitgan.	Latifaning harakatlarini shubha ostiga olib, uning mustaqilligini cheklash orqali salbiy yuziga tahdid solgan.
3	Hay, muncha do‘rillaysan? Nazir aka, aytin buningizga, tilini tiysin, izzatini bilsin. Mehmonga kelganmi buningiz o‘zi?	Latifa turmush o‘rtog‘idan yordam so‘rash orqali ijtimoiy tartibni saqlashga, o‘z qadrini ko‘rsatishga harakat qilgan.	Bevosita strategiyaning qo‘llanishi Nazirning ukasining salbiy yuziga tahdid solib, uning erkini, sotsial mavqeyini pasaytirishga xizmat qilgan
4	Yo‘q, mehmongamas! Ayamni haqoratlagan iflos tillaringni sug‘urib olgani kelganman!	Bu jumla orqali Latifani haqoratlash va unga tahdid solish orqali so‘zlovchining kuchini, nazorat qilishga harakatini ko‘rsatgan.	“Mehmon” Latifaga ochiq tahdid qilib, uning ijtimoiy chegaralarni buzib, salbiy yuziga zarar yetkazgan.

Demak, bevosita strategiya har doim yaqin munosabatlarda qo‘llanibgina qolmay, suhbatdoshlar orasida nizo, kelishmovchilik yuz berganda ham namoyon bo‘lishi kuzatdik, bunda nafrat, g‘azablanish aktini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Turli madaniyatlarda bevosita strategiyaning qabul qilinishini tahlil qilish muhimdir. Ba’zi madaniyatlarda bevosita muloqot afzal ko‘riladi, boshqalarda esa bilvosita muloqot qadrlanadi. Amerika, G‘arbiy Yevropa kabi madaniyatlarda bevosita strategiya odatiy va maqbul hisoblanasa, Osiyo, Lotin Amerikasi kabi madaniyatlarda esa bevosita strategiya qo‘pol yoki noqulay deb qabul qilinadi. Sharqda ayollarning nutqi hurmat-ehtiromga asoslanadi, bu esa oila ichidagi muvozanatni saqlash, ijtimoiy me’yorlarga mos kelishi zarurdir. Shuningdek, ayollar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishda ehtiyotkor va mulohazali bo‘lib, oilaviy muhitni tinch va hamjihatlikda saqlashga intilishadi. G‘arb nutqiy madaniyatida eru xotinning bir-birlariga sensirab murojaat qilishlari⁶⁴, ayolning turmush o‘rtog‘iga

⁶⁴ S. Saydullaeva, O‘zbek va ingliz tillarida sen / siz murojaat shakllari va lingvomadaniy xususiyatlari // Academic research in educational science . – www.ares.uz, 2022. №. 3. – B.304-310.

nisbatan bevosita strategiyadan foydalanib suhbat qurishi tabiiy hol. O‘zbeklar nutqiy etiketida er-xotin munosabati ham muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘zbek ayollari, tabiiyki, o‘z turmush o‘rtoqlarini “sizlab” chaqiradilar va bu diniy qarashlarga ham bog‘liqdir⁶⁵. Sharq madaniyatida esa, xususan, o‘zbeklarda ayol kishining turmush o‘rtog‘iga nisbatan “sen”lab gapirishi, bevosita nutq aktlaridan foydalanishi ijtimoy-axloqiy normalarga xos emas. Ammo muloqotning bunday ko‘rinishlari uchrab turadi:

– *Qanaqa erkaksan o‘zing?! G‘irt ahmoq odam ham shuncha molni o‘sha yerga tashlab kelevermaydi. Milisaning gaplarini eshitdingmi? E, er bo‘lmay o‘libgina ketgin sen! Senga tekkanimdan beri birim ikki bo‘lmadi -ya! Endi seni bitimga boqamanmi? Bitta ukoling pul bilyapsanmi? Tuzaladigan bo‘lsang, tuzal, bo‘lmasa o‘zim bog‘ib o‘ldirib qo‘ya qolay. Boqishga arziydigan erkak bo‘lsang ekan, sen...*

“Noshukur bo‘lma, shuncha topib kelganim kammi senga? Uchta emas, o‘ttizta qiz uzatishga yetadigan mol yig‘ding-ku? Tilla taqinchoqlarni sotsang ikkita mashina beradi-ku?! Buncha noliyan, qorashaqshaq?!” Shunday demoqchi edi, til aylanmadni. (“Murda gapirmaydilar”)

Kontekstda qo‘llangan bevosita strategiyalar quyidagilar:

2.1.5-jadval.

Bevosita strategiyaning nutqiy aktlarda namoyon bo‘lishi

No	Bevosita strategiyalar	Nutqiy akt turi
1	Qanaqa erkaksan o‘zing?!	Tanqid
2	Milisaning gaplarini eshitdingmi?	So‘roq (norozilik)
3	E, er bo‘lmay o‘libgina ketgin sen!	Jahl, g‘azab
4	Endi seni bitimga boqamanmi?	Ishonchsizlik
5	Tuzaladigan bo‘lsang, tuzal, bo‘lmasa o‘zim bog‘ib o‘ldirib qo‘ya qolay	Tahdid

Demak, mazkur kontekstdagi bevosita strategiya so‘zlovchilar o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytirib, ijtimoiy kelishmovchilikni ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Tohir Malikning “Voy onajonim...” hikoyasida ikki o‘g‘lini yolg‘iz voyaga yetkazgan onaning qiyinchiliklari va bu hayotda farzandlarining rohatini ko‘ra

⁶⁵Kaxarov Q. Mustafayeva S. O‘zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari // FarDU ilmiy xabarlar, 2023. №3. – B. 527-530.


olmagani tasvirlangan bo‘lib, mazkur hikoyadagi personajlar nutqida qo‘llangan illokutiv aktlar orqali ifodalangan bevosita strategiyalar 2.1.6- jadvalda tadqiq etildi:

2.1.6-jadval.

Tohir Malikning “Voy onajonim...” hikoyasida qo‘llangan bevosita strategiyalarning nutqiy aktlarda voqelanishi

Nº	Bevosita strategiyalar (Kontekst)	Nutq akt turi	Sotsial omillar	Pragmatik natija
1	Zokirmi? Qutlibdimi? (3-b.)	Quvonch	aka-uka munosabat, yaqin ijtimoiy masofa	Ukasining qamoqdan chiqqaniga ishonqiramagani uchun yana bir bor ishonch hosil qilish
2	Chiqmang! Ukangiz, keragi yo‘q! (3-b.)	Buyruq	Oila a’zolari o‘rtasidagi muloqot, emotsiyal vaziyat	Erini tashqariga chiqarishga yo‘l qo‘ymaslik
3.	Unda men ketaman! Diydoriga to‘yib oling!(4-b.)	Ogohlantirish	Er-u xotin munosabati, kuchli emotsiyal vaziyat	Ukasini yoki xotinini tanlashi kerakligi
4	Men qayerdan bilaman? – dedi soqchiboshi achchiqlanib. (9-b.)	Achchiqlanish	Uzoq ijtimoiy masofa, soqchiboshi va qamalganlarning yaqinlari o‘rtasidagi muloqot	Hech nimani bilmasligini va bezovta qilmasliklari uchun qat’iy ta’kidlab qo‘yish
5	Yana o‘sha diydiyomi? (11-b)	E’tiroz	Uzoq ijtimoiy masofa, prokurator va kampir suhbati	Kampirning qayta-qayta shikoyat qilganligini, bu esa pokuorni charchatganligini ifodalash
7	– Yo‘q, bugun ham dalaga chiqqa qoling. (13-b.)	Iltimos	Yaqin ijtimoiy masofa, qaynona va kelin munosabati	Kelinini qamoqxona oldiga bormasligini va g‘ozza chopiq muhimroq ekanini eslatish
8	– Ayajon, Yovshanni opoq dadasi kepti...(14-b)	Xabar	O‘g‘il va ona suhbati	O‘zining ham otasi kelib qolishiga umid qilishi
9	– Aka, ayamga ro‘mol ola qolmaymizmi? (16-b.)	Taklif	Aka-uka munosabati	Onasini xursand qilish
10	– Latifa ... keliningiz.(19-b.)	Tanishuv	Ona va o‘g‘il suhbati, o‘g‘ilning shaharda uylanib, qishloqqa onasi bilan tanishtirishga olib kelgan	Xotini bilan tanishtirish, ozgina iymanib, havotir bilan onasidan kelinini qabul qilishi uchun umid
11	– Ey tabiat, Sen ham onasan-ku, Axir nima uchun bizning onalarimizga yig‘ini o‘rgatgansan? Nima uchun ularga ko‘z-yosh berding?..(23-b.)	Iltijo	Kichik o‘g‘ilning Allohga murojaati	O‘z qalbiga tasallli topish
12.	– Qizishmagin-u, hozirgi gaping uchun kennayingdan uzr so‘ra. (27-bet)	Maslahat	Aka-uka munosabati, ukasining kelinoyisi bilan urishgan holati	Ukasi bilan xotinini yarashtirib qo‘yish
13	Urgan qo‘llaringni qamoqda chiritmasam yurgan ekanman... (28-bet)	Tahdid	Kelinning qayinukasiga munosabati	Nafratini ochiq ifodalash, bu qilmishini jazosiz qolmasligini ta’kidlash
14	– Tur yo‘qol, turqing qursin! (37-b.)	Haqorat	Kelinning qayinukasiga munsabati	Kamsitish, uyiga kirmaslik uchun harakat qilish

Mazkur hikoyada interrogrativ – so‘roq (25%), direktiv – buyruq (20%), iltimos akti (19%), deklarativ – xabar (14%) aktlarini ifodalagan bevosita strategiyalar eng ko‘p qo‘llangan bo‘lib, qolgan nutq aktlarining qo‘llanish darajasi esa 2-7% oralig‘ini perlokutiv aktlar tashkil etdi. Demak, hikoyada qahramonlar nutqidagi kommunikiyat niyatni ifodalashda bevosita strategiya buyuq, e’tiroz, iltijo, so‘roq, xabar, maslahat, iltimos, taklif, tahdid, quvonch, tanituv, haqorat aktlari orqali ifodalanganligi, yaqin munosabatlarda qo‘llansa, ijtimoiy yuzga tahdid nolga tengligi va aksincha, rasmiy muloqotda (ijtimoiy masofa uzoq bo‘lgan muloqotda) mazkur strategiyaning qo‘llanishi kishilarda shok/ajablanish, tushunmovchilik, hijolatli holatni keltirib chiqarishiga sabab bo‘lganligini aniqladik. Hikoyada qo‘llangan bevosita strategiyaning nutqiy aktlarda ifodalanishining foiz ko‘rsatkichi quyidagicha:



2.1.1 – diagramma. Tohir Malikning “Voy onajonim...” hikoyasida bevosita strategiyaning voqelanishi

2.2-§. Badiiy kontekstda ijobiy xushmuomalalik strategiyalarining voqelanishi

Ijobiy xushmuomalalik (positive politeness) strategiyasi – insonlar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, samimiylikni oshirishga qaratilgan til va nutq usullari yig‘indisi. Ijobiy xushmuomalalikning asosiy maqsadi –

suhbatdoshlar qulay his qilinishi uchun yaqinlik⁶⁶ va do'stlikni oshirish bo'lib, bu strategiyalar nafaqat og'zaki, balki yozma nutqda ham katta ahamiyatga ega. Ular turli madaniyatlarda insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash uchun har xil qo'llanishi mumkin, ya'ni "xushmuomalalik tizimining ingreditlari doimiydir, faqat retsepti farq qiladi"⁶⁷.

Ijobiy xushmuomalalik substrategiyalari dastlab Penelopi Braun va Stiven Levinson tomonidan 1978–1987-yillardagi xushmuomalalik nazariyasi bo'yicha ishlarida taqdim etilgan va ishlab chiqilgan. Ular "Politeness: some universals in language usage" kitoblarida ijobiy xushmuomalalik tushunchasini kommunikatsiyada yuzni saqlash xatti-harakatlarini tushuntirish doirasida taklif qilishgan⁶⁸. Ular o'z nazariyalarini Erving Goffmanning yuz tushunchasiga asoslangan holda ishlab chiqqanlar, xushmuomalalikni ijobiy va salbiy strategiyalarga ajratib, ijobiy muloyimlik tinglovchining ijobiy yuzini kuchaytirish yoki saqlashga qaratilgan bo'lib, bu boshqalarning yaxshi ko'rish va ma'qullash istagini o'z ichiga oladi.

Jahon tilshunosligida ijobiy xushmuomalalik Sara Kasken, Eva Ogiyermann, Anet Senftleben, Janet Xolms, Regina Sayvald, Ulrike Kipman, Sebastian Tilke, Abdulaziz Buxara, Sara Mills va boshqa juda ko'plab tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib⁶⁹, ularda ijobiy xushmuomalalik turli madaniy, ijtimoiy va gender aspektlarini qamrab olgan holda o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida ijobiy xushmuomalalik strategiyalari sotsiopragmatik jihatdan mustaqil termin sifatida hali keng tadqiq etilmagan bo'lsa-da,

⁶⁶ Yule G. Pragmatics. – New York: Oxford University Press, 1996. – Pp. 60.

⁶⁷ Baresova I. Politeness strategies In cross-cultural perspective. – Czechia / Olomouc: Palacký University, – 2008. – Pp. 34.

⁶⁸ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – New York: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 101-129.

⁶⁹ Casken S. Positive and Negative Politeness Strategies and Their Influence on American and British English Discourse. – USA: University of Hawaii, 1980. – Pp.178. / Ogiermann E. On apologising in negative and positive politeness cultures. – USA: John Benjamins Publishing Company, - 2009. – Pp.296 / Senftleben A. The use of positive politeness strategies considering a specific speech act. - Germany: GRIN Verlag, 2005. – Pp.21. / Holmes J. Women, Men and Politeness. – USA: Taylor & Francis, 2013.- Pp. 264. / Seiwald R. The Importance of Face in "Politeness Theory". – Germany: GRIN Verlag, 2011. – Pp. 28. / Kipman U. The Politeness Phenomenon. – Germany: GRIN Verlag, 2010. – Pp. 28 / Thielke S. Social Media and Politeness (Positive-politeness in virtual interaction). Kipman U. The Politeness Phenomenon. – Germany: GRIN Verlag, 2010. – Pp. 32. / Bouchara A. Politeness in Shakespeare: Applying Braunand Levinson's Politeness Theory to Shakespeare's Comedies. – Germany: Bod Third Party Titles, 2009. – Pp. 129. / Mills S. Gender and Politeness. – New York: Cambridge University Press, 2003. – Pp. 278.

Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, M.Qurbanova, M.Bazarova tadqiqotlarida bu mavzu nutqiy etiket va nutqiy madaniyat kabi umumiy tilshunoslik terminlari asosida o'rganilgan⁷⁰.

Nutqiy etiket tizimi va ijtimoiy munosabatlar tarkibida til birliklari suhbatdoshlar o'rtasidagi kommunikativ jarayonlarni tartibga soluvchi asosiy qoidalar va konvensiyalarni aks ettiradi. Shu ma'noda ijobiy xushmuomalalik strategiyalari ushbu qoidalar hamda konvensiyalarning muloqot davomida namoyon bo'lishini ta'minlaydi hamda tinglovchining ijtimoiy mavqeyi, shaxsiy qadriyatlariga hurmat ko'rsatishni namoyon etishga yordam beradi. Nutq madaniyatiga oid pragmatik tadqiqotlarda mazkur strategiyalar bilvosita o'rganilgan bo'lib, ular orqali jamiyat me'yorlari va qadriyatlari asosida shakllangan diskursiv amaliyotlar tahlil qilingan.

N.Adanboyeva ingliz va o'zbek tillaridagi xushmuomalalik kategoriyasini ifodalovchi lisoniy vositalarni aksiolingvistik – chog'ishtirma aspektida o'rgangan bo'lib, nutqning ijobiy xushmuomalalikni ko'rsatuvchi belgilarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida ingliz hamda o'zbek tillaridagi tabrik nutqiy akti xususiyatlarini congratulate – tabrikamoq fe'llarining aksiolingvistik qo'llanishi misolida ko'rib chiqqan⁷¹.

N.Ro'ziyeva esa ingliz va o'zbek badiiy diskursida hurmat nutqining xushmuomalalik kategoriyasi doirasida voqelanishi, mazkur doira nutq ifodalanishi usullari, shakllanishi manbalari, leksik-grammatik mohiyat kasb etadigan lisoniy omili, pragmatik vaziyati kabi xushmuomalalik strategiyaning shartlanishini chog'ishtirma aspektida tahlil qilgan⁷².


2.2.1-chizmada Braun va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan bu nazariyada suhbatdoshlar qanday qilib o'zaro hurmat (ijtimoiy yuz) va iliq

⁷⁰ Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Самарқанд, 1993. – 140 б.; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари дри...дисс. – Тошкент, 2000. – 235 б. ; Курбонова М. А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқики. Toshkent, дис. ... филология фанлари номзоди – 2009. 154 б.; Базарова М Ўзбек тилидаги ижобий истак мазмунини ifodalovchi нутқи бирликларнинг лисоний хусусиятлари (дуолар ва нутқи этикетлар асосида) дис. ... филология фан. номзоди, 129. Tosh.2007.

⁷¹ Adanboyeva N. Ingliz va o'zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili; Filol. fan. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Farg'on, 2024. – B.16.

⁷² Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyalarining shartlanishi: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)...avtoref. – Buxoro, 2024. – B.13.

munosabatlarni saqlab qolish uchun turli strategiyalardan foydalanishni nazarda tutadi:



2.2.1-chizma. Ijobiy xushmuomalalik substrategiyalari

Ijobiy xushmuomalalikning muhim xususiyati odamlar bilan ma'lum darajada tanish bo'lishdir. Uni yaqinlik kodi yoki tili deb hisoblash mumkin⁷³. Ijobiy xushmuomalalik strategiyalarini qo'llash jamiyatning barcha soha mutaxassislarining nutqiga xos bo'lib, har bir sohaga tegishli nutq tahlil qilinishi mumkin.

Ijobiy xushmuomalalik substrategiyalari sotsiopragmatik jihatdan muhim bo'lib, bu strategiyalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy rollar va odob-ahloq normalariga rioya etishni ta'minlaydi. Sotsiopragmatik yondashuvda bu substrategiyalar suhbat jarayonida amalga oshiriladigan harakatlar orqali suhbatdoshning ijtimoiy mavqeyini va o'zaro hurmatni oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning o'zaro munosabatlarda muhim o'rinni egallaydi.

O'zbek tilida ijobiy xushmuomalalik strategiyalari suhbat jarayonida samimiyligi oshirish, hurmat ko'rsatish hamda suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlashni maqsad qiladi. Bu substrategiyalar suhbatdoshning "yuzini saqlab qolish" orqali unga ehtirom ko'rsatish va nutqiy mulohazalarda muhim omil hisoblanadi. O'zbek madaniyatida samimiylilik va mehribonlik xushmuomalalikning asosiy belgisi sifatida qabul qilinib, bu jihatlar suhbatda keng qo'llaniladi. O'zbek tilida ijobiy xushmuomalalikning amalga oshirilishi madaniy qadriyatlar, odob va an'analar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, suhbatda insoniy qadriyatlarni hurmat qilish va boshqalarga nisbatan qadrlash odat tusiga kirgan. Bu substrategiyalar madaniy konvensiyalar asosida shakllanib, suhbat jarayonida ularning ahamiyati sezilarli darajada namoyon bo'ladi.

Tohir Malik asarlaridagi personajlar nutqida ijobiy xushmuomalalik substrategiyalari keng qo'llangan bo'lib, bu orqali muloqotda madaniy qadriyatlar, ijtimoiy mavqeyi va o'zaro munosabatlarda hurmatni oshirishga erishiladi. Ushbu strategiyalar, suhbatdoshning "yuzini saqlab qolish", shaxsiy hurmatni namoyish etish va ijtimoiy uyg'unlikni saqlash maqsadida qo'llanilib, muloqot jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

⁷³ Xolova B. Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot, 2023. – B. 15.

Asar qahramonlarining kundalik hayoti va o‘zaro muloqoti orqali ushbu jihatlarni ko‘rib chiqish, tilshunoslikda muhim ilmiy yondashuvlarga asos bo‘la oladi.

Ijobiy xuhmuomalalik strategiyalari norasmiy muloqotda keng qo‘llanadi, chunki bu turdagи muloqotda so‘zlashuvchilar o‘zaro samimiy va yaqin bo‘lib, birlarini tushunishga, qo‘llab-quvvatlashga intilishadi. Bunday nutqda kommunikatorlarning yoshi, jinsi, sotsial mavqeyi simmetrik (mutanosib) bo‘lib, komunikatsiyaga kirishuvchi shaxslar simmetriya qonuniga ko‘ra tenglik asosidagi “samimiylilik” munosabatida bo‘ladilar. Bu holatga ko‘ra, ularning nutqida “teng huquqlilik”, “samimiylilik” ottenkasi o‘z ifodasini topadi⁷⁴. Simmetrik muloqotda “guruhgа talluqli markerlarni qo‘llash” (in-group marking) 4 - substrategiyasi eng faol qo‘llanadi, ya’ni bunday muloqotda guruhgа a’zolik yoki ularning bir qismi ekanligini ifodalovchi lingvistik birliklar (*laqab, unvon, dialekt, slang, argo, jargonlar, murojaat birliklariga qo‘shilib keluvchi subyektiv baho formalari, I shaxs ko‘plik olmoshi...*) o‘zaro yaqinlik, birdamlik tuyg‘usini mustahkamlash uchun hamda suhbat samaradorligini oshirish maqsadida o‘zaro guruh ichida keng foydalilaniladi:

Shuhratni tanimagan Suhrobga militsiyaning bu tashrifi yoqinqiramadi:

- Bratan, sizga nima kerak? – deb so‘radi peshonasini tirishtirib.
- Menga Olg‘irtoy kerak.

Maktabdagi laqabini eshitgan Suhrob Shuhratga tikilib qarab qoldi-da, istamaygina jilmaygan bo‘ldi:

- Shurik, senmisan?

Uzoq vaqt uchrashmagani tufayli bir-birini sog‘ingan ikki qadrdon do‘st bunday holda quchoqlashib ko‘rishadi. To‘rt-besh yil ko‘rismagan bo‘lsa-da, sog‘inmagan, bir-birini eslamay yana qirq-ellik yil yashay oladigan ikki yigitning qo‘l olib so‘rashishi ham katta gap.

⁷⁴ Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талкини: Филол.фанлари доктори ... дисс. –Тошкент, 2001. – Б. 78.

– *Obbo Shurig-e, tanimabman-a, pogonlar zo ‘r-ku? Milisa akademiyasiga kirganiningni eshituvdim. Keyin “haydalib ketdi”, deyishuvdi. Batkang zo ‘rda, a? O‘qishni bitirguningcha batkangni cho ‘ntagini quritgandirsan? Shu ikkita yulduzcha qanchaga tushdi endi?* (“Eng kichik jinoyat”, 60-b.)

Ushbu kontekstda bir-birini tanimay turgan Suhrob va sinfdoshi Shuhrat o‘rtasidagi muloqot tasvirlangan. Dastlab Suhrob militsiya – Shuhratni xushlamaganligi haqida illokativ niyati noverbal vosita – “*peshonasi tirishishi*” orqali ifodalangan, ammo so‘roq aktining “bratan” deya boshlashi suhbatni ozgina yumshatgan. “*Bratan*” so‘zi asosan do‘stlar orasida samimiylilik va yaqinlikni ifodalash uchun aka, uka so‘zlarining o‘rnida qo‘llanadi. Bu so‘z rus tilidan olingan bo‘lib, eski sharqiy slavyan tilidagi “*брáтанъ*” (*brátanú*) so‘zidan kelib chiqqan⁷⁵, sobiq sovet mamlakatlarda keng foydalaniladi. Adresat so‘zlovchining kommunikativ niyatini oldindan tahmin qilib, suhbatni ijobiy tomonga yo‘naltirish maqsadida Suhrobga yoshlikdagi laqabi bilan murojaat qilish orqali erishdi:

2.2.1-jadval.

Olg‘irtoy laqabi qo‘llangan propozitsiyaning nutqiy akt bosqichida voqelanishi

Lokutsion akt	Ilokutsion akt	Perlokutsion akt
Shuhratning “Olg‘irtoy” so‘zini aytishi	Shuhratning o‘zini tanitish va yaqinlikni ko‘rsatish niyati	Suhrobning Shuhratni tanishi va ijobiy xushmuomalalik bilan javob berishi


Bu yerda “Olg‘irtoy” laqabi referensial ifoda bo‘lib, aniq bir referentga (Suhrobga) ishora qilgan, natijida konversatsion implikatsiya vujudga kelgan, ya’ni Suhrob bu so‘z orqali Shuhratning kimligini anglagan, natijada unga taniganligini ko‘rsatish uchun “Shurik” deya yoshlikdagi laqabi bilan murojaat qilgan. Kontekstda qo‘llangan “Olg‘irtoy, “Shurik” laqablari sotsiopragmatik identifikatsiya vazifasini bajargan.

Do‘stona tarzda davom etgan bu muloqotda ijobiy xushmuomalalikning yana bir *hazil (joke) substrategiyasi* (8) qo‘llangan:

⁷⁵ <https://en.wiktionary.org/wiki/>

– *Obbo Shurig-e, tanimabman-a, pogonlar zo ‘r-ku? Milisa akademiyasiga kirganiningni eshituvdim. Keyin “haydalib ketdi”, deyishuvdi. Batkang zo ‘rda, a? O‘qishni bitirguningcha batkangni cho ‘ntagini quritgandirsan? Shu ikkita yulduzcha qanchaga tushdi endi?* Hazil ohangida ijobiy munosabat, ayniqsa, birinchi gapda qo‘llangan va -e, - a, -ku yuklamalarining har bir aktda qo‘llanganligi ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan:

2.2.2-chizma.



Hazil bilan aytilgan har bir ifoda suhbatni jonlantirib, hurmat va yaqinlikni oshiribgina qolmay, propozitsiyada aks etmagan yashirin axborot-presuppozitsiya orqali Shuhratning Ichki ishlar tizimida leytenant lavozimida ishlashi, otasi (batka) puldor, jamiyatning obro‘li kishilaridan ekanligi oydinlashadi.

Ijobiy xushmuomalalik strategiyada adresant o‘z kommunikativ niyatini amalga oshirish uchun nutqiy ta’sir etish usuli orqali tinglovchining ichki ruhiyati yoki pozitsiyasini aniqlab oladi. So‘zlovchi o‘z nutqini bayon etar ekan, dastlab o‘z ichki niyatini oshkora ifodalamaydi. Bunga ko‘ra so‘zlovchi kommunikativ maqsadini bayon qilish uchun qulay bo‘lgan ma’lum nutqiy vaziyat yuzaga kelishini kutadi, shu ma’noda illokutiv aktni vaziyat yetilishi bilan propozitsional mazmunning ostiga yashiradi va ifoda etadi⁷⁶:

... *Shu bois ham “Siz marhumlarni yaxshi bilarmidингиз” – deb so‘ramay, gapni aylantirdi.*

– Kooperativda ishlar qalay, gullab-yashnayaptimi (1-substrategiya) – deb so‘rab, boshliqqa tikildi.

– Ha, endi, qimirlab turibmiz. Hukumatga rahmat, hamma sharoitlar bor.
(6-substrategiya)

⁷⁶ Ҳакимов М., Фазиева М. Ўзбек прагмалингвистика асослари. – Тошкент: Академнашр, 2020. – Б.162.

– Gapingiz to‘g‘ri. Sharoit zo‘r. Xohlagan qing‘irliliklarga shart-sharoit mixday yaratilgan, buni biz bilamiz. (5-substrategiya)

Tergovchi “biz” degan so‘zni alohida urg‘u bilan talaffuz etdi. Bu alohida ohang boshliqning miyasiga to‘qmoqdek urilib, bir seskandi. Lekin o‘zini go‘llikka solib, xixilab kuldi:

– Ie, hali shunaqalar ham bormi? Qing‘irlikdan Xudo asrasin. Hukumat shuncha sharoit yaratib bergeniga shukr qilib to‘g‘ri ishlaganga nima yetsin! (11-substrategiyasi)

– Gaplaringiz zo‘r... ammo sizda ham ozgina bor ekan, deb eshitdik (6-substrategiyasi)

(“Murdalar gapirmaydilar”, 77-b.)

Ushbu kontekst tergovchi va guvoh Omonullo o‘rtasidagi nutqiy muloqot jarayonidan olingan bo‘lib, dialogdagi propozitsiya ijobiy xushmuomalalik strategiyasi asosida shakllangan:

1. ”Kooperativda ishlar qalay, gullab yashnayaptimi”? – tergovchi Omonulloning kooperativdagi faoliyatiga qiziqish bildirib (1-substrategiya), uni suhbatga jalg qilmoqda. Garchi tergovchi ijtimoiy mavqe, kuch nuqtayi nazaridan ustun bo‘lsa-da, tergovni xushmuomalalik bilan boshlagan. Bu orqali u suhbatdoshi bilan yaqin munosabat o‘rnatib, ishonchni oshirishga harakat qilgan hamda o‘zini qulay his qilishini ta’minalash orqali zaruriy ma’lumotlarni olishga umid qilgan. “Ha, endi, qimirlab turibmiz. Hukumatga rahmat, hamma sharoitlar bor”. Omonulla hukumatning sharoitlarini maqtab, tergovchi bergen savolni tasdiqlab (5-substrategiya), suhbatni ijobiy yo‘naltirishga erishmoqchi. “Gapingiz to‘g‘ri. Sharoit zo‘r. Xohlagan qing‘irliliklarga sharoit mixday yaratib qo‘yilgan. Buni biz bilamiz”. Tergovchi Omonulloning fikri bilan kelishib, ma’qullagandek harakat qilgan (5-substrategiya), ammo “Xohlagan qing‘irliliklarga sharoit mixday yaratib qo‘yilgan” jumlesi bilan suhbatning asl modusi anglashila boshlaydi, ya’ni implikatsiya (yashirin ma’no) orqali Omonulloning koorporativda jinoiy ishlarni amalga oshirganligiga ishora qiladi. Aylov majhul nisbat orqali shakllangan akt

orqali ifodalanganligi suhbatni yumshatgan bo‘lsa-da, “biz” degan so‘zni esa alohida urg‘u bilan talaffuz etib, politsiya organlarining uning jinoiy ishlaridan yaxshi xabardor ekanligini ishora qilib, unga bosim o‘tkazadi. Bu esa uni yanada ochiqroq gapirishga va tergovchining savollariga to‘g‘ri javob berishga undaydi.

Ba’zan reprezentativ aktdagi xabar mazmunining haqiqiy emasligi unda ifodalanayotgan axborot mazmuni bilan obyektiv olamda sodir etilgan voqelikning o‘zaro muvofiq emasligi⁷⁷ sezilib tursa-da, adresant buni yashirishga harakat qiladi:

“Ie, hali shunaqalar ham bormi? Qing‘irlid dan Xudo asrasin. Hukumat shuncha sharoit yaratib bergeniga shukur qilib to‘g‘ri ishlashga nima yetsin. Omonulla nutqida “shukur qilib...”, “to‘g‘ri ishlashga nima yetsin” kabi optimistik birliklarni qo‘llab (11-substrategiya), ritorik so‘roq akti orqali o‘zining halol ishlashiga, “Xudo asrasin” idiomat birligini qo‘llashi esa qing‘ir ish qilishdan “qo‘rqishiga” ishora qilgan va hukumatning yaxshi sharoit yaratganini ta’kidlash orqali tergovchining o‘yini chalg‘itib, suhbatni o‘z foydasiga hal qilishga harakat qilgan.

“Gaplaringiz zo‘r... ammo sizda ham ozgina bor ekan” nutqiy aktida Tergovchi Omonulloning gaplarini maqtash orqali uning fikrlarini inobatga, olgandek bo‘lib (6-substrategiya), fikrlariga hamohang ekanligini ko‘rsatgan (1-jumla). Gapning ikkinchi qismida esa implikatsiya mavjud – *“sizda ham ozgina bor ekan”* reprezentativ aktda qo‘llangan *“ham”* yuklamasi tergov qilinayotgan shaxsning qing‘ir ishlarni qilishiga ishora qiladi, *“ozgina”* so‘zi tarkibida -gina yuklamasi jinoyatga aloqadorlikning oz ekanligini ta’kidlab kelgan bo‘lsa ham, tergovchi unga bosimni kamaytirish, qo‘rqitib yubormaslik uchun aynan shu nutq uslubini tanlagan. Yuqorida tahlil qilingan kontekstda qo‘llangan ijobiy xushmuomalalik substrategiyalarining izohini 2.2.2-jadvalda keltirib o‘tamiz:

⁷⁷ Ҳакимов М., Газиева М. Ўзбек прагмалингвистика асослари. – Тошкент: Академнашр, 2020. – Б .201.

2.2.2-jadval.

1, 5, 6, 11-ijobiy xushmuomalalik substrategiyalarining izohi.

<p>Tinglovchining qiziqishlariga e'tibor berish va g'amxo'rlik ko'rsatish (1) – adresantning faoliyatiga qiziqish, e'tirof etish, maqtash, qadrlashni ifodash.</p> <p><i>Misol: Kooperativda ishlar qalay, gullab yashmayaptimi?</i></p> <p><i>Sizning yutuqlangiz juda ko'p...</i></p>	<p>Kelishmovchilikdan ochish(6) – So'zlovchi tinglovchning fikrini qo'llab-quvvatlash yoki yumshoqroq ifoda etish orqali kelishmovchiliklardan ochishga qaratilgan.</p> <p><i>Misol: Gapingiz to 'g'ri.</i></p> <p><i>Keling, bu masalani birga hal qilamiz?</i></p> <p><i>Ehtimol, tez kunda kelib qolar:</i></p> <p><i>Iz aytganingiz to 'g'ri, lekin...</i></p>
<p>Kelishuvga erishish(5) tinglovchi bilan kelishish, umumiy fikr va qarashlarni topish maqsad qilinadi. Bu strategiya suhbatdoshning fikrlarini hurmat qilishini va ularga qo'shilishini ko'rsatadi.</p> <p><i>Misol: Gapingiz to 'g'ri. Sharoit zo 'r.</i></p>	<p>Optimist bo'lish (11) – suhbatda ijobjiy kayfiyatni saqlash, tinglovchiga umid va ishonch bildirish orqali munosabatlarni yaxshilashga harakat qilish.</p> <p><i>Misol: Albatta, uddalaysiz.</i></p> <p><i>Sizga ishonaman!...</i></p>

Tinglovchining diqqatini jalb qilish, qiziqishini oshirish uchun

(3-subsrategiya) nutqimizda shunday sintaktik qoliplar mavjudki, ular ko'pincha ijtimoiy masofa yaqin kommunikatorlar nutqida qo'llanadi:

...Hozir xonamdan ikki kishi chiqqanini ko'rningizmi?

– Ha ko'rdir... To 'g'risini aytsam ... kirishayotganini ham ko'ruvdim...

– Menga nima deb ketishganini tasavvur ham qilolmaysiz? Darvoqe, agar

kirishayotganini ham ko'rgan bo'lsangiz, demak, ularni taniysiz?

– Bittasini taniyman... kasalning eri ... ("Zulm" hikoyasi)

Ikki shifokor nutqidan olingen ushbu badiiy kontekstning "*Menga nima deb ketishganini tasavvur qilolmaysiz?*" referenti bo'lib o'tgan voqeaga adresatning diqqatini tortish maqsadida qo'llangan, bunday konstruksiyalar tinglovchiga noma'lum bo'lgan voqe-a-hodisa, shaxs yoki narsaga ishora qiladi va bir muddat o'zida yashirin xabar aktini ifodalaydi. Bu yashirin ifoda keyingi propozitsiyalarga ishora qilgani, konkretlashgani uchun ham deyksis vazifasini o'tay oladi deb

o‘ylaymiz, sababi ular so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni aniqlashtiradi, ularga ishora qiladi.

Nutqimizda bunday konstruksiyalar anchagin bo‘lib, illokutiv maqsadi jihatdan guruhanadi: “*Bilasanmi...*”, “*Tasavvur qil...*”, “*Ishnonmaysan, lekin...*” (qiziqarli boshlanish uchun); *Kutilmaganda...*”, “*Nihoyatda hayajonli...*”, “*Bundan ham qiziqarli tomoni...*”, “*Shu paytda...*” (suhbatga yangi tavsiotlarni qo‘sish uchun); “*Buni eshitib sen ham xayron qolasan...*”, “*Shu paytgacha bunday narsani ko‘rmagan bo‘lsang kerak...*”, “*Qanday qiziqarli ekanini o‘zing his qilib ko‘r...*” (tinglovchining diqqatini jalb qilish); ”*Bir payt kutilmaganda...*”, “*Shu payt hech kim kutmaganda...*”, “*To‘satdan...*”, “*Qiziq tomoni shundaki,...*” (voqeani dramatik tarzda tasvirlash); “*Nihoyatda qiziqarli bo‘ldi...*”, “*Kutilmagan voqea bo‘ldi...*”, “*Bu juda g‘alati edi...*”, “*Ajayib holat edi...*” (tinglovchining qiziqishini oshirish) kabi.

Munosabatlarda umumiy asosni tahmin qilish yoki tasdiqlash (7-substrategiya) ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi, chunki o‘zaro muloqotda suhbatdoshlarga umumiy taalluqli voqea-hodisa eslatish, umumiy qiziqishlarni ta’kidlash orqali sotsial aloqalarini mustahkamlaydi, natijada suhbat samimiyligi ortadi.

Deyksik gaplarning qo‘llanishi kommunikatorlarning umumiy yaqinlik roli va makon-zamonga nisbatan joylashuvi kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi⁷⁸, ya’ni bunda so‘zlovchi va tinglovchining bo‘lgan voqea-hodisadan xabardorligi, o‘zaro munosabatlar yaqinligida foydalaniladi. Demak, bu substrategiya so‘zlashuv nutqida ko‘pincha “*Yodingdami...*”, “*Eslaysanmi...*”, “*Biz ikkimiz ham...*”, “*Senga bir voqeani eslatmoqchiman...*” (kommunikatorlarga umumiy aloqador voqea-hodisalarga ishora qilish:); “*Sen ham men kabi...yaxshi ko‘rasan/yomon ko‘rasan*”; “*Bilaman, sen ham ... qiziqasan/qiziqmaysan*” (umumiy qiziqishlarni ta’kidlash); “*Biz ikkimiz ham... fikrdamiz.*”, “*Sen ham men kabi ... deb*

⁷⁸ Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 118.

o‘ylaysan.” (umumiylar fikr va maqsadni tasdiqlash) kabi deytik sintaktik qolipli konstruksiyalardan ham foydalaniladi.

Adresantning xohish va istaklarini inobatga olish, oldindan g‘amxo‘rlik qilish (9-substrategiya) da so‘zlovchining adresat xohish va ehtiyojlarini bilganligi sababli tinglovchiga nisbatan samimiylilikni, e’tiborni ko‘rsatishga harakat qiladi:

– *Qutulib chiqqanidan keyin to‘g‘ri akangnikiga borib, ulardan kechirim so‘raysan. Menden keyin akang senga ota, yangang ona bo‘lishadi. Bu faqat mening istagim emas, almisoqdan qolgan odat. Akang bilan ittifoq yashashingni Xudo buyurgan. Bo‘yin tovlashga haqqing yo‘q.*

– *Yo‘q, ayajon, uyga qaytavering, – dedi Zokir o‘jarlik bilan. – Ikkalamiz yashaymiz. Ularning bizga keragi yo‘q.*

– *Qaysarlik qilma, o‘g‘lim. Men seni akangnikida kutaman. Uyga birga ketamiz. To‘y qilamiz. Sharaf xolang qizini senga berishga rozi...* (“Voy onajonim”, 29-b)

Zokirning qamalishi arafasida aytilgan bu so‘zlar uning qalbida umid uchqunlarini uyg‘otishga, yangasi va akasiga bo‘lgan nafratini yo‘q qilishga sabab bo‘ldi. Dastlab, adresant (ona) nutqida nasihat aktidan foydalanib, o‘g‘li (adresat) ga madaniy va diniy an’analarni eslatib, “almisoqdan qolgan odat”, “Xudo buyurgan” kabi iboralarni qo‘llab (4-substrategiya) ta’sir etmoqchi bo‘lgan, ammo kommunikativ niyati amalga oshmaganligi bois adresatning istak-xohishlarini inobatga olgan holda (*Zokir Sharaf xolanining qizini yaxshi ko‘rar edi*) kommunikativ taktikaga o‘zgartirdi va natijada perlokutiv samara (*akasi va yangasini kechirishi, qamoqdan chiqib to‘g‘ri ularning uyiga borish*) berdi.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi hamkorlikni, ishonchni mustahkamlashda *taklif va va‘da* (10-substrategiya) aktlarining o‘rnini katta bo‘lib, tinglovchining ijobiy yuzini (hurmat) saqlashga yordam beradi:

– *Va‘dam esimda, seni xo‘roz go‘shti bilan siylamoqchi edim. Lekin, afsuski, kutilmaganda vaqtliroq kelib qolding. Senga atalgan xo‘roz hali kurk tovuq tagidagi tuxum ichida yotibdi. Shuning uchun borimizni baham ko‘ramiz, – deb*

dovdirab turgan mehmonni so‘riga taklif qildi. Fima suv ustiga qurilgan so‘riga xavotir bilan qarab qo‘yib, o‘rnidan jilmadi.

– *Fima, mehmonni to‘ydirib, keyin suvgaga itarib yuboradigan marazlar boshqa joyda yashaydi, – dedi Axtam uning havotirini fahmlab.*

(“Shaytanat”-5, 496-b.)

Kontekstda adresant nutqida qo‘llangan vaqt deytik birligi (“esimda”) oqali tinglovchiga berilgan va’daga ishora qilingan, ammo mehmon kutilmaganda kelib qolganligi bois o‘z va’dasini bajara olmasa ham o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan “borini dasturxonga qo‘yishi” urf-odatiga amal qilingan. “Shuning uchun borimizni baham ko‘ramiz” propozitsiyasida taklif akti ifodalangan. Adresat (Fima)ning kommunikativ niyati esa noverbal vosita orqali, ya’ni taklifni qabul qilishga ikkilanganligida namoyon bo‘lgan. Buni anglagan sezgir adresant “*Fima, mehmonni to‘ydirib, keyin suvgaga itarib yuboradigan marazlar boshqa joyda yashaydi*” deya bilvosita ifodalangan va’da akti orqali o‘z munosabatini mustahkamlashga erishdi.

Badiiy asarda ijobiy xushmuomalalik substrategiyalarini qo‘llashdan maqsad, asardagi personajlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqurroq va ko‘proq o‘lchovli tasvirlash, muloqotlarning ma’no-mazmunini boyitishdir. Bu strategiyalar personajlarning bir-birlariga bo‘lgan o‘zaro hurmat va qiziqishlarini namoyish qilish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, ular o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlikni yoritish orqali o‘quvchilarga personajlarning ichki dunyosini va ularning muloqotdagi o‘zaro munosabatlarini yanada yaxshi tushunishga yordam beradi. Quyida yana bir nechta usullarini tahli qilamiz:

T ni birga harakat qilishga chorlash substrategiyasi (12)da adresant tinglovchi (T) ga qaysidir faoliyatni bиргаликда bajarishga undaydi, bu orqali adresatga o‘zaro hurmat va hamkorlik ko‘rsatadi. Ko‘pincha bu usulda adresant nutqida “*bиргаликда*”, “*birga*”, “*hamkorlikda*” kabi leksik birliklar qo‘llanadi, ammo har doim bu birliklar mavjud bo‘lavermaydi, gapning kesimi esa I shaxs ko‘plik shaxs-son shakli hamda buyruq-istak, xabar maylida qo‘llangan predikatlar orqali shakllangan bo‘ladi:

Zelixon raqsdan to ‘xtab, Valyani chetga tortdi:

- *Valyusha, – dedi u, – sen uyga boraver. Men bir tanishimni ko ‘rishim kerak.*

Valya unga sinovchan tikildi-da: – Birga keldikmi, birga ketamiz, – dedi qat’iy ohangda.

- *Qo ‘rqma, qochib ketmayman, – dedi Zelixon hazilomuz tarzda.*
- *Qochib qayerga ham borarding, – dedi Valya qoshlarini chimirib.*
- *Tanishingni birga ko ‘ramiz.* (“Shaytanat” – 2. 124-b.)

Berilgan dialogda kommunikatorlar bir-birlariga nisbatan yaqinlik va o‘zaro hurmatni saqlab ijobiy xushmuomalalikning 12-substrategiyasidan foydalanishgan. Sotsiopragmatik jihatdan bu muloqot usuli ijtimoiy kuch masofasini qisqartirish, suhbat jarayonida tenglikni yaratish va yaqin ijtimoiy aloqani ta’minalash vositasi sifatida xizmat qilgan. Zelixonning ohangi qat’iy bo‘lsa ham, bu qat’iyat Valyaning qarshilik qilmasligi uchun yumshoqroq shaklda ifodalangan, natijada adresatni majbur qilmasdan, unga o‘zi qaror qabul qilish imkonini bergen.

Sabablarini keltirish, so ‘rash (13) substrategiyasi. Bu substrategiyada:

- 1) so‘zlovchi o‘zining harakatlarini yoki talablarini tushuntirish uchun sabablar keltiradi, natijada tinglovchiga noma’lum xatti-harakat oydinlashadi, natijada samimiy munosabat kuchayadi;
- 2) so‘zlovchi tinglovchidan biror narsani tushuntirish yoki harakatlarining sababini keltirishni so‘raydi. Bu orqali adresant tinglovchini tushunishga intiladi, natijada ijtimoiy hamkorlik mustahkamlanadi.

Bu muloqot usuli ko‘pincha:

- *shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, shu bois kabi ko ‘makchili birikmalar;*
- *sabab bog ‘lovchilar;*
- *so ‘roq olmoshlari yoki so ‘roq ohangi kabi lingvistik birliklarni qo ‘llash orqali shakllanadi va gapning kesimi II shaxs ko ‘plikdagi shaxs-son shakllari orqali ifodalananadi.*

– *Mayli, opajon. – dedi yengil xo‘rsinib, - faqat...uyga borib kelay, bu bozorda sotadigan narsalarim bor.*

– *Nimalarni sotmoqchisiz?* – *dedi Manzura ajablanib, keyin savoliga aniqlik kiritdi: Nega sotmoqchisiz?*

– *Men u yoqdaligimda baraka topgur qo‘shnilarim mol-holga qarab, ancha ko‘paytirib qo‘yishibdi. Odamlardan qarzlarimiz bor ...* (“Shaytanat”- 5. 248-b.)

Berilgan kontekstda adresant (Manzura) ayolga “*Nimalar sotmoqchisiz?*”, “*Nega sotmoqchisiz?*” kabi so‘roq aktlarini qo‘llash orqali suhbatdoshining harakatlari sababini bilishni niyat qilgan. Manzuraning savollar berishi o‘zbek madaniyatidagi ijtimoiy yaqinlik va hurmatning ifodasi sifatida namoyon bo‘lgan. Bu savollar, birinchi navbatda, ijtimoiy masofani kamaytirishga va suhbatdosh bilan aloqani mustahkamlashga qaratilgan, u sotuvchi ayolning moliyaviy va ijtimoiy holatini bilishga harakat qilib, unga nisbatan hurmat, samimiyatni ko‘rsatgan. O‘zbek madaniyatida sababni so‘rash hamda boshqa shaxsning xatti-harakatlariga qiziqish bildirish orqali ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi, bu esa ijtimoiy hamkorlikni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zaro hamkorlikni tasdiqlash (14) substrategiyasi. Bunda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi hamkorlik mavjudagini tasdiqlash yoki talab etish orqali kommunikatorlar o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar mavjudligini ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda bu strategiyaning amaliy ahamiyati katta. Ikki tipdagi holat ko‘p uchraydi:

1) talab akti orqali: men o‘tgan hafta sen uchun... qildim, shuning uchun bu hafta sen qilasan;

2) shartlashish akti orqali: agar sen qilsang, men ham senga yordam beraman.

– *Menden yordam kutayotgan bo‘lsang, men yoningdaman, oshnalarimni xor qilib qo‘ymayman. Faqat... sen ham menga oshnachilik qilasan. Oyog‘imning tagini qichitayotgan bir xas bor, shuni olib tashlash kerak.* (“Shaytanat”- 5. 104-b.)

Tinglovchiga sovg‘alar berish (15) substrategiyasi. Bu substrategiyada so‘zlovchining ardoqlashi, hayratda qoldirishi, g‘amxo‘rlik qilishi, tushunishi, tinglashi, minnatdorchilik va boshqa shu kabi nutq aktlari orqali tinglovchiga nisbatan hurmat, ijobiy munosabat ko‘rsatiladi.

– *Bechora opog‘oyimga achinaman. Xizmatkordan farqlari yo‘q edi. Sochlari supurgi, qo‘llari kosov bo‘lib xizmatlarini qilsalar ham kelinposhshaga yoqmadilar-da!* (“Voy, onajonim...”. 20-b.)

Berilgan misoldagi adresant achinish akti vositasida tinglovchi va uning onasiga nisbatan hurmatni, hamdardlikni namoyish etgan. Qo‘shti ayol onaning katta o‘g‘li va kelin tomonidan qadrlanmaganini ta’kidlab, kichik o‘g‘ilga hamdardlik bildirgan. Achinish, hamdardlik akti orqali tinglovchining ijtimoiy va ruhiy holatini hissiy ehtiyojlarini ko‘rganini ifodalaydi, bu esa ijobiy xushmuomalalik strategiyasining asosiy jihatlaridan biridir.

N.Adanboyeva ingliz va o‘zbek tillariga xos tabriklash, minnatdorchilik bildirish nutqiy aktining aksiolingvistik xususiyatlari hamda xushmuomalalikni ifodalashda o‘rnini tadqiq etgan. Bu kabi nutqiy aktlar ijobiy xushmuomalalikning o‘n beshinchi substrategiyasini ifodalovchi usullardan biri hisoblanadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, har qanday xushmuomalalikni ifodalovchi vositalar illokutiv aktida bir xil ifodalansa ham, ammo turli millat madaniyatlarida, ijtimoiy guruhlarda lokutiv aktida har xil namoyon bo‘ladi⁷⁹. O‘zbeklar muloqotida ijobiy xushmuomalalik yetakchilik qilgan holda, suhbatda hazilomuz mavzular, tabiiy va soxta mulozamatning ko‘pligi, do‘stona muhit yaratish maqsadida suhbatdoshini muloqotga chorlash holatlari tadqiqot kuzatuvlarida va so‘rovnama natijalariga ko‘ra aniqlangan.

Braun va Levinson umumiylar xushmuomalalik strategiyalarini ishlab chiqishgan va uni “universal” kategoriya ekanligini ta’kidlaydilar. Albatta, xushmuomalalik hamma millat va elatga xos, ammo barcha madaniyatlarda bir xil qo‘llanadi deya noto‘g‘ri talqingga borib qolmaslik kerak. Masalan, *talab akti orqali*

⁷⁹ Adanboyeva N. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili; Filol. fan. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024. – B.48

o‘zaro hamkorlikni tasdiqlash (14- substrategiya), ya’ni “men sen uchun ... qildim, endi sen men ... qil” tipida propozitsiyalanuvchi ifodalar o‘zbek nutqi madaniyatiga xos emas, bunday jumlalar individualistik madaniyatlar (AQSh, G‘arbiy Yevropa dalatlari)ga xos bo‘lib, ularda o‘zaro yordam va hamkorlikning bitta ko‘rinishi sifatida odatiy qabul qilinadi. Ammo ko‘p hollarda o‘zbek madaniyatida qilingan yaxshilik evaziga nimadirni talab etish diniy e’tiqodlariga ham to‘g‘ri kelmaydi, ijtimoiy yuzga tahdid soladi, minnat qilish ma’nosida tushuniladi, natijada o‘zaro kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

2.3-§. Masofaviy muloqotda xushmuomalalik strategiyalarining qo‘llanishi.

Masofaviy nutqiy strategiyalar (negativ xushmuomalalik - negative politeness) konsepsiysi ijtimoiy tilshunoslik va pragmatika sohalarida o‘rganilgan bo‘lib, dastlab P.Braun va S.Levinsonning ishlariga asoslangan. Ular 1987-yilda qayta nash etilgan “Politeness: Some Universals in Language Usage” nomli kitobida bu konsepsiyanı keng qamrovli tarzda tadqiq etib, negativ xushmuomalilik suhbatdoshlarning shaxsiy hududini, mustaqilligini va o‘z-o‘zini boshqarishini hurmat qilish orqali yuzaga kelishi, bu turdagи xushmuomalalik, odatda, boshqalarning vaqtini yoki resurslarini sarflashdan qochish orqali namoyon bo‘lishi o‘zaro hurmat va ehtiyojkorlikni ko‘rsatadi deya izohlashgan⁸⁰. Braun va Levinsonning ushbu nazariyasi ko‘p yillar davomida ko‘plab tilshunoslar va sotsiologlar tomonidan qayta ko‘rib chiqilgan, rivojlantirilgan. Mana shunday pragmatikachilardan biri G.Lich masofaviy (negativ) xushmuomalalik tushunchasini kengaytirib, uning ijtimoiy uyg‘unlik va shaxslararo munosabatlarni saqlashdagi rolini ta’kidlab, imperativlar o‘rniga so‘roqlarda foydalanish o‘rinli ekanligini tahlil etgan⁸¹, daniyalik tilshunos Anna Trosborg esa o‘z tadqiqotlarida so‘rovlар, shikoyat va uzr so‘rashning pragmatik jihatlarini chuqur tahlil qilgan⁸²,

⁸⁰ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 345.

⁸¹ Lich, G. N. Principles of Pragmatics. London and New York: Longman, 1983. – Pp.250.

⁸² Trandborg A. Interlanguage pragmatics: requests, complaints and apologies. – Berlin: Mouton de gruyter, 2011. – Pp. 581.

bu esa xushmuomalalik pragmatika va xushmuomalalik nazariyasini ijtimoiy muloqotda tushunish, tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘la oladi.

O‘zbek tilshunsligida M.Xolova⁸³, N.Adanboyeva⁸⁴, N.Ruziyeva⁸⁵lar o‘zbek va ingliz tilining qiyosiy tahlili asosida masofaviy (salbiy) xushmuomalalik strategiyalarini tadqiq etishgan. O‘zbek va yapon millatlariga xos ayrim xushmuomalalik strategiyalarini tahlil qilgan H.Turdiyeva yaponlarda o‘ta kamtarlik, bosim o‘tkazmaslik va bosimda qolmaslik, hammaning hayoti o‘ziga tegishli bo‘lganligi uchun tashqi aralashuvlarni qabul qilmaslik tushunchalari yetakchilik qilib, ko‘proq negativ xushmuomalalikni ifoda etadilar. “Masofaviy muqolotdagi xushmuomalalik” odamlarga rasmiy hurmat ko‘rsatish vositasi hisoblanib, ijtimoiy muhitda o‘zini to‘g‘ri tutishni o‘z ichiga oladi. Masofaviy xushmuomalalik strategiyalari tinglovchining salbiy yuziga qaratilgan va tinglovchiga har qanday majburlashdan qochish uchun mo‘ljallangan. Nutqimiz tinglovchiga qandaydir tarzda ta’sir qiladi deb o‘ylaganimizda va noqulaylik yoki xijolat his qilmaslikni istasak, biz yuqoridagi nutq strategiyasidan foydalanamiz. Negativ o‘z-o‘zini hurmat qilish ehtiyoji (negative self-espect needs) bosim o‘tkazmaslikka bo‘lgan ehtiyoj tushuniladi⁸⁶. Bu kabi xushmuomalalik masofadan o‘zaro rasmiy muloqot ishtirokchilari orasida paydo bo‘ladi va tinglovchini u yoki bu harakatni qilishga majburlash xususiyatidan yiroq bo‘ladi. So‘zlovchining majburlashidan qochishga urinishi orqali tinglovchiga yuzma-yuz tahdid qilish xavfi kamayadi⁸⁷. Bundan ma’lum bo‘ladiki, masofaviy muloqotda qo‘llanuvchi xushmuomalalik strategiyasi boshqalarga hurmat ko‘rsatish, ularning shaxsiy hududlariga tajovuz qilmaslikdir, ijtimoiy masofa saqlash, boshqalarning erkinlarini hurmat qilishdir. Negativ xushmuomalalik strategiyasini biz “masofaviy

⁸³ Xolova B. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot, 2023. – B. 66.


⁸⁴ N. Adanboyeva. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili. Farg‘ona – 2024.

⁸⁵ Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyalarining shartlanishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)...avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 48

⁸⁶ Турдиева Х. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. Фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 21.

⁸⁷ Rahimova F. Ta’limiy saytlarda axborot yoki ma’muriy murojaatlarning mikromatnlarda ifodalanishining pragmalingvistik xususiyatlari // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2022. – № 14. 2022. – B. 258-268.

muloqotda qo‘llanuvchi xushmuomalalik strategiyasi” deb atasak ham maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki bu strategiya suhbatdoshlar orasida ijtimoiy masofa uzoq bo‘lganda qo‘llanadi. Masovaviy muloqotda qo‘llanuvchi xushmuomalalik o‘nta substrategiyalardan⁸⁸ iborat bo‘lib, ushbu substrategiyalarning barchasi salbiy yuzlarini saqlab qolish uchun suhbatdoshlariga ko‘proq erkinlik hissini berish uchun mo‘ljallangan:



2.3.1-chizma. *Masovaviy muloqotda qo‘llanuvchi xushmuomalalik (Negative politeness) substrategiyalari*⁸⁹

Qayd etilgan substrategiyalarni Tohir Malik asarlaridan olingan badiiy kontekstlardagi kommunikativ xatti-harakatlar asosida tahlil qilamiz:

I. Bilvosita ifoda etish substrategiyasi salbiy yuzga hurmatni faollashtiruvchi nutqiy tuzilmalar struktura jihatidan mukammalroq ko‘rinishga ega bo‘lib, ular ko‘pincha bilvosita nutqiy aktlarni ifodalovchi tuzilmalar (so‘roq gap, shart mayli va h.) vositasida hosil bo‘ladi. Bilvosita ifodalanayotgan, mazmunan unchalik aniq bo‘lmagan, odatda shakliy jihatdan uzun nutqiy tuzilmalarning qo‘llanishi

⁸⁸ Brown P. and Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 129-211.

⁸⁹ Brown P. and Levinson S. Ko‘rsatilgan manba. – Pp. 129-211.

so‘zlovchi hurmat va qadriyatni saqlashga urinayotganidan darak beradi⁹⁰. Bundan nutqiy tuzilmaning muloyimlik bilan yangrashi, tinglovchining shaxsiy obraziga (salbiy yuzga) tahdidni oldini olish asosan bilvosita nutqiy aktlar vositasida amalga oshiriladi⁹¹. Adresant o‘zining kommunikativ niyatini bevosita aytmasdan, kontekst orqali implitsit (bilvosita) ifoda etadi, ya’ni propozitsiya shaklan so‘roq akti bilan namoyon bo‘lsa ham, ammo illokutiv maqsad iltimos, buyruq aktlariga teng bo‘ladi:

Xonadagi sukunat to Zaynab choy ichib olib kirguncha cho ‘zildi.

– Ada, ovqat olib kelaveraymi, oldin doringizni ichib olasizmi?

– Ha, albatta, oldin dorini ichadi, – deb Asadbek o‘rniga javob berdi Jalil.

Asadbek dorini ichdi-yu, ammo avqatga qaramadi. Ilon kukuni solingan qaynatma sho ‘rvani xo ‘rillatib ichib olgan Jalilni ter bosdi. (“Shaytanat”–3. 20-b.)

Ushbu kontekstda tasvirlangan Zaynabning otasiga, oilaning do‘sti Jalilga choy olib kirishi o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan urf-odatlardan biri bo‘lib, bu mehmonga hurmat-ehtiromni anglatadi. Ammo “Shaytanat” romandan ma’lumki, Asadbekning qizi hammaning oldiga choy olib kiravermaydi, demak, mehmon oilaning yaqin insoni hisoblanadi. O‘zbek madaniyatida qiz va ota orasida munosabatlar alohida e’tibor, hurmat bilan chegaralangan. Bu munosabatlarda rasmiylik, odob va bilvosita strategiyalar muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun Zaynab tilidan buyruq akti bevosita emas, bilvosita ifoda etilgan. Savolga Asadbek emas, aksincha do‘sti javob qaytardi. Bu ham Asabek nomidan qaror qabul qiladigan kishi uning eng yaqin kishisi ekanligini isbotlaydi va bu kontekstda qizning otasiga mehribonchiligi, do‘stining g‘amxo‘rligi ham tasvirlangan.

II. Bilvosita so‘roq va ehtimolliklar. Bu substrategiya ham birinchi usulning mantiqiy davomi bo‘lib, informema so‘roq shaklida bo‘lsa-da, ammo so‘roq bilan birga ehtimollikni ifodolovchi so‘z (balki, ehtimol, mumkin) yoki “...bo‘larmikin” shaklidagi fe’llardan foydalanib, pragmemadagi iltimos, so‘roq, buyruq aktlarini

⁹⁰ III. Сафаров. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 149.

⁹¹ A.F. Shamaxmudova. Hurmat tamoyillarini til tizimida voqelantiruvchi lisoniy harakatlar // Ilmiy axborotnama, 2021. – № 2. –Б. 55-58.

yumshatish, bilvosita ifodalash hamda tinglovchiga subyektivlik, amal qilishda ixtiyorilikni beradi va shu bilan majburlash darajasini pasaytirish⁹² uchun qo‘llaniladi:

– *Ayamni ... shu yerga qo ‘yishibdi... men yo ‘q edim.*

Zokir shunday deb lablaridagi titroqni bosish ichun piyoladan iliq choydan xo ‘pladi.

– *Onangizni Xudo rahmat qilsin, sizga esa sabri jamil ato qilsin, – dedi go ‘rkov.*

– *Ayamni... qo ‘shni qishloqqa olib ketsam bo ‘larmikin... ?*

(“Voy onajonim...”, 33-b.)

Zokir “*iltimos, ruxsat bering*” degan ma’noda unga yalingansimon qaradi. Ushbu kontekstda “bo‘larmikin” so‘zi orqali Zokir gumanoni ifodalab, iltimosining amalga oshmasligi ehtimolini oldindan tan olgan. Bu go‘rkovga rad etish imkoniyatini osonlashtirgan va bilvosita aktni yumashtishga xizmat qilgan.

O‘zbek tilida iltimos bilvosita nutqiy aktlarining savol shaklida tuzilishi ko‘p uchramasa-da, ulardan ma’lum darajada foydalanishimizni kuzatishimiz mumkin. Ularda shart va konvensiallik alomatlari namoyon bo‘ladi⁹³, ya’ni birlamchi illokutiv aktida iltimos semasi, ikkilamchi illokutiv aktlarda savol formasi birgalikda tizimli muloqotni shakllantiradi.

III. Pessimist bo‘lish substrategiyasida so‘rov yoki iltimos aktlarini yumshatish va suhbatdoshingizga rad etish imkoniyatini osonlashtirish orqali adresatni hurmat qilgan holda so‘rov bilvosita ifodalaniladi. *Demak, pessimist (umidsiz) bo‘lishning asosiy maqsadi – tinglovchiga so‘rovni amalga oshirish darajasining pastligini bildirish.* Ko‘pincha yuqori lavozimli yoki hokimiyatga (kuch) ga ega shaxslar (ota-on, rahbar, ustozga va boshqalar), yangi suhbatdoshlar bilan bo‘lgan muloqotda qo‘llaniladi:

– *Men bir iltimos bilan kiruvdim. Aytaman-u faqat xafa bo ‘lmaysiz-da.*

– *Aytavering, men bilan birinchi yil ishlayotganingiz yoq-ku...*

⁹² Adanboyeva N. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili; Filol. fan. dok. (PhD)... diss. – Farg‘ona, 2024. – 96.

⁹³ Шамахмудова А. Билvosita нутқий актларни талқин этиш тамойиллари (этнопрагматик омиллар) // Хорижий филология, 2017. – №4. –Б. 83–87.

– *Ha... birinchi yil ishlayotganim yo‘q... Agar xafa bo‘lmasangiz, ertangi operatsiyaga men kirmasam. Boshqa anestiziolog kirsa...* (“Zulm” hikoyasi. 62-b.)

Bu muloqotda shifokorlar nutqi aks etgan bo‘lib, “*Boshqa anestiziolog kirsa*” jumlesi orqali iltimos qiluvchi shaxsning ijtimoiy faoliyati haqida ma’lumot olishimiz mumkin. “*Aytaman-u faqat xafa bo‘lmaysiz-da*” deyishi pragmatik maqsadning amalga oshishi uchun tayyorgarlik bosqichi vazifasini bajaragan va xafa bo‘lib qolish ehtmoli borligini ifodalagan bo‘lsa, iltimos akti yana “*Agar xafa bo‘lmasangiz...*” jumlesi bilan davom etgan, bundan maqsad hamkasbining oldindan beradigan javobini yumshatish, tinglovchiga noqulaylik tug‘dirmaslik, uning erkini cheklamaslik maqsadida qo‘llangan.

Ko‘pincha bu strategiya “*Agar xafa bo‘lmasangiz / noqulay bo‘lmasa / muammo bo‘lmasa, ...*”, “*Bilmayman, bu siz uchun qiyin bo‘larmakin, lekin... bera olasizmi?*”... kabi adresatning gipotetik, noreal, shuningdek, shubha ma’nosи bilan subyektiv modallikning turli vositalari sifatida harakatni bajarish qobiliyatini (xohishini) ifodalovchi konstruksiyalar bilan shakllangan bo‘ladi.

IV. *Imkoniyatlarni minimallashtirish.* Bu substrategiya ijtimoiy yuzga tahdidni, ya’ni adresatga bosim darajasini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, tinglovchining salbiy yuzini (erkinligini) himoya qilishga yordam beradi, ya’ni ular o‘zlarini noqulay his qilmasdan iltimosni bajarishga undaydi⁹⁴. Iltimos yoki talab aktining kichik yoki uncha katta bo‘lmaganligini ta’kidlaydi:

– *Gaplari bormish, – dedi yigit aybdor odamning ovozi bilan. So‘ng o‘zini oqlash maqsadida izoh berdi: – Uxlayaptilar desam ham ko‘nishmadi.*

– *Bek inim, ikki og‘iz gapimiz bor, aytamiz-u ketamiz. Sizni uchratishimiz osonmi, bu to‘rtinchi kelishimiz, hayriyat, uyda ekansiz, –dedi chollardan biri.*

– *Kiraveringlar, men hozir, – Asadbek shunday deb yuvinishga o‘tdi.*

(“*Shaytanat*” – 3. 75-b.)

Tohir Malikning “Shaytanat” romanidagi bosh obraz Asadbek mafiyaboshi, katta obro‘ga ega shaxs va uning oldiga kelib suhbatlashish oson ish emas. Buni adresatning “*to‘rtinchi kelishim*” degan so‘zлari ham isbotlaydi. Ijtimoiy masofa

⁹⁴ Yuldasheva F. Negative Politeness // International Journal on Integrated Education, 2021. № 4. – Pp. 468-471.

va kuch mutonosibligi jihatdan domla o‘z iltimosini “*ikki og‘iz*” *iborasi* bilan minimllashtirib (kamaytirib), muloyim va ehtiyotkorona tarzda so‘zlagan. Ushbu kontekstning tahlilini quyidagi 2.3.1-jadvalda batafsil izohladik:

2.3.1-jadval.

Imkoniyatni minimallashtirish substrategiyasining sotsiopragmatik tahlili.

Imkoniyatni minimallashtirish subsstrategiyasining sotsiopragmatik tahlili				
– Bek inim, ikki og‘iz gapimiz bor, aytamiz-u ketamiz.				
Badiiy kontekst	sotsial rollar	Ijtimoiy masofa	Kuch tengsizligi	Sotsiopragmatik natija
Domla (mahalla imomi) Asadbekni qidirib kelgan, unga iki og‘zi aytar so‘zi bor.	Asadbek– mafiya boshlig‘i	yuqori	+	Hurmat va ehtiyotkorlik bilan so‘zlash, salbiy yuzga tahdid ni kamaytirish, muloqotni ijobiy davom ettirish
	Domla– mahalla imomi	pastroq	–	
“ <i>ikki og‘iz</i> ” iborasining pragmatik ahamiyati (Implikatsiya)				
Suhbat qisqa bo‘lishi, iltimos juda katta ahamiyatga ega emas, suhbatda vaqtini ko‘p olmaslik				

Demak, bu substrategiyada ko‘pincha iltimos akti tarkibida *miqdorni ozligini bildiruvchi ravishlar* (*ozgina, bir oz, bir daqiqa, besh minutga...*), “*kichkina ...*”, “*bir narsa*” “*arzimagan...*” *so‘zlari hamda ozlik ma’nosini beruvchi iboralar* (“*bir o‘g‘iz*”, “*ikki og‘iz*”, “*to‘rt og‘iz*”⁹⁵) qo‘llanadi.

V. *Hurmat ko‘rsatish.* Bu substrategiyada ikki asosiy yo‘nalish bor: 1. Adresant o‘zini kamtar tutadi va sotsial maqomini pastroq ko‘rsatadi. 2. So‘zlovchi tinglovchining ijtimoiy maqomini baland ko‘rsatadi, ya’ni hurmat qiladi, ulug‘laydi. Ikkala holatda ham adresatga bo‘lgan hurmatni ifodalaydi, munosabalarni mustahkamlashga harakat qiladi⁹⁶.

O‘zbek tilida o‘zidan katta yoshdagи yoki ijtimoiy statusi baland suhbatdoshga hurmatni ifodalashda *II shaxs birlik olmoshi (sen) o‘rniga II shaxs*

⁹⁵ Рахматуллаев III. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 41.

⁹⁶ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 178.

ko ‘plik (siz) qo ‘llash; birinchi va ikkinchi shaxs birlik mayl, shaxs-son⁹⁷, egalik o‘rnida ko ‘plik shakllarini keltirish; otning ko ‘plik qo ‘shimchasi (-lar) ning birlik o‘rnida kelishi; ijtimoiy statusni ko ‘rsatuvchi unvon, lavozim nomlaridan foydalanish; adresant o‘zini kamtar tutishi uchun “men” o‘rnida “biz”, “kamina”, “kaminayi kamtarin”, “qulingiz”, “faqiringiz” so‘zlarini qo ‘llash; atoqli otlarga qarindoshlik nomlarini qo ‘shish; adresant o‘zida mavjud predmet belgisini kamaytirish (kichkina bir..., arzimagan bir...) yoki ataylab kommunikativ niyatiga erishish uchun o‘ziga “past baho” berib, tinglovchini ko ‘tarish bir qancha lingvistik vositalardan foydalaniladi.

Shaxslararo muloqot jarayonida adresat o‘ziga “past baho” bersa-da, o‘z foydasini ham unutmaydi, u o‘z shaxsiyatining qimmatini ko‘rsatishga, o‘z hurmatini saqlashga urinadi. Shaxsiy qadrini saqlashga yo‘naltirilgan tamoyil ko‘pincha nosimetrik munosabatlar vaziyatida namoyon bo‘ladi⁹⁸:

— *Men noz qilayotganim yo‘q, aka, — dedi Elchin, o‘zidan ikki-uch yosh kichik bo‘lgan Hosilboyvachchaga. — Akoxoningiz sizga qadrdon bo‘lsalar, to‘ylariga zo‘rroq ashulachilarni olib borganingiz yaxshimi, deyman-da. Men ancha chetga chiqib qolganman. Birov eslaydi, birov eslamaydi. G‘ulom kelibdi yo Shereli kelibdi, degan gap qayoqda-yu, almisoqdan qolga Elchin kelibdi, degan gap qayoqda?*

— *Bunchalik past ketmang. Arzimasangiz o‘zim kelmas edim.*

Elchin bu gapdan “Men uncha-buncha odamni taklif etmayman,” degan ma’noni uqdi. (“Shaytanat “–1. 166-b.)

Berilgan kontekstda esa so‘zlovchi emas, aksincha adresat o‘ziga “past baho” berib, to‘yga borishni rad etish uchun “*hurmat ko ‘rsatish*” substrategiyadan unumli foydalangan. Elchinning nutqidan to‘y qilayotgan kishi “*oddiy odam*” emasligi, *Elchin “zo‘r” ashulachilar qatoriga kirmasligi, san’atdan uzoqlashib qolganligiga ishora qiluvchi presuppozitsiyalar* orqali inkor yumshatilgan, adresantning salbiy yuzi (hurmati) saqlangan.

⁹⁷ Хожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 164.

⁹⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 161

VI. *Kechirim so'rash substrategiyasida so'zlovchi tinglovchiga nisbatan o'zaro hurmatni saqlab, uning "shaxsiy hududi" – salbiy yuziga tahdidni kamaytirish uchun adresant tinglovchining bandligini, bezovta qilganligini, qilgan xatosi yoki qaysidir harakatni amalga oshira olmasligini anglagan holda uzr so'raydi.*

N.Adanboyeva o'z tadqiqotida kechirim so'rashni ijobiy xushmuomalik strategiyasiga kiritilishi lozimligini yozadi⁹⁹, ammo biz bu fikrlarni to'ldirgan holda ikkala turga kira olishini asoslab o'tamiz, ya'ni ijobiy va salbiy xusmuomalalikdagi kechirim so'rashning asosiy farqi uning sotsiopragmatik vazifasi – kommunikativ niyat, ifoda usuli, ta'siri, qachon, qayerda va kimga nisbatan aytilganidir. Quyida buni farqli xususiyatlarini keltirdik:

2.3.2-jadval.

Kechirim so'rash substrategiyasi

No	Farqlar	Ijobiy xushmuomalalik	Masofaviy muloqotdagi xushmuomalalik
1	Kommunikativ maqsad	Munosabatlarni yaxshilash, samimiylikni oshirish, adresat his-tuyg'ulariga e'tiborni kuchaytirish	O'zini himoya qilish, noqulayliklardan qochish va javobgarlikni kamaytirish
2	Ifoda usuli	Kechirim so'rash ochiq, samimiyl, emotsiyal	Muloyim, bosiqlik bilan
3	Ijtimoiy masofa	Simmetrik munosabatlar	Assimetrik munosabatlar
4	Lingvistik vositalar	<i>Afsusdaman..., "Sizni kutdirib qo'ydim...", "Kechiring, siz men uchun..." va b.</i>	"Men xato qildim...", "Bu mening aybim edi, ammo...", "Uzr, ...", "Kechirasiz, sizni bezovta qildim...", "Endi bu holat takrorlanmaydi..." va b.
5	Misol	Darvoza eshigi ochilmasa ham mayli edi, akasi derazadan bir soniyaga qarab qo'ysa bas edi. Birgina so'z aytardi: – ... <i>Kechiring</i> . Bu so'zni aytishini onasi istagan edi. Xuddi qabrida tik turib olib uni kuzatganicha vasiyatining bajarilishini kutayotgan edi. ("Voy, onajonim...", 35-b.)	Soabitxon qori qisqagina duo o'qigach, Anvardan hol-ahvol so'radi. – Ko'chada mulla Habibxon akani ittifoqo uchratib, bu ko'ngilxush xabarni eshitdim. Mavridi bo'lmasa ham yo'qlay dedim. <i>Uzr, Suhbatlaringizga halal berdim</i> . Sizni bir borib ko'rolmadim, buning uchun ming bor uzr. Ammo har vaqt duolarda dardmandlar qatorida sizga ham shifo tiladim. ("Shaytanat"–1. 85-b.)

⁹⁹ Adanboyeva N. Ingliz va o'zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili: Filol. fan. dok. (PhD)... diss. – Farg'ona, 2024. – B. 102.

Demak, o‘zbek tilida kechirim so‘rash tinglovchiga qanday holatda yetib borishiga bog‘liq ekan, so‘zlovchining ohangi, maqsadi, og‘zaki yoki yozma usuldaligi va hatto muloqot joyi ham muhim komponent hisoblanadi¹⁰⁰.

Lekin har doim propozitsiya tarkibida kechirim semasini ifodalovchi lingvistik vositalar qo‘llavermaydi, kechirim akti prosodik va kinestetik vositalar orqali ham ifodalanishi mumkin:

Zohid “balki, arvohlarga ham pul zarur bo‘lib qolgandir”, deb o‘ylab, hujjatlarni boshliqqa uzatdi:

– *Kollektivda obro‘sni baland ekan-ku, kollektiv bu baobro‘ odamning o‘limidan bexabar qolibdi-da, a?*

Boshliq hijolat bo‘lganday boshini egdi:

– *Kadrlar bilan o‘rinbosarim shug‘ullanadi. Bexabar qolibman, uzr.*

(“Shaytanat”–I. 103-b.)

Bu kontekstda boshliqning “boshini egishi” kinestetik vosita bo‘lib, rasmiy muloqotda aybini tan olish olish orqali suhbatdoshiga hurmat ko‘rsatganligini ifodalagan hamda “bexabar qolibman, uzr” jumlesi past ohang (prosodik vosita) bilan aytilgani ham muloqotni yumshatishga sabab bo‘lgan.

Turli madaniyatlarda boshni egish har xil talqin qilinishi mumkin. O‘zbek madaniyatlarida bu hurmat, kechirim so‘rash, afsuslanish ma’nolarni anglatsa, Yaponiyada boshni egish “milliy etiket” sifatida qabul qilingan, o‘zaro hurmatni ifodelaydi.

VII. *Shaxssizlashtirish substrategiyasi* muloqotda “men”, “sen” olmoshlarini qo‘llamaslik orqali amalga oshiriladi, bu substrategiyada, asosan, suhbat davomida shaxsiy ta’sirni kamaytirish va bevosita murojaat qilishdan qochish uchun qo‘llanadi, natijada noqulaylik va tushunmovchiliklarni oldi olinadi:

– ... *Siz ham kuyovingiz bilan maslahatlashing. Xo‘p, desangizlar, tilxat berasizlar.*

–Tilxat?! – Sharif cho‘chib tushdi. – Shunchalik og‘irmi?

¹⁰⁰ S. Turdonova, Ingliz va o‘zbek tillarida “Kechirim” so‘rash nutq aktlari: o‘xshash va farqli jihatlari // Miasto przyszlosc. 2024. – B. 72-78. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/3321/3081>

– *Og’irligini aytdim... Hayotini saqlab qolishning boshqa yo‘li yo‘q. Ikkala oyog‘ini kesish kerak...*

... ikkala oyog‘ini kesish kerak...

Sekin aytilgan bu gap Sharifning nazarida momaqaldiroq kabi gumburlab, vujudini larzaga soldi. (“Zulm” hikoya, 39-b.)

Yuqorida shifokor bilan bemorning qarindoshi o‘rtasida suhbat aks etgan bo‘lib, shifokorning asosiy kommunikativ niyatini shaxsi noma’lum gap bilan ifodalagan, bu esa to‘g‘ridan to‘g‘ri javobgarlikni, bemor yaqinlariga xabar yetkazishda emotsional ta’sirni – stress va keskinlikni – kamaytirishga, xizmat qilgan.

O‘zbek jamiyatida hurmat, katta-kichik orasidagi odob-axloq qoidalari va muloqotda rasmiylik muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli shaxssizlantirish substrategiyasi yoshi ulug‘lar bilan muloqotda, og‘ir va noqulay vaziyatlarda, rasmiy (boshqaruv va rahbarlik) suhbatlarda ko‘p qo‘llanadi.

O‘zbek tilida bu substrategiyani amalga oshirishda 1) *shaklan III shaxsni ifodalovchi majhul nisbatdagi fe’llar – borilsin kabi; 2) bo‘lmoq ko‘makchi fe’lini shaxssizlantirish – bu ish bo‘lmaydi; 3) egalik qo‘shimchalarisiz qo‘llangan harakat nomi+modal so‘zlar bilan – bajarish kerak; 4) jo‘nalish kelishigi formasidagi egalik qo‘shimchalarsiz harakat otidan keyin “tog‘ri+kel” tipidagi¹⁰¹ va 5) shaxsi umumlashgan jumlalarni keltirish kabi bir qancha lingvistik vositalardan foydalilanadi.*

VIII. Ijtimoiy yuzga tahdid soluvchi harakatni umumiyl qoida sifatida ko‘rsatish substrategiyasi. Ijtimoiy yuzga tahdid qiluvchi harakatni (FTA – Face Threatening Act) umumiyl qoida sifatida bayon etish orqali so‘zlovchi ham tinglovchini, ham o‘zini ma’lum bir majburiyat va javobgarlikdan ozod etishi mumkin. Bu usulda adresant illokutiv aktni shaxsiy imperativ yoki talab sifatida emas, balki rasmiy ish joylarida (davlat idoralari, tibbiyot maskanlari, ta’lim muassasalari, jamoat transporti va umumiyl xizmat ko‘rsatishda) tartib-intizomga

¹⁰¹ G‘ulomov A., Asqarova M., Hozirgi o‘zbek adabiy tili.– Toshkent: O‘qituvchi, 1965. – B.174.

yoki diniy majburiyatlarga amal qilishni eslatish, ogohlantirish orqali namoyon bo‘ladi:

Balki ...xotini chiqquncha o‘likxonada tura tursinmi?

– *Mumkin emas, – dedi Muhammad Abdulloh uning gapini bo‘lib. – Mayit tili gotmay turib qabrga qo‘yilishi shart.*

– *Unda ... hukumatning o‘zi ... yoqib, kulini ko‘mib qo‘ya qolar? Egasiz o‘likni shunday qilishadi, deb eshituvdim.*

– *Astafirulloh! – deb yubordi Muhammad Abdulloh . – Nega unday deysiz, birodar?! Nega egasi bo‘lmas ekan? Musulmonchilikda o‘lik kuydirilmaydi. Masjidimiz jamoati janoza o‘qib, musulmonlar mozoriga o‘zi dafn etadi.*

(“Eng kichik jinoyat” qissa, 126-b.)

Bu kontekstda Muhammad Abduloh bevosita “*mumkin emas*” deb aytgan bo‘lsa ham, ammo bu shaxsiy nuqtayi nazar sifatida emas, balki diniy qoidaga asoslanib javob bergan, chunki Islom dinida mayitni imkon qadar tezroq ko‘mish zarurligi haqida aniq ko‘rsatmalar mavjud¹⁰². Demak, masjid imomining nutqida qo‘llangan bu strategiya shaxsiy javobgarlikni kamaytirish, rasmiylik va neytrallikni ta’minlash, tushunmovchiliklarni oldini olish, muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, madaniy hamda diniy qadriyatlarga hurmat saqlash kabi jihatlarni namoyon etgan hamda bu usul imomning fatvolarini, nasihatlarini tinglovchilarga samarali, tushunarli tarzda yetkazishga yordam beradi.

Ijtimoiy yuzga tahdid soluvchi harakatni umumiyl qoida sifatida ko‘rsatish substrategiyasida ham shaxssiz, shaxsi umumlashgan gaplardan foydalанилиши bilan *shaxsizlashtirish strategiyasi* (7-strategiya)ga o‘xshab ketadi, ammo shaxsiy kommuniktiv niyatni emas, balki ma’lum bir sotsiumga xos umumiyl tarqib-qoida, majburiyalarni eslatib o‘tishi bilan farqlanadi.

IX. Nominalizatsiya substrategiyasi. Nominallashtirish fe’l yoki sifatlarni otlarga aylantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu uslub yozuvchilarga asosiy g‘oyalar yoki tushunchalarning ahamiyatini ta’kidlab, yanada rasmiy ohang yaratishga

¹⁰² Shayx Yusuf Shabbir // <https://islamicportal.co.uk/importance-of-early-burial/>, 2018.

imkon beradi¹⁰³. Bu haqida tilshunos olim A.Nurmonov transformatsiya qoidasi alohida turi sifatida nominalizatsiya ajratilishini va bunda yadro gap kesimidagi kesimlik shaklining yo‘qotilishi transformatsiya vositasi hisoblanishini yozadi.. *Masalan, Dars boshlandi – darsning boshlanishi kabi*¹⁰⁴. Demak, ko‘pincha predikat pozitsiyasining zaiflashishi¹⁰⁵ natijasida ot bajara oladigan sintaktik konstruksiya (harakat nomiga) aylanadi. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositaga o‘tishi samarali, professional va kompleks muloqotni ta’minlash, ijtimoiy maqom va rollarni ifodalashda katta ro‘l o‘ynaydi. Nominalizatsiya yordamida jumlalar rasmiy uslublarning yozma shaklida keng qo‘llanadi, bu esa tinglovchilarda adresantning yuqori sotsial maqomi, bilimdonligi haqida tasavvur uyg‘otadi.

Og‘zaki so‘zlashuv uslubida ham bu strategiya faol qo‘llanadi:

...*Dilobar oradagi siniqlikni ko‘tarish uchun gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo‘ldi:*

– *Yangi she’ringizmi?*

– *Yo‘q, – Anvar boshini ko‘tarmay javob berdi, – Asqar Qosim degan shoirniki. Taqdirim o‘xshaydi, ammo she’riyatiga yetishim mushkul. Balki, umrim ham o‘xshar.*

– *Umrim?.. U odam tirikmi?*

– *Yo‘q ... o‘zini osgan.*

Dilobar titrab ketdi.

– *Osgan?*

– *Ha.*

– *Nimaga?*

– *Buni tushunishingiz qiyin. Oxirgi she’rini aytaymi?*

– *Ayting. (“Shaytanat”–1. 43-b.)*

¹⁰³ S.Shermatova, Z. Fozilbekova. The role of nominalization in scientific writing // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023. № 3. – Pp. 495-498.

¹⁰⁴ Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Тошкент: Таълим, 2009. – Б. 118.

¹⁰⁵ Ziyodullayev N. Nemis va o‘zbek tillaridagi ot so‘z turkumining qiyosiy tahlili. – Тошкент. 2023. – Б. 7-10.
<https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/9743/7067>

Ushbu dialogdagi Anvar nutqining ikki o‘rnida nominalizatsiyalashish substrategiyasidan foydalanganini 2.3.3-jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

2.3.3-jadval.

Nominalizatsiya substrategiyasining nutqdagi ahamiyati.

№	Nominalizatsiyalashgan	Nominalizatsiyalashmagan
1.	<i>She’riyatiga yetishim mushkul.</i>	<i>She’riyatiga yetolmayman.</i>
Farqi	Gapning ma’nosи abstract, sof fe’lning harakat nomiga aylanishi gapning rasmiy darajasini oshirishga xizmat qilgan.	Sof fe’l shakli qo’llangan bo‘lib, struktura oddiy, mazmun aniq ifodalangan.
	Adresant o‘z fikrini qat’iy yoki aniq ifodalashdan qochgan, tinglovchi bilan ijtimoiy masofa borligini ko‘rsatadi.	Bu aniq ifoda bo‘lib, ko‘pincha adresat bilan yaqin munosabatga ega bo‘lgan norasmiy holatda bevosita va ochiq muloqotda qo’llanadi.
	Muloyim va yumshoq ton, ehtiyyotkor tarzda aytildi.	Ochiq, bevosita
2.	<i>Buni tushunishingiz qiyin.</i>	<i>Buni tushunmaysiz.</i>
Farqi	Adresant tinglovchining tushunish qobiliyatini bevosita shubha ostiga olmaydi, balki tushunish jarayonini qiyin ekanini ehtiyyotkorona yetkazishni niyat qilgan, bu orqali adresatga bo‘lgan hurmat va ehtiromni namoyon etadi. Salbiy yuziga tahdid solmaydi. (Qolgan belgilar yuqoridagi gap tahlili kabi)	Ushbu ifoda bevosita aytildi bo‘lib, tinglovchining tushunish qobiliyatini bevosita shubha ostiga oladi, adresatni noqulay vaziyatga solishi, kelishmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Xushmuomalalik darajasi past, salbiy yuzga tahdid solish ehtimoli yuqori. (Qolgan belgilar yuqoridagi gap tahlili kabi)

X. Qarzdorlik hissi yoki qarzdan holi qilish¹⁰⁶ substrategiyasi. So‘zlovchi tinglovchining oldida o‘z qarzdorligini his qilishi yoki, aksincha, qarzdor qilmaslik orqali ijtimoiy yuzga tahdidni yumshatadi. Adresant tinglovchiga yordam so‘rab murojaat qilganda, o‘z minnatdorchilagini ham ifodalaydi, bu yaxshilik uchun qarzdor ekanligini namoyon etadi. Bu esa o‘zaro hurmatni saqlashga xizmat qiladi. O‘zbek madaniyatida kimgadir yordam bergandan so‘ng unga majburiyat (qarzdorlik)ni yuklamaslik keng tarqalgan:

– ...Ot-bola ikkita uy olsalaringiz masala halmi?

¹⁰⁶ Brown P. and Levinson S. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 210.

Qamariddin Asadbekning maqsadini anglab o‘ng‘aysizlandi:

- *Bek aka, shu joyni olib qo‘ya qolganingiz yaxshi edi bizga.*
- *Menga uy kerakmas, – dedi Asadbek qat’iy tarzda, keyin samimiy ohangda qo‘shib qo‘ydi:*

– *Menga qo‘shni kerak.*

– *Rahmat, Bek aka, o‘zi... sizning oldingizda hijolat edim.*

– *Nega hijolat bo‘lasiz? Siz bilan bizning oramizda gap-so‘z bo‘lishi mumkinmas.* (“Shaytanat” – 4. 164-b.)

“Shaytanat” romanining bosh qahramoni Asadbek bilan Qamariddin o‘rtasidagi suhbatda qarzdorlik hisi implikatsiya orqali ifodalangan, ya’ni “*Rahmat, Bek aka, o‘zi... sizning oldingizda hijolat edim*” jumlasida qo‘llangan pauza (to‘xtam) oldin ham Asadbek unga ko‘p yaxshliklar qilganiga ishora qiladi. O‘zaro kuch va masofa farqli bo‘lgani uchun adresant hijolatda ekanligini ehtiyojkorlik hamda hurmat bilan so‘zlagan. Amma Asadbekning “*Nega hijolat bo‘lasiz? Siz bilan bizning oramizda gap-so‘z bo‘lishi mumkinmas*” deya aytgan gapi Qamariddinni qazrdorlik hisidan holi qilish uchun aytilgan.

Demak, *qarzdorlikdan holi qilish substrategiyasi* kommunikatorlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga, adresatni noqulay vaziyatda qolishidan saqlashga va o‘zaro hurmatning oshishiga xizmat qiladi.

2.4-§. Kommunikativ niyatning implitsit ifodalovchi bilvosita substrategiyalar

Xushmuomalalik strategiyalarining yana bir turi – bilvosita (nodirektiv, yashirin) strategiya. Ushbu muloqot usulining asosiy maqsadi – xushmuomalalik va ijtimoiy muvozanatni saqlashdir. Bunda so‘zlovchi suhbatdoshini xafa qilmasdan yoki unga bosim o‘tkazmasdan, o‘z fikrini ifodalashni xohlaydi. Natijada adresant o‘z kommunikativ niyatini bilvosita nutqiy aktlar orqali ifodalaydi. Bilvosita nutqiy aktlar faqat nodirektiv strategiyada emas, balki masofaviy muqolot strategiyasida ham qo‘llana olishini yuqorida tahlil qildik.

Bilvosita yashirin kommunikativ aktida adresatning aniq bir kommunikativ maqsadini aytib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, o‘ziga “*orqaga yo‘l*” qoldiradi, ya’ni u o‘z so‘zlariga bir nechta mumkin bo‘lgan izohlarni beradi. Quyida berilgan badiiy kontekstda ham adresant shunday yo‘l tutadi:

... *Ertasiga ertalab barvaqtroq kelib, Diyorani ko‘chada qarshiladi.*

– *Yana sizmi? – dedi Diyora uning salomiga alik olmay.*

– *Kecha bir narsani oxirigacha bilmay ketvoribman, – dedi Olim, shunday deb kaftini bir ochib-yopdi. Ko‘z dollarni ko‘rganida har qanday odamning ko‘zi o‘ynaydi, ishonuvchi Olim maqsadga o‘ta boshladi: – Bilasizmi, opajon... gap shundaki... agar narkoz keragidan ko‘paytiribroq berilsa-chi? Chiqimidan qochmas edim... Qattiqroq uxlasa dedim... Uxlas-yu... Qattiqroq uxbab qolsa... Keyin o‘shanaqasi ketvorishi mumkinmi?*

– *Bu nima deganingiz? Esingiz joyidami? – Ahmoq ekansan! – dedi nafrat bilan. – Basharang qursin vahshiy! Benomus! Odammisan ozing?! Yer yutsin seni!..*

– *Qarg‘amang, opajon, nega qarg‘aysiz?*

... *Nima deganingni bilasanmi o‘zing?..*

– *Nima debman? – dedi Olim pulni cho‘ntagiga solib. – Operatsiya paytida uyg‘onib ketmasin, narkozni ko‘proq bersangiz qiyalmasmidi, deb maslahat soradim. Shunga shunchami?*

– *Xo-o... meni go‘l, kaltafah deb o‘ylayapsanmi?..*

– *Onangni uyimi bu yer, e shallaqi! Men seni sinamoqchi edim. To‘g‘ri ishlash-ishlamasligingni bilmoqchi edim. Agar xotinimga biror nima bo‘lsa, onalariningni ko‘rsataman?.. (“Zulm” hikoya, 57-b)*

So‘zlovchi o‘z harakatining faqat bitta aniq izoh berishga majbur bo‘lmaydi va u yuzni yo‘qotish xavfi (FTA) bo‘lgan harakatni amalga oshirmoqchi bo‘lsa ham, lekin buning uchun javobgarlikdan qochishni xohlasa, u buni yashirin tarzda qilishi mumkin, bu izohni qanday tushunish esa tinglovchiga bog‘liq bo‘ladi. So‘zlovchi umumiyoq va noaniq narsani aytadi (unda kamroq ma’lumot bo‘ladi, chunki bu kamroq mumkin bo‘lgan holatlarni istisno qiladi) yoki so‘zlovchining

aytmoqchi bo‘lganidan (tushunilishi kerak bo‘lganidan) boshqacha narsani aytadi. Har qanday holatda ham, tinglovchi so‘zlovchining aslida nimani nazarda tutganini aniqlash uchun kogniktiv bilim talab etiladi. Demak, bevosita strategiyada qo‘llangan ifodalar turli xil anglashiladigan ma’nolani beradi va shu bilan birga adresantni aniq bir talqinga bog‘lamasdan, uning javobgarligini zimmasiga olmaydi. Adresatga adresantdan kelayotgan xabarni qanday qabul qilish mas’uliyati yuklanadi. Bu bilvosita ishlatilish formal ma’noga emas, balki kontekstda lingvistik strategiyalarga tegishlidir.

Bilvositalik lingvistikada implitsitlik termini bilan kesishadi, ammo ikkovi bitta tushuncha emas. Implitsitlik til vositalarida bevosita ifodalanmagan, tinglovchi tomonidan nutqiy tuzilmaning voqelanish sharotlari hamda eksplitsit ifodalangan ma’no hamkorligidan kelib fahmlanadigan pragmatik birlikdir bo‘lib, u nutqiy akt illokutiv funksiyasi ko‘rsatkichlari formal ifodalanmaganligida bilinadi¹⁰⁷. Demak, bilvosita strategiya yashirin ma’nolarga asoslangan xushmuomalalikni ifodalovchi usullar majmui ekan.

Qator tadqiqotchilar suhbat davomida bilvosita nutq aktlaridan foydalanish shaxsning til va nutq kompetensiyalari rivojlanganligini ko‘rsatishini ifodalagan. Xususan, rus olimasi O.S.Issers shaxs nutqdagi implitsit, ya’ni yashirin ma’nolarning qo‘llanishi ushbu shaxsning til kompetensiyalarining yuqori ekanligidan dalolat berishini aytadi, D.Syorl esa bilvosita nutqiy aktlarni boshqa ma’noda tushuniladigan gaplar sifatida ta’riflaydi. Bilvosita gaplar tadqiqiga hozirgi kunda katta e’tibor qaratiladi. Jumladan, bilvosita, ya’ni ko‘chma ma’no nutqiy aktlarning pragmatik jihatdan talqiniga D.Syorl, V.G.Gak, R.B.Shilenko kabi tadqiqotchilar o‘z e’tiborini qaratgan¹⁰⁸.


O‘zbek tilshunosligida Sh.Safarov, M.Hakimov, N.Qazaqova tadqiqotlarida bilvosita nutqiy akt haqidagi nazariy malumotar uchraydi, ammo kontekstda xushmuomalalikni amalga oshiruvchi strategiyalar yig‘indisi sifatida sotsiopragmatik aspektda hali alohida o‘rganilmagan.

¹⁰⁷ A. Shamahmudova. Zamonaliviy tilshunoslikda bilvositalik va implitsitlik tushunchalari. Xorijiy fiologiya. 1/2017. – B. 86 - 90.

¹⁰⁸ N. Xoshimova. Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi. FarDU ilmiy xabarlar. 2022/3.– B. 184 -186.

Kommunikativ maqsad – intensiyani botiniy, yashirin holda yoki bilvosita ifoda etish barcha millatlarga xosdir. Ammo bilvosita nutqiy aktlarning tasnifiy guruhlari va ularni ifodalovchi lisoniy shakllar qatori turli tillarda bir xil ko‘rinishga ega bo‘lmaydi¹⁰⁹. Demak, bilvosita strategiyani hosil qiluvchi vositalarning barcha turi har bir sotsiumga birdek xos bo‘lavermaydi, ma’lum bir usulni qo‘llash yetakchlik qilsa, ayrimi kamdan kam qo‘llanadi.

Bu strategiya so‘zlovchi tomonidan qo‘llanadigan qochiriq, sarkazm, kinoya, mavhumlik (fikrni to‘liq ifodalamaslik), imperisonalizatsiya kabi “ilmoqli birliklar” orqali shakllanadi, bu esa tinglovchidan ziyraklik talab etadi¹¹⁰. Quyida biz bilvosita xushmuomalalikni namoyon etuvchi bir nechta substrategiyalarni Tohir Malik asarlarida qo‘llangan suhbatlar orqali tahlil qilamiz:



2.4.1-chizma. *Bilvosita (nodirektiv) xushmuomalalik substrategiyalari*¹¹¹

Badiiy asarda bilvosita/nodirektiv (off record) strategiyasining qo‘llanilishi nutq aktlari nazariyasining bilvosita (indirect) ifoda shakllari bilan chambarchas

¹⁰⁹ Шамахмудова. Билvosita нутқий актларни талқин этиш тамойиллари (этнопрагматик омиллар). Хорижий филология. №4, 2017 йил. – Б.83-87.

¹¹⁰ Турдиева X. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Тошкент, 2020. – Б. 22.

¹¹¹ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 211-227.; Турдиева X. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.фалсафа доктори (PhD)... дисс. –Тошкент, 2020. – Б.22.; Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyalarining shartlanishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)...avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 14-15.; Xolova B. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot, 2023. – B. 18 -19.

bog‘liq bo‘lib, lisoniy struktura va kommunikativ maqsad o‘rtasidagi nomutanosiblik bilvosita nutqiy harakatni yuzaga keltiruvchi ko‘rsatkichdir¹¹². Haqiqiy bilvosita mazmun ifodalanishi uchun so‘zlovchi biror narsaga ta’ma yoki ishora qilishi kerak¹¹³.

Bilvosita strategiya, xususan, “Ishoralar berish” usuli, so‘zlovchi tomonidan ochiqdan ochiq aytilmagan, lekin kontekstual bilish orqali tushunilishi kutilgan ma’nolarni yaratadi. Bu usul pragmatik implikatura orqali amalga oshiriladi, ya’ni tinglovchi so‘zlovchining bilvosita ifodasidan yashirin niyat yoki ma’no chiqarib oladi. Bunday bilvosita ifodalar, xususan, badiiy asarlarda qo‘llanganda personajlarning ijtimoiy mavqeyini, ularning bir-biriga bo‘lgan munosabatini va muloqotning murakkabligini oolib beradi. Bu holat nutq aktining bilvosita turi sifatida, adresant va adresat o‘rtasidagi kommunikativ hamkorlikni talab qiladi, chunki bilvosita ma’no to‘g‘ri talqin qilinishi uchun kontekst, tinglovchining dunyoqarashi, bilimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tohir Malikning asarlari o‘zining murakkab syujeti, chuqur psixologik tasvirlari va nozik ijtimoiy munosabatlari bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarda personajlar o‘rtasidagi muloqotning xilma-xil shakllari va nutq strategiyalari keng qo‘llaniladi, bu esa ularning xarakteri, ijtimoiy mavqeyi hamda ichki dunyosini oolib beradi. Xususan, bilvosita muloqot shakllari yozuvchining qahramonlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni nozik tarzda ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu strategiyalar orqali yozuvchi personajlarning yashirin niyatlarini, qiyin vaziyatlardagi ehtiyyotkorligi va boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlaridagi murakkabliklarini tasvirlaydi. Uning asarlarida bilvosita nutq substrategiyalari yordamida ifodalangan qahramonlarning ichki qarama-qarshiliklari, ularning qaror qabul qilish jarayonlari va ijtimoiy muhit bilan moslashuvchanligi o‘quvchini chuqur o‘ylashga undaydi. Bu paragrafda biz Tohir Malikning asarlarida nodirektiv strategiyalarining bir nechta turlarining qo‘llanishini badiiy kontekst misolida tahlil qilamiz:

¹¹² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 99.

¹¹³ Сафаров Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 104.

I. Ishora (shama) qilish substrategiyasi. Muloqotda so‘zlovchining bilvosita yo‘l bilan o‘z niyatini ifodalash usuli bo‘lib, bu orqali u tinglovchidan kontekstual ishoralar va umumiylarga bilimlarga asoslanib to‘g‘ri xulosa chiqarishni kutadi. Bu substrategiya tilshunoslik nuqtayi nazaridan oddiy so‘zlar va deklarativ jumlalar orqali amalga oshirilsa, pragmatik jihatdan yuz saqlash (face-saving) va ziddiyatlardan qochish uchun qo‘llaniladi, sotsiopragmatik jihatdan esa bu usul ijtimoiy munosabatlarni saqlash, ijtimoiy yuzni hurmat qilishni ta’minlaydi, ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda bevosita talab yoki buyruq berish noqulay bo‘lgan vaziyatlarda juda foydali bo‘ladi. Umuman olganda, bu substrategiya muloqotda yumshoqroq va moslashuvchan usulni taqdim etadi:

– *Aylanay ovsin, avval hech kimim yo‘q edi, o‘lsam kim ko‘markin deb tashvishlanardim. Xudoga shukur, hozir bolalarim bor. Bir amallab tepkilab-tepkilab qo‘yishar. Bu yo‘g‘idan ham endi xotirjamman. Kurort sal serchiqim ko‘rinarkan. Uydagi pulim yetmasa kerak, shuning uchun sizni bezovta qildim.*

– *Qarz kerakmi? Xo‘p, adalari kelsinlar, maslahat qilib ko‘rarmiz. Sarvi bu gapni keskinroq ohangda, “bizdan qarz so‘ramaganingizga ma’qul edi”, degan ma’noda aytdi. Ko‘paysin uning maqsadini tushunib, ma’yus kulimsiradi.*
– *Yo‘q, qarz kerakmas... O‘limimga atab to‘plagan pulimni sizga berib qo‘ygan edim. Shuni bera qolsangiz... Ko‘nglim sezib turibdi, hali-beri o‘lmayman. Bu yili kasalim butunlay tuzalib ketdi.* (“Oqibat ul-amr” hikoya)

Bu matndan ko‘rinadiki, “o‘limlik puli” an’anasi ko‘plab musulmon jamiyatlarida diniy e’tiqodlar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu pul odatda insonning vafotidan keyin uni dafn qilish va boshqa diniy marosimlar uchun o‘lim oldidan yaqinlariga yoki ishonchli kishilarga topshiriladi. Ko‘paysinning ham Sarviga “o‘limligi” ni ishonib topshirgani uning yaqin qo‘snnisi sifatida diniy e’tiqodlari va vazifalarini tushunishini anglatadi. Aynisqa, kontekstda bilvosita strategiyasining qiziqarli bir holati kuzatiladi. Ko‘paysin o‘z niyatini bilvosita tarzda ifodalagan bo‘lsa-da, Sarvi uning kommunikativ niyatini to‘liq tushunmagan. Bu yerda ikki xil pragmatik niyatlarning to‘qnashuvi sodir bo‘ladi, chunki adresantning bilvosita ifodasi tinglovchining noto‘g‘ri xulosasiga olib

keladi. So‘zlovchi (Ko‘paysin) o‘z pulining qolmaganini aytib, “*O‘limimga atab to‘plagan pulimni sizga berib qo‘ygan edim*” deya Sarvidan o‘sha pulni qaytarishni so‘raydi. U bu so‘rovni bevosita aytmasdani, bilvosita yo‘l bilan yetkazadi. Ammo qo‘shnisi bu ishorani noto‘g‘ri talqin qiladi va undan qarz so‘rayotgan deb o‘ylaydi.

Demak, bu muloqot usuli suhbatni yumshatib muloyim qilibgina qolmay, kommunikatorlar orasidagi ijtimoiy yuz (hurmat)ni saqlashga xizmat qiladi. Ammo bilvosita ifodalashda kommunikativ xatolar yuzaga kelishi mumkinligin yuqoridagi kontekst tahlilida kuzatdik. Natijada ba’zan bunday muloqot tushunmovchilikka olib keladi, chunki tinglovchi so‘zlovchining asl niyatini anglamaydi. Ushbu holat muloqotda bilvosita strategiyalardan foydalanishda, ayniqsa, murakkab yoki nozik vaziyatlarda, ehtiyyotkorlik bilan yondashish kerakligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu holat pragmatik strategiyalarning qanday ishlashi va qanday tushunilishi haqida chuqurroq o‘ylashga undaydi.

II. Assosiativ ishoralar berish substrategiyasi. Assotsiativ munosabat – lisoniy (lingvistik) birliklarning so‘zlovchi xotirasida o‘zaro bog‘liq munosabati¹¹⁴ bo‘lib, nodirektiv strategiyada adresant bu munosabat asosida biror harakat yoki hodisa ishora qilib, tinglovchidan o‘zaro umumiy bilim va tajribasiga tayanib o‘z kommuniktaiv niyatni ro‘yobga chiqarishini kutadi. Bunday assotsiativ munosabat propozitsiyada aks etmaydi, natijada adresatdan ziyraklik talab qilinadi. Kommunikatorlar o‘rtasida o‘zaro oldindan ma’lum bo‘lgan munosabatlarga asoslangan holda so‘zlovchi yashirin illokatsion aktni verbal yoki noverbal vositalar orqali fikrini bayon etadi:

Asadbek ko‘pincha dam xursandchiligida, dam ko‘ngliga qil sig‘may qolganida Jalilni yo‘qlatardi. Yo‘qlov borganda u “xo‘jayiningning kayfiyati qandoq?” deb so‘raydi. “A’lo” degan javobni eshitsa, “Meni ko‘rmoqchi bo‘lsa, o‘zi kelsin” deydi. “Chatoq” deyilsa, “Sen ketaver, meni onam mashina tug‘magan, avtobusda boraman”, deb yo‘lga otlanadi. Asadbekning bugun – 31-


¹¹⁴ Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Тошкент: Тайлим, 2009. – Б. 34

dekabrda chaqirtirgani uni ham ajbalantirdi, ham bir oz tashvishga soldi. Shu sababli yuborilgan mashinaga o‘tirib kelaverdi.

– Ha, ukam, tinchlikmi? – dedi Jalil, fotiha o‘qilgach.

Asadek asta “ha” deb bosh irg‘ab qo‘ydi. U Jalilni chaqitirishga chaqitirib, gapni nimadan boshlashni bilmay garang o‘tirardi. (“Shaytanat”–I. 16-b.)

Kontekstning tahlili oldidan dialogda qatnashgan pragmatik birliklar uchun quyidagi 2.4.2-chizmani taqdim etamiz:



2.4.2-chizma. Pragmatik birliklar uchligi

Bu badiiy parchada bir nechta assotsiativ ishoralar mavjud, referensiyada “*a’lo*” va “*chatoq*” so‘zlari – Asadbekning kayfiyati yaxshiligidan yoki yomonligidan darak bersa-da, asl perlokutsiya Jalilning ko‘ngli xotirjam tortishi va aksincha, do‘sti uchun qayg‘ura boshlashidir. Ammo bu safargi chaqiruv oldingilaridan farqli – 31-dekabr sanasida chaqirilgani bilan xarakterlanadi. Nutqiy muloqot maydonining asosiy belgilovchi “o‘q”¹¹⁵ vazifasini bajaruvchi “31-dekabr” assotsiativ ishorasi – zamon deyksis birligi hisoblanadi.

Voqelikda kechayotgan hodisalar bayonida va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davri, paytini ko‘rsatish muhimdir. Bunday ko‘rsatish vazifasini

¹¹⁵ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008 . – Б. 170.

zamon (vaqt) deyksisi vositalari bajaradi. Zamon yoki temporal deyksisi ifodalovchi vositalar voqeа sodir bo‘layotgan hech qanday paytni ko‘rsatmasdan, balki biror bir nutqiy akt ijrosidan oldingi yoki keyingi davrga ishora qiladi¹¹⁶. Yuqoridagi kontekstda qo‘llangan zamon deyksisi oddiy bir sana emas, balki Asadbek hayotida muhim voqeaga ishora qilishidir. Do‘sti Jalil esa bu sana bilan bog‘liq voqealardan – otasining “xalq dushmani” sifatida olib ketilgani, o‘sha paytda Asad juda kichkina bola bo‘lganligi, uyda yolg‘iz o‘zi qolib ketgani, onasi ham ukasi Samandarni dunyoga keltirish uchun tug‘ruqxonaga ketganligidan xabardor bo‘lgani uchun hech ikkilanib o‘tirmay do‘stini ko‘rgani borishni paysalga solmadi. Bu kabi kontekstda shaklan o‘z ifodasini topmagan pragmatik axborotlar tilshunoslikda presuppozitsiya termini bilan ataladi. Presuppozitsiya asosiy hollarda gapda muayyan til birligining ishorasi asosida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. So‘zlovchi obyektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi. Presuppozitsiyaning gapda ifodalanishi muayyan nutqiy vaziyatni, nutq egalarining til ko‘nikmalarini taqozo etadi. Nutq egalarining til ko‘nikmalarini, ularning nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari presuppozitsiyaning tushunarli bo‘lishiga imkon beradi¹¹⁷.

Pragmatik hodislardan yana biri implikatsiya bo‘lib, bilvosita strategiyani amalga oshirilishining asosiy vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Implikatsiya bu gapda yoki matnda ochiqchasiga aytilmagan, lekin kommunikatorlar tomonidan tushunilishi kerak bo‘lgan yashirin ma’nodir. Yuqorida implikatsiya – “bu kun qayg‘uli” deb aytilmagan, ammo Jalil bu sananing Asadbek hayotidagi og‘ir voqeа bilan bog‘liq ekanligini, do‘stining holati yaxshi emasligini va tezda yetib borish kerakligida ko‘rinadi. Tahlilni yanada kengroq tushunishimi uchun quyidagi 2.4.1-jadvalni taqdim etamiz:

¹¹⁶ Сафаров Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 191.

¹¹⁷ Yusupjanov E. Lingvistik presuppozitsiya pragmatik muammo sifatida yuzaga kelishi va o‘rganilishi// Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 2021. – B. 260-266.

2.4.1-jadval.

Assosatsiativ ishoralar berish substrategiyasi

№	Aspekt	Sotsiopragmatik tahlil
1.	Muloqotning asosi	<p>Ijtimoiy rollar, mavqe va madaniy qadriyatlar muloqotning asosini tashkil etgan bo‘lib, Jalil Asadbekning yaqin do‘stisifatida uni qo‘llab-quvvatlash rolini bajargan.</p> <p>Muloqot presuppozitsiya va implikaturalarga asoslangan. Asadbekning 31-dekabr kuni otasidan ayrilganligi ishora qiluvchi vaqt deyksigi orqali Jalilga oldindan ma’lum presuppozitsiya kommunikatorlar o‘rtasida assotsiativ ishora vazifasini bajargan. Tinglovchining ijobiy va salbiy yuzini saqlash – Jalilning muloqotdagi asosiy maqsadi. U Asadbekning ruhiy holatini tushunishga va uni hurmat qilishga harakat qilgan.</p>
2.	Kontekstning ahmiyati	<p>Madaniy va ijtimoiy omillar muloqotdagi konteksti belgilaydi. Asadbekning otasidan ayrilgan kunni Jalil biladi, bu esa madaniy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan badiiy kontekstdir. Jalilning “Ha, ukam, tinchlikmi? “ deb so‘rashi – propozitsiya so‘roq aktida namoyon bo‘lgan, ammo aslida Asadbekning ruhiy holatini tushunishga qaratilgan implikatsiyada hamdardlik akti yashiringan. Vaziyatga qarab xushmuomalalik strategiyalari qo‘llaniladi. Jalilning harakatlari va so‘zlari kontekstga mos ravishda ehtiyyotkorlik bilan tanlangan.</p>
3	Ijobiy yuz	<p>Ijtimoiy qadriyatlarni hurmat qilish va ijtimoiy rollarni saqlash bu muloqotning asosiy jihatlaridan biridir. Jalil Asadbekni hurmat qiladi va uning holatini inobatga olgan.</p> <p>Asadbekning qayg‘uli holatini tushunish va uni qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatish Jalilning asosiy maqsadi bo‘lib, bu ijobiy yuzni saqlash strategiyasining bir qismidir.</p>
4	Salbiy yuz	<p>Shaxsiy erkinlik va ijtimoiy hududni hurmat qilish Jalilning asosiy muloqot strategiyasining bir qismidir. U Asadbekning “shaxsiy hududi” ga kirib ketmaslikka intilgan. Bu esa bosim o‘tkazmaslik, uning shaxsiy hududini hurmat qilish xushmuomalalik nazariyasiga mos bo‘lib, do‘stining bu harakati Asadbekning salbiy yuzini saqlashga yordam bergen</p>
5	Yuzni yo‘qotishdan saqlanish	<p>O‘zbek madaniyatida ham yaqin do‘stiga nisbatan sodiqlik, mehr-muhabbat, yaxshi kunida ham, yomon kunida ham birga bo‘lish qadrlanadi. Jalil suhbatda Asadbekning his-tuyg‘ularini hurmat qilib, noqulay vaziyatdan saqlanishga harakat qilgan. Bu esa yuzni yo‘qotishdan saqlash strategiyasining bir qismidir.</p>

Demak, assotsiativ ishoralar orqali bilvosita so‘rovlар muloqotda xushmuomalalikni saqlashga xizmat qiladi. So‘zlovchi bevosita talab qo‘ymay, bilvosita yo‘l bilan tinglovchiga ma’lum bir harakatni amalga oshirishni anglatadi. Bu usul adresatga so‘zlovchining niyatini tushunish va javob berish imkonini beradi, shu bilan birga yuz saqlash (face-saving) tamoyillarini ta’minlaydi. Ushbu strategiya madaniyatlararo muloqotda odobsizlikdan qochish va muloqotni yumshoqroq qilish uchun juda samarali.

III. Tahmin qilish substrategiyasi. Bu substrategiya so‘zlovchining niyatlarini yashirin tarzda yetkazadi va odatda bilvosita tanqid yoki norozilik sifatida qabul qilinadi. Xushmuomalalik nuqtayi nazaridan bunday strategiya bevosita muloqotda qo‘llaniladigan ijobiy yoki masofaviy muloqotdagи xushmuomalalik strategiyalaridan farq qiladi, chunki u tinglovchining yuziga bevosita zarar yetkazmaslikka urinish bilan birga yashirin tarzda tanqid qilishni maqsad qiladi. Taxmin qilish substrategiyasi presuppozitsiya orqali shakllanadi, chunki so‘zlovchi o‘z nutqidagi yashirin konnotatsiyani tinglovchi ta’sir qilishini kutadi (tahmin qiladi):

– *Jo ‘ra do ‘stim, do ‘koning ochilibdi, tabriklayman! Faqat, yana bir gap bor...*

Jo ‘ra ozgina bezovtalandi, jilmayishga urindi, ammo ko ‘zlarini olib qochdi.

– *Qarzlaringni yana to ‘ladim. ...meni to ‘g‘ri tushun.*

Birinchi tasdiq nutqiy aktining (assertivning) – “*Qarzlaringni yana to ‘ladim*” jumlasining lisoniy tuzilishi ifodalanayotgan kommunikativ ma’noga mos kelganligini sababli, u vositasiz, birlamchi akt hisoblanadi. Ushbu tuzilma vositasida rekvestiv (tanqid) nutqiy akti ifodalanganda esa bilvosita (vositali), ikkilamchi akt hosil bo‘ladi¹¹⁸, ya’ni suhbatda “*yana*” so‘zidan foydalanilishi tinglovchiga ilgari ham qarz olganini va bu holat bir necha marta takrorlangani ishora qiladi, bu esa matnda implitsit ifodalangan. Adresant tinglovchini ochiqchasiga tanqid qilmaydi, lekin “*yana*”va “*oxirgisi*” kabi leksemalar orqali tinglovchiga endi bu holat takrorlanmasligi kerakligini bildirgan. Kommunikatorlar

¹¹⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 99.

orasidagi ijtimoiy masofa yaqin bo‘lgani uchun ham so‘zlovchi tinglovchining ijtimoiy yuzini saqlash maqsadida bilvosita gapirish amalga oshirgan. Bu esa tinglovchida noqulaylik hissini uyg‘otishi mumkin bo‘lsa-da, munosabatlarni saqlab qolish uchun muhim vosita sanaladi.

Presuppozitsiyaga asoslangan bilvosita strategiyalar tanqid yoki norozilikni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu substrategiya kontekst hamda umumiy tushunchalarga asoslanib, muloqotni nozik va sezilmas holda taqdim etadi. Ammo bunday tanqidlar har doim ham tinglovchi tomonidan to‘g‘ri tushunilmasligi yoki noto‘g‘ri qabul qilinishi mumkin, bu esa muloqotda noaniqlik yoki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, o‘zbek madaniyati biror kishiga qilingan yaxshilik va yordamni eslatish ko‘pincha “minnat” sifatida baholanadi. Demak, presuppozitsiya yordamida amalga oshirilgan bilvosita tanqidlar muloqotning murakkab va nozik qirralarini ta’minlaydi, lekin ularni ehtiyyotkorlik bilan ishlatalish kerak. Bu esa, tinglovchining ma’noni to‘g‘ri qabul qilishiga ishonch hosil qilish uchun muhimdir.

IV. Kamaytirish substrategiyasi. So‘zlovchi o‘z fikrini yoki xabarini to‘liq aytmasdan, yetkazishi kerak bo‘lgan ma’lumotdan kamroq darajada aytadi, ya’ni kerakli darajadagi ma’lumot yoki his-tuyg‘u bilvosita tarzda, yumshatilgan holda yetkaziladi. Kamlik semasini bildiruvchi lingvistik birliklarni qo‘llash orqali kommunikativ maqsadga erishiladi. Lekin har doim bunday birliklar ishtirok etavermaydi. Bu muloqot taktikasi nutq aktlarida implikaturaning yo‘nalishi (shkala bo‘yicha yuqoriga yoki pastga) odatda mazmunning nozik jihatlarini ta’kidlaydi va bu, o‘z navbatida, qanday qilib suhbатdoshning “ijtimoiy yuzini saqlab qolishi” mumkinligini belgilaydi.

Bu substrategiyada implikatsiya lisoniy strukturada ortiqcha ma’lumot bermay yoki axborot darajasini pasaytirib tinglovchiga ko‘proq o‘ylash yoki xulosa chiqarish uchun “maydon” qoldirilganda namoyon bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy muloqotda ortiqcha bosim, kelishmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi va shu orqali tinglovchining yuzini saqlab qolishga erishiladi:

— *Kichkinangiz sal erkaroq ekan-a?*

- *U adajonimizga, tortyapti, – dedi Munisa mahzun jilmayib.*
- *Ozgina o ‘jarligi bor. O’zinikini ma ’qul deb turib olsa, fikridan qaytarish qiyinroq... (“Zulm” hikoya, 57-b)*

O‘zbek madaniyatida bolalar juda qadrlanadi hamda ularning xulq-atvori haqida mulohaza qilish nozik masala sanaladi. Ayniqsa, birovning bolasini tanqid qilishdan qochish ota-onasiga o‘zaro hurmat belgisi ifodalaydi. Bu madaniy nuqtayi nazar quyidagi omillar bilan bog‘liq:

a) oila va jamiyatdagi o ‘rin: o‘zbek oilalarida bolalar jamiyatning kelajagi sifatida qaraladi, ularning tarbiyasi haqida ochiq tanqid qilish ota-onalar uchun og‘ir eshitilishi mumkin. Shuning uchun bu kabi holatlarda muloyim tilda gapirish odatiy holdir;

b) gender omili: so‘zlovchi ayol bo‘lgani uchun, u odatda yumshoqroq va ehtiyyotkorroq tilda muloqot qilishga moyildir. O‘zbek madaniyatida ayollar odatda farzandlar masalasida muloyim va himoya qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Bu madaniy normalarga mos ravishda ayol nutqida bolaning xulq-atvorini yumshatuvchi vosita – “sal” leksemasi bilan ifoda qilingan, “erkaroq” ijobiy semada qo‘llanuvchi leksema orqali “Bolangiz juda sho‘x ekan” ma’nodagi implikatsiya vujudga kelgan.

V. *Mubolag‘a qilish substrategiyasi (Ortirib ko‘rsatish)* past baho (kamaytirish) printsipiga teskari yo‘l bilan amalga oshiriladi, ya’ni bo‘rttirib ko‘rsatish shkaladagi nuqtani haqiqiy holatdan yuqoriroq ko‘rsatadi, ammo referensiyada ifodalangan ma’no ko‘pincha haqiqatdan ancha uzoqroq bo‘ladi.

Bu usulda so‘zlovchi biror voqeani yoki holatni haddan tashqari oshirib ko‘rsatib, aslida shu bilan nimanidir aytmoqchi bo‘ladi, lekin u buni aniq so‘zlar bilan ifodalamaydi. Bu ham nodirektiv (bilvosita) strategyaning bir qismi, chunki u ochiq-oydin aytilmagan yashirin ma’nolar – implikatsiyalarni ichiga oladi va ko‘pincha: 1) *sifat, ravish turkumining orttirma daraja shakllaridan;* 2) *o ‘nlik, yuzlik, minglik sonlari/ million + marta so ‘zini qo ‘shish;* 3) *fonetik usul (sifat tarkibidagi unlini cho ‘zish/yoki bo ‘g‘inni takrorlash);* 4) *so ‘zni takrorlash;* 5) *doim, har doim, har safar kabi so ‘zlarni qo ‘shish orqali muntazam*

takrorlanuvchi harakatlarni ko‘rsatish; 6) bo‘lishsizlik olmoshlarini qo‘shish ...kabi birqacha lingvistik vositalar orqali hosil qilinadi:

– *Tinchlikmi, nima bo‘ldi? Uch kun oldin qaytishingiz kerak, rosa havotir oldik?*

– *Aylanay ovsin, sizga yuz martalab telpon qildimov, hech ulanmas-ya! Norbuvin bilasiz-ku, sog‘inganman, deb hech qo‘yvormasa-ya! U tomonlarning odati ham qiziq-da. Qo‘ni-qo‘shnilarnikida galma-gal mehmon bo‘lmasangiz, juda qattiq ranjishadi! “Meni mensimadi”, deb ginaxonlik qilishadi.*

– *Eson-omon qaytibsiz, shunisiga shukur, – dedi Sarvi. (“Voy, onajonim”, hikoya, 85-b.)*

Kontekstda ikki qo‘shnining suhbati aks etgan bo‘lib, o‘zbek mentalitetida qo‘shnichilik munosabatlari juda muhim va qadrli madaniy ko‘rsatkich hisoblanadi. ”Qo‘shnichilik – mingyilchilik” degan maqol aynan shu munosabatning qanchalik ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Mana shunday yaqinlik Sarvi va Ko‘paysin muqolotida o‘z aksini topgan. Suhbatda Sarvining (adresant) qo‘shnisi Ko‘paysinga (adresat) aytgan “*Rosa havotir oldik*” qayg‘urish akti “rosa” miqdor ravishi bilan kuchaytirilgan bo‘lib, referensiya orqali juda qayg‘urganliklari bildiriladi. Ammo implitsit ifoda – implikatsiya orqali ikkilamchi ayblov, shikoyat akti anglashiladi. Aderasat “aybdorlik hisini” anglagan holda, “*Aylanay ovsin, sizga yuz martalab telpon qildimov, hech ulanmas-ya*”, “*Hech qo‘yvorishmasa-ya*”, “...*juda qattiq ranshishadi*” deya “*yuz martalab*”, “*hech*”, “*juda qattiq*” kabi kuchaytiruvchi birliklarga urg‘u berish, alohida ta’kid bilan talaffuz qilish natijasida reprezentativ akt yuzaga kelgan.

Reprezentativ nutqiy aktlar propozitsiya strukturasiga asoslanadi va propozitsiyaning ikki mazmuniy qismida namoyon bo‘ladi. Xabar aktining dastlabki qismi diktumdan tashkil topadi. Modus ham reprezentativ aktning ma’lum qismi sanalib, u idrok qilinayotgan predmet, narsa va hodisaning inson tasavvuridagi ifodasi va unga munosabatini aks ettiradi¹¹⁹. Berilgan kontekstdagi diktumda xabar orqali sabablar sanab o‘tilsa-da, modus qismida uzr akti implitsit

¹¹⁹ Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 196.

ifodalangan. Demak, modus muloqotda pragmatik ma'nolar uzatilayotganini aniq belgilashga yordam beradi.

Muloqotda bunday pragmatik vositlar orqali shakllangan mubolag'a qilish substrategiyasi kommunikatorlarning bilvosita tanqidi bilan qo'shnisiga bo'lgan mehr-oqibati va ijtimoiy munosabatlarning chuqurligi ko'rsatadi. Natijada xushmuomalalikni saqlashga intilish, kommunikatorlar bir-birini yuzini saqlash maqsadida bilvosita gapirishni afzal ko'rishgan.

VI. Tavtologiyadan foydalanish. Tavtologiya – ifoda vositalarining yaxlit yoki bir qismini takrorlanishida namoyon bo'ladigan mazmuniy ortiqchilik¹²⁰ bo'lib, muloqotning miqdoriy sifat tamoyiliga zid nutqiy hodisadir. Badiiy uslubda, birinchidan, janr uslubi, ikkinchida muallif intensiyasini (nutqiy muloqot maqsadini) amalga oshirish yo'lidir¹²¹. Tavtalogiya badiiy asarda qahramonlarning hissiy holatini ko'rsatish, ta'sirchanlikni oshirish, muallifning individual uslubini shakllantirish kabi vazifalarni bajarish bilan birga, noto'g'ri va haddan tashqari ko'p qo'llanishi ham matnning mantiqiyligi buzadi, kitobxonni zeriktiradi. Bundan tashqari tavtologiya alohida nutq hodisasi hisoblanib, til tizimi va me'yori doirasiga kirmaydi. Odatda, bu kabi vositalar so'zlovchining mantiqan va til jihatdan yetarli darajada savodxon emasligini ko'rsatadi¹²².

Sotsiopragmatik nuqtayi nazardan tavtologiya muloqot jarayonida nafaqat axborot yetkazish, balki kontekstiv samaradorlikni oshirish, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va suhabatni boshqarish kabi vazifalarni ham bajaradi. *Tavtologiyaning pragmatik funksiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:* 1) kontekstiv marker sifatida tavtologiya suhabatda ma'lum bir qismning boshlanishini yoki yakunlanishini ko'rsatadi; 2) epistemik modallik nuqtayi nazaridan tavtologiya so'zlovchining fikrining ishonchli yoki ishonchsizligini tasdiqlash vositasi sifatida ishlaydi; 3) diqqatni tortish va ta'kidlash funksiyasi orqali

¹²⁰ Жахонова Н., Тоирова Г. Тавтология ва плеоназмнинг ўрганилиш тарихига бир назар // in Library, 2022. – В. 124-129.

¹²¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008 . – Б. 140.

¹²² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tavtologiya>

tavtologiya tinglovchining e’tiborini muhim deb hisoblangan qismga qaratishga xizmat qiladi.

Pragmatik kontekstda tavtologiya so‘zlovchining nutq maqsadlariga xizmat qilish uchun muloqotning noaniqligini oshirish, shu bilan birga tinglovchiga turli talqinlar imkonini berish orqali strategik foydalidir. Bu esa xushmuomalalik nazariyasi doirasida ijtimoiy yuzga tahdid soluvchi aktlarni kamaytirish va muloqotning samaradorligini ta’minlashda ahamiyatli rol o‘ynaydi:

— *Qizlarimiz ... hademay bo‘yiga yetadi... – Munisaning ovozi titradi.– Ularnig ko‘ngliga qarang-a, adojoni... Sojidaga shirin gapiring. Xafa bo‘lsa, boshi og‘rib qoladi...*

— *Nima, menga vasiyat qilyapsanmi? – dedi Olim ovozini balandlatib.*

— *Yig‘ishtir, vij-vijingni!*

— *Yo ‘-o ‘q, unaqamas, endi ... aytaman-da...*

— *Bo‘pti boshqa ma’niliroq gaping bo‘lmasa, men ketdim, ishim ko‘p. Senga terminilib o‘tirganim bilan cho‘ntak qappaymaydi.*

Olim o‘rnidan turib, eshikka yetganda Munisa yanilish ohangida dedi:

— *Do‘xtirga uchrar ekansiz...*

— *Uchrasam uchrarman...* (“Zulm” hikoya.)

Tohir Malikning “Zulm” hikoyasidan olingan ushbu badiiy kontekstda Olimning xotini og‘ir kasal, doktorlar oyoqlarini kesish lozimligini aytishgan. Ammo Olim kasal xotinni keragidan yo‘g‘i yaxshi deb o‘ylaydi. Uning nutqida qo‘llangan “Uchrasam uchrarman” jumlasidagi tavtalogiya Olimning o‘z histuyg‘ularini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalay olmasligi va ichki o‘y-xayollari bilan kurashini yashirishga urinishi, noqulay vaziyatdan qochish istagini bildiradi. U yuzni saqlash strategiyasini qo‘llab, shifokor bilan uchrashishni ehtimoliy holat sifatida qoldirib, o‘zining noaniqligini saqlab qoladi. U o‘zining bu o‘ylarini aniq ifodalay olmasligi, bilvosita qochishga intilishi, axloqiy masalalarda ham o‘zining zaifligini ochib bergen.

VII. *Qarama-qarshi fikr bildirish substrategiyasi.* O‘zaro oppozitsiyada turuvchi ifodalardan foydalanish kommunikativ jarayonda bilvosita ma’no

(implikatura) yaratish orqali Graysning sifat tamoyilini (yolg‘on axborotni uzatishga harakat qilma, o‘zing to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmagan hodisa haqida gapirma)¹²³ buzadi. Bu strategiya so‘zlovchiga ijtimoiy yuzni (hurmatni) va ijtimoiy mavqe balansini saqlash imkonini beruvchi xushmuomalalik substrategiyasi bo‘lib, tinglovchini kontekstual inferensiya (bilvosita ifoda) orqali ma’noni tushunishga majbur qiladi. Zidliklar lingvistik jihatdan semiotik tartibsizlikni yuzaga keltirib, muloqot ishtirokchilarining semantik va pragmatik bilimlarini ishga soladi. Shu tariqa bu usul muloqotdagi yashirin ma’nolarni izlashga hamda adresatning asl niyatini bilishga yo‘naltirilgan murakkab kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi:

– Ahvolingiz nichego, unaqa ugrajayushiy emas, No yaxshi ham emas.

Koridordagi onangizmi?

– *Ha... shunaqa desa ham boladi.*

... *Siz chiqib turing, onangizga bir-ikki gapni tayinlashim kerak.*

Jur’at chiqib, Ko ‘paysin kirgach, Zubayda uni o’tirishga taklif etmay, tik turgancha gap boshladi:

– O‘g‘lingizni osmotret qildim. Kasali opasniy emas. No, vaqtida oldini olishi kerak. Unga srochniy otdix kerak. Dam olmasa bolmaydi... (“Oqibat ul-amr” hikoya)

Qarama-qarshi fikr aytish orqali shifokor (adresant) tinglovchining yuzini saqlashga harakat qiladi, chunki aniq bir salbiy xabarni yetkazish o‘rniga, u vaziyatning ikkita tomoni haqida gapirodi, bu esa tinglovchiga mos xulosa chiqarish uchun imkon beradi. Bu usul muloqotda yuzni saqlash va xushmuomalalikni ta’minlashga qaratilgan murakkab kommunikativ strategiya sifatida namoyon bo‘lgan.

Tibbiy nutqni tadqiq etgan S.Yorova “Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy madaniy xususiyatlari” monografiyasida nutqning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari uning kontekstivlik tabiatini orqali ham namoyon bo‘ladigan kasb sohiblarining individual nutqi va muloqotiga xos shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy

¹²³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 136.

salohiyatlar bilan bog‘liq lingvokognitiv, sotsiomadaniy, lingvopragmatik hamda nutq madaniyatiga oid ko‘rsatkichlarga asoslanuvchi dinamik faoliyatini tadqiq etgan bo‘lib, shifokorlar ham xorijiy til mutaxassislari, xususan, tarjimonlar singari “o‘z milliyligini yo‘qotmasdan” “bilvosita madaniyatlararo muloqot sharoitida” faoliyat ko‘rsatishini ta’kidlab o‘tadi¹²⁴.

Bir tomondan, bunday bilvosita – noaniq ifodalar orqali doktor bemorning yaqinlarini vaziyatga asta-sekin tayyorlashni maqsad qilishi mumkin. To‘satdan yomon xabarni berish o‘rniga, u bilvosita va zid ifodalar orqali yaqinlariga vaziyatning murakkabligini anglash imkoniyatini beradi. Doktor va bemorning yaqinlari o‘rtasida ijtimoiy-psixologik tengsizlik mavjud. Shifokor professional mavqeyini va bilimlarini hisobga olib, ehtiyotkorlik bilan gapirishi mumkin, chunki bemorning yaqinlari bu ma’lumotni qabul qilishga tayyor emas yoki ularni hissiy jihatdan ortiqcha vahimaga solmoqchi emas. Ikkinci tomondan, doktoring bunday noaniq bayonotlari bemorning yaqinlari uchun ishonchsizlik va xavotir, tushunmovchilikka olib kelishi mumkin, bu esa keyinchalik ko‘proq savollar, noto‘g‘ri xulosalar keltirib chiqaradi.

Demak, tibbiyot xodimlarining bunday kommunikativ strategiyadan bemorning yaqinlarini vaziyatga tayyorlash yoki ijtimoiy yuzni saqlash maqsadini ko‘zda tutsa, sotsiopragmatik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Biroq, bunday substrategiya har doim ham samarali bo‘lmasligi, va aksincha, ishonchsizlik, noaniqlikni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun, bunday vaziyatlarda doktoring ehtiyotkorlik bilan va aniqroq ma’lumot berishga intilishi, ayniqsa jiddiy holatlarda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

VIII. Kinoya qilish substrategiyasi. Muloqotning sifat tamoyili buzilishiga sabab bo‘ladigan vositalardan biri ironiya (kinoya)dir. Kinoya – til birligini haqqoniy ma’nosiga nisbatan boshqa yoki qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochiriq, piching bilan ishlatischdan iborat ko‘chim¹²⁵ bo‘lib, bilvosita strategiyasining bir qismi sifatida ma’noni yashirish (implikatsiya) va noaniqlik

¹²⁴ S.Yorova. Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiymadaniy xususiyatlari. – Samarqand: Fan bulog‘i, 2024. – B. 9.

¹²⁵ Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 58.

yaratish, so‘zlovchining javobgarligini kamaytirish, nisbiy xushmuomalalikni saqlash, tinglovchiga fikrlash imkonini berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Dissertatsiyamizda qarama-qarshi fikr bildirish (VII) va kinoya (VIII) alohida substrategiya sifatida ko‘rsatilgan. Ikki usul ham pragmatik ma’noning o‘zaro oppozitsiyalariga qurilgan bo‘lsa ham VII substrategiyada o‘zaro zid birliklar propozitsiyada eksplitsit namoyon bo‘ladi, ammo kinoyada o‘zaro zidlanish shakl va mazmun o‘rtasida vujudga keladi.

Pragmalinvistik Sh.Safarov so‘zlovchi ifodalayotgan ma’no va gap semantikasining qarama-qarshiligi, ayniqsa, ironiya ifodalanishida yaqqol ko‘zga tashlanishini, zero, ironiya iboralarda so‘zlovchi hech qachon bevosita mazmundagi nutqiy akt ijrosini ko‘zlamasligini¹²⁶ aytadi. N.Madaminova ham o‘z tadqiqotlarida bilvosita ifodaga to‘xtalib, kinoyani “jiddiy bo‘lmagan” nutqiy faoliyat turlaridan biri sifatida ko‘rsatadi¹²⁷. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ironiya yashirin ma’no ifodalovchi bilvosita akt birligi bo‘lib, unda referensiya va mazmun zidlanishi natijasida kinoyaviy tag ma’no anglashiladi, bu tuzilmani ironiya sifatida idrok qilish esa adresatning lisoniy qobiliyati bilan bog‘liq:

– *Nima qilasan, bolalarni yig‘asanmi? – dedi nihoyat Asadbek oldingi mavzuga qaytib.*

– *Aytdim-ku, senga ... dedi Jalil o‘sha qaysarlik bilan.*

– *Menikiga kelmasa, uyingga chaqir. Bo‘lmasa... choyxona bor. Bitta osh mendan.*

– *O‘-xo ‘... juda kattaga tushasan-ku, a? Oshnam, hamyoning ko‘tara olarmikin buncha xarajatni?* – dedi Jalil piching bilan. Asadbek unga bir sapchimoqchi bo‘ldi-yu, uning quvlik bilan jilmayganini ko‘rib, shashti pasaydi. “Ponani pona bilan chiqaradi”, deganlariday o‘zi ham piching bilan javob qaytardi:

– *Hamyonim ko‘tarmasa, Jalilbovvachcha degan oshnam bor, qarab turmas axir. (“Shaytanat” – 3. 72-b.)*

¹²⁶ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 104.

¹²⁷ Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birlklarning o‘rni. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 13

Ushbu kontekstda ijtimoiy masofa simmetrik, chunki suhbatdoshlar bir-biriga yaqin do'stlar bo'lib, ular o'rtasida yaqinlik va ishonch bor. Bu ularga o'zaro kinoyali gaplar qilish imkonini bergan. Odatda, bunday gaplar begonalarga nisbatan nomaqbul hisoblansa ham, ammo do'stlar orasida bu kulgili va qabul qilinadigan ifodalar sifatida qabul qilinadi. Jalilning so'zlari orqali ular o'rtasidagi ijtimoiy rollar hamda maqomlarning ifodalanishi kuzatishimiz mumkin. Do'stlar o'rtasida kinoya qilish ijtimoiy maqom tengligini, bir-biriga nisbatan hurmatni ko'rsatishga xizmat qilgan. Bundan tashqari bu holatda Asadbekning ham ijtimoiy maqomi aniq aks etgan, ya'ni "*hamyoning ko'tara olarmikin*" ifodasida "puli kam" semasi anglashilganday, ammo aslida adresatning – tinglovchining juda boyligi implitsit ifodalangan. Adresat bu kinoyadan ranjiganini ko'ramiz, ammo adresantning quvlik qilayotganini bilib, suhbatdoshiga "*Jalilboyvachcha oshnam bor, qarab turmas*" deya bilvosita javob qaytargan. Bu kinoya bilan Jalilning boy masligiga ishora qilingan. Umuman olganda, ushbu parcha do'stlikdagi yaqinlik va bilvosita xushmuomalalik orqali sotsiopragmatik jihatlarni ko'rsatib berilgan.

Tohir Malikning "Shaytanat" romanida Jalil obrazining nutqi kinoya bilan boyitilgan, "tili achchiq" qahramon sifatida gavdalanadi. Yozuvchi o'z qalbidagi o'y-fikrlarini shu obraz nutqiga singitib yuborgan, "Asadbek" kabilarga aytmoqchi bo'lgan gaplarini bilvosita Jalil obrazi orqali yetkazgan. Romanda aynan shu obraz nutqi ideolektlarga boyligi bilan ajralib turadi va tahlil uchun alohida tadqiqot manbayi bo'la oladi.

Ammo kinoya har doim xushmuomalalik belgisi bo'lavermaydi, ayniqla, o'zbek mentalitetida muloqotda bu substrategiyadan foydalanish ko'pincha hurmatsizlik ifodasi sifatida baholanadi. Kinoyaning salbiy munosabatni ifodalab, keskin norozilikni yuzga keltirishi haqidagi nazariy fikr va tadqiqotlar o'zbek tilida E.Ibrogimova, M.Hakimov, S.Boymirzayeva, N.Qazaqova, A.Parmonov tadqiqotlarida uchratamiz¹²⁸, ular kinoya orqali tinglovchining ustidan kulish,

¹²⁸ Ibrogimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul vositlari: filol.fanlari nomz. ... diss. – Farg'ona, 2001. – В. 47.; Боймирзаева С. Матнда кино мазмунининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №4 – Б. 111.; Ҳакимов М. Ўзбек pragmalingvistika асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.104.; Qazaqova N. Ga'fur G'ulom asarlarining pragmalingvistik tadqiqi: filol. Fanlari nomz. ... diss. –

salbiy munosabat ifodalash (masxaralash) kabi xususiyatlarining yetakchilik qilishini atroflicha tadqiq etishgan.

Bundan ma'lumki, kinoya kommunikatorlarning kommunikativ niyatiga bog'liq holda sotsiopragmatik parametrlar ta'sirida turlicha tushunilishi mumkin ekan.

IX. Metaforalarni qo'llash substrategiyasi. Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va konnotativ ma'no referentlari o'zaro o'xhash kelishiga asoslanadi¹²⁹, ya'ni bu o'xhashlik natijasida vujudga kelgan okkozuonal ma'no – bilvosita akt adresatga aloqador bo'lishi uchun uning kogniktiv sxemalari, hissiy holati, madaniy va ijtimoiy konteksti (vaziyati), shuningdek, talqin qilish qobiliyati hisobga olinshi kerak. Ushbu sotsiopragmatik omillar metaforaning to'g'ri anglanishi va uning implitsit semasining adresatga yetkazilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar bu omillar tinglovchiga muvofiq hamda aloqador bo'lsa, suhbat samarali bo'ladi:

Akasi o'shanda xo'rsingan edi... Keyin... Keyin o'qishni tashlaganida ham tun bo'yи suhbat qurgan edi.

- *Sen o'zingchaadolat topmoqchimisan? – deb so'rigan edi akasi.*
- *Topaman, aka.*
- *Yo'q narsani topish mumkinmi?*
- *Dunyonifaqatzulmat qoplamagan-ku, yorug'lik ham bor-ku?*
- *Sen o'zingni o'zing nobud qilasan.*
- *Hamma o'zini olib qochaversa nima bo'ladi?*
- *Sen tanlagan yo'lida yuholar bor. Ilonni yutib, dumini ko'rsatishmaydi.*

Sen shunday bo'la olasanmi?

- *Mening yo'lim boshqa.*

Namangan, 2019. – B.109.; Parmonov A. Badiiy kontekstda kinoya va uning lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss... avtoref. – Qo'qon, 2024. – B. 12-14.

¹²⁹ Миртохийев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 94.

– *Qo'y ham, bo'ri ham bolaligida ona sutini emadi. So'ng... ulg'aygach, biri o't yeydi, biri esa uning go'shtini... Bo'ri qo'yxonada ulg'aysa o't yeydimi? Zinhor!*

– *Men... bo'rimanmi?*

– *Yo'q, qo'ysan. Bo'rilariga maysaning ta'mi yaxshiligin o'rgatmoq-chisan... Ehtiyyot bo'l...* (“Shaytanat”)

Mazkur kontekstda aka va uka o'rtasidagi muloqotda tasviri berilgan bo'lib, obrazlarning ijtimoiy ro'l va mas'uliyat juda muhim ahamiyatga ega ekanligini – akaning ukasiga havotiri, mehribonchiligi; ukaning akasiga hurmati, itoatkorligini ko'ramiz. Odatda, aka-uka munosabatidagi muloqot bevosita strategiya asoslanadi, lekin kommunikatorlar bilvosita strategiyadan (metaforlarni qo'llash) foydalanishgan. Ukasining nutqida bir nechta o'xshatishlar: zulmat – yovuzlik, jaholat, vayronkorlik; yorug'lik – yaxshilik, ma'rifat, bunyodkorlik – qo'llangan bo'lib, u dunyodan yaxshiliklarni topmoqchi ekanligini nazarda tutadi. Ammo adresant (aka) o'zinig kommunikativ niyatini (tanqid, ogohlantirish, maslahat, nasihat aktlari) bilvosita – o'xshatish etalonlari orqali, ya'ni *yuholar – mavjud qonun-qoidalarni toptash evaziga bo'lsa ham, ko'proq boylik orttirish payiga tushgan kimsalar*¹³⁰; *ilonni yutmoq – katta, og'ir jinoyatlaarni qilish; dumini ko'rsatmaslik – jinoyatni amalga oshirish natijasida vujudga kelgan muammolarni yo'q qilish; bo'ri – jinoyatchi, zulmkor shaxs; qo'y – zaif, oddiy, yaxshi insonlar; maysa – yaxshilik, insoniy fazilatlarni* nazarda tutib obrazli, ta'sirchan amalga oshirgan va ukasini yaxshi inson ekanligini bilvosita ta'kidlab, bu yo'ldan qaytarishga, befoyda harakat qilmaslikka chaqiradi. “Shaytanat” romanida bo'ri va qo'y oppozitsiya orqali ifodalangan zoomorf metaforalar juda ko'p o'rinnarda qo'llangan, ular ham yuqoridagi tahlil kabi nasihat, ogohlantirish aktlarni ifodalash uchun bilvosita xizmat qilgan.

Odamni bo'riga o'xshatish biomorf kodlari madaniyatlarda turlicha ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. O'zbek madaniyatida bo'ri etaloni bilan bog'liq

¹³⁰ Asl ma'nosi – barcha jonivorlarni aralash yeb, yutib yuboradigan afsonaviy maxluq.
<https://uz.wiktionary.org/wiki/yuho>

semantik struktura odatda ham salbiy, ham ijobiy ma'noda, ya'ni tajovuzkorlik va yovuzlik; landovurlik¹³¹ yoki aksincha dovyurak, baquvvat¹³² sifatlar bilan bilan konnotatsiyalashgani bilan bog'liq bo'lsa, turkiy madaniyatlarda bu ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lishi mumkin, ya'ni bo'ri totemi turkiy xalqlar og'zaki ijodida urug' boshi, balo ofatlardan saqlovchi madadkor kuch sifatida ulug'langan¹³³. G'arbiy Yevropada bu o'xshatish xiyonat va hiyla-nayrang bilan bog'liq bo'lsa, Amerika madaniyatida bo'rilar guruhini birlashgan va kuchli jamoa sifatida tasvirlanadi. Bu farqlar har bir madaniyatning bo'riga nisbatan tarixiy va madaniy qarashlaridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra metaforalarning qaysi ma'noni ifodalagani ijtimoiy kontekst tarkibida oydinlashadi.

Shunday ekan metaforalar sotsiopragmatik jihatdan ijtimoiy munosabatlar, madaniy va sotsial normativlar, ijtimoiy kuch va mavqe, mojarolarni yumshatish, kontekstual moslashuvchanlikni ifodalashda ham katta ahamiyatga ega. Ular til orqali ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va saqlashga, shuningdek, muloqotning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Metaforalar muloqotda ijtimoiy dinamikani boshqarishga yordam beradigan kuchli vosita bo'lib, shaxslar va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash, mustahkamlashga yordam beradi.

Ammo muloqotda metaforalardan noto'g'ri yoki noqulay kontekstda foydalanish salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bu noto'g'ri talqin qilinish, madaniy farqlar natijasida mojarolar kelib chiqishi yoki kamsitish sifatida qabul qilinish ehtimollarini o'z ichiga oladi. Muloqotda metaforalarni ehtiyyotkorlik bilan va kontekstni hisobga olgan holda qo'llash juda muhimdir, aks holda, ular muloqotni murakkablashtirib, ishtirokchilar o'rtasida tushunmovchilik hamda noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

X. Ritorik so'roq gaplardan foydalanish substrategiyasi. O'zida tasdiq yoki inkor mazmuni bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan so'roq gap¹³⁴ lar ritorik so'roq gap deb ataladi. Ritorik savollarni bilvosita strategiyada qo'llash

¹³¹ Norkuziyeva D. Zoomorfizmlarning etnolingvomadaniy xususiyatlari // Fan, ta'lif va amaliyot integratsiyasi. 2022. № 6. – B. 327–331.

¹³² Maҳмудов Н. Худойберганова Д. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – B. 54.

¹³³ Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. – Samarqand, 2006. – B. 17.

¹³⁴ Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 94.

tilshunoslikda nutq aktlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalamaslikning eng samarali va ijtimoiy jihatdan maqbul usullaridan biridir. Ular suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofani, kuchli tanqid yoki buyruqlarni yumshatish orqali ijtimoiy muloqotda yuzni saqlash (face-saving) funksiyasini ta‘minlash uchun samarali vositadir. Ko‘rinadiki, ritorik savollarni qo‘llashdan asosiy maqsad – so‘zlovchining aytmoqchi bo‘lgan tanqidini, o‘zini oqlashini yoki ta’na-tanbehini yumshoq, nozik va ijtimoiy qabul qilinadigan usulda yetkazishdir.

Bu gap Asilovga malol keldi. Qoshlarini chimirdi:

– *Siz ham shunday deysiz. Bolasining baxtini o‘ylaydigan odam eng avval o‘zining sog‘ligi haqida qayg‘urishi kerak. Kasalvand odam bolasini baxtli qilganini hech ko‘rganmisiz?*

– *Do ‘xtir, endi bo‘lar ish bo‘ldi. Biz nima qilishimiz kerak?*

– *Sizmi?*

– *Asilov ajablandi.*

– *Siz umid bilan kutishingiz kerak. Qizingizni duo qilib, Xudodan shifo tilashingiz kerak. (“Zulm hikoyasi”)*

Kontekstda shifokor Asilov suhbatdoshining hissiyotlarini hurmat qiladi, tanqid yoki maslahatni ochiqchasiga aytmasdan, o‘zining kommunikativ niyatini ritorik so‘roq gap orqali muloyim va yashirin tarzda yetkazgan. Natijada bu strategiya suhbatda muloyimlikni saqlab qolish, odamlarni nozik masalalar haqida o‘ylashga undash va muloqotni samarali olib borish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Tohir Malik asarlarida bilvosita strategiyadan foydalanish, xususan nozik vaziyatlarda, maslahat, ogohlantirishlarda hamda qahramonlar o‘rtasidagi murakkab muloqotlarda ko‘p uchratdik. Bu substrategiyalar qahramonlar o‘rtasidagi hissiy munosabatlarni chuqurlashtirgan, dialoglarni murakkablashtirgan, asarlarning badiiy ifodasini boyitgan. Bilvosita strategiya orqali adib asarlarida insoniy qadriyatlarni, ijtimoiy aloqalarni, axloqiy mavzularni yanada jonli va ta’sirchan tasvirlashda unumli foydalanilgan bo‘lib,

asarlarning badiiy mazmuni, qahramonlarning hissiyotlari o‘quvchiga yaqinroq bo‘lib, ular bilan bog‘lanish osonlashgan.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Xushmuomalalik strategiyalarining muloqotda qo‘llanilishi nafaqat til birliklarining to‘g‘ri qo‘llanishini, balki ijtimoiy-pragmatik kontekstda ulardan qanday foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Bu strategiyalar muloqot jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, tinglovchi va so‘zlovchi o‘rtasidagi hurmatni saqlash, muloqotni yanada samarali qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy to‘rtta strategiyalardan tashkil topgan: bevosita, ijobiy, masofaviy va bilvosita strategiya. Bu strategiyalarning har biri yana alohida substrategiyalar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

2. Bevosita strategiya to‘g‘ridan to‘g‘ri, ochiq ifodalarni o‘z ichiga oladi. So‘zlovchi o‘z kommunikativ niyatini yoki talabini aniq, bir ma’noli tarzda ifodalaydi, bu esa muloqotda noaniqlikni minimallashtiradi. Ushbu strategiyada xushmuomalalik ko‘rsatkichlari kamroq bo‘ladi, chunki so‘zlovchi o‘zining ijtimoiy roliga yoki vazifasiga asoslangan holda bevosita muloqotni tanlaydi, shuning uchun yaqin munosabatlarda ko‘p qo‘llanadi. Bu usul qo‘pol yoki talabchan ko‘rinishi mumkin, ammo u samarali va aniq muloqotni ta’minlaydi.

3. Ijobiy xushmuomalalik strategiyasi so‘zlovchining tinglovchiga hurmat va iliq munosabat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bu strategiya muloqot ishtirokchilarining o‘zaro qiziqishlarini ta’kidlaydi, ularning bir-birlariga hurmat va ilqlik bilan yondashishini ifodalaydi. Odatda yaqin munosabatlarda yoki bir xil ijtimoiy guruhlarga mansub shaxslar o‘rtasida qo‘llanilib, ijtimoiy uyg‘unlikni saqlash va aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Masofaviy muloqotdagi xushmuomalalik strategiyasi tinglovchining shaxsiy erkinligini hurmat qilishga va uning mavqeyiga xalaqit bermaslikka qaratilgan. Bu strategiyada iltimoslar yumshoqroq ifodalanadi, kechirimlar va ehtiyyotkorlik ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi. Bu strategiya ijtimoiy masofasi katta bo‘lgan shaxslar o‘rtasida yoki ijtimoiy tengsizlik mavjud bo‘lgan vaziyatlarda

qo‘llanilib, tinglovchining shaxsiy chegaralarini hurmat qilish va muloqotda unga bosim qilmaslik maqsadida foydalaniladi.

5. Bilvosita strategiyasi so‘zlovchining maqsadini implitsit ifoda etish orqali amalga oshiriladi va adresant o‘z so‘zlari uchun mas’uliyatni kamaytiradi, adresatga kontekstni o‘zicha talqin qilish imkonini beradi. Bu strategiya noqulay yoki murakkab vaziyatlarda ishlatililib, ijtimoiy munosabatlarda noziklikni ta’minlash, ayniqsa, ijtimoiy kuchni muvozanatlash yoki ijtimoiy masofani boshqarish zarur bo‘lgan vaziyatlarda faol qo‘llanadi.

6. Bir xil kommunikativ niyatni turli strategiyalar orqali ifodalash mumkin, chunki sotsiopragmatik omillar (ijtimoiy quvvat, masofa, madaniy me’yorlar va kontekst) jihatdan farqlar har bir strategiya uchun ahamiyatlidir. Lingvistik vositalarning tanlovi esa ushbu omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

**III BOB. TOHIR MALIK ASARLARIDA IJTIMOIY
IDENTIFIKATSIYANI KO'RSATUVCHI LINGVISTIK BIRLIKLAR
TADQIQI**

**3.1-§. Ijtimoiy identifikatsiyasini ko'rsatuvchi kategoriyalarining muloqot
strategiyalarida ifodalanishi**

Til muloqotning asosiy vositasi sifatida nafaqat axborotni uzatish, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, mustahkamlash va boshqarish uchun ham muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda tilshunoslikning pragmatika, sotsiolingvistika, sotsiopragmatika yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligi, ayniqsa, xushmuomalalik strategiyalari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Xushmuomalalik strategiyalari, xususan, ijobiy xushmuomalalik muloqotda ishtirok etayotgan tomonlar o'rtasidagi ijtimoiy yaqinlikni ta'minlash va o'zaro hurmatni ifodalashga xizmat qiladi. Bu strategiyalar, odatda, ijtimoiy identifikatsiyasi va ishtirokchilar o'rtasidagi yaqinlikni mustahkamlash uchun qo'llaniladigan leksik kategoriyalar orqali amalga oshiriladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Identifikatsiya – (lot. Identificare – aynanlashtirmoq, tenglashtirmoq), kriminalistikada obyekt yoki shaxsning umumiy va xususiy belgilari majmuyiga qarab aynanligini aniqlash" deya izohlangan¹³⁵ bo'lib, jinoyatchilarni tergov qilish jarayonida shaxslarni, narsalarni, izlarni yoki boshqa moddiy dalillarni aniqlash va ulami ma'lum bir shaxs, obyekt yoki hodisaga bog'lash jarayonini aks ettiradi. Kriminalistikada identifikatsiya jinoyat joyidan topilgan ashyolarni jinoyatchi yoki jabrlanuvchiga bog'lash orqali sodir etilgan jinoyatni fosh etish va aniqlash uchun qo'llaniladi.

Identifikatsiya psixologik yoki psixoanalitik kontekstda inson o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga qo'yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi¹³⁶ deya izohlangan, bu shu soha uchun aniq ta'rif hisoblansa-da, lekin keng

¹³⁵ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 173.

¹³⁶ Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Turon – Iqbol, 2006. – В. 46.

ma'noda uning to'liq mohiyatini ochib bera olmaydi, chunki bu termin ko'p qirrali bo'lib, barcha sohalarda o'ziga xos ta'rifga ega.

Tilshunoslikda identifikatsiya tushunchasi til birligi yoki nutq bo'lagi orqali ma'lum bir shaxs, predmet, joy yoki voqeа-hodisani aniqlash, ularni belgilash jarayonini anglatadi. Bu jarayon tilshunoslikda ko'p qirrali bo'lib, bir qancha turlarga bo'linib ketadi:

- *shaxsiy identifikatsiya*: shaxslararo muloqotda yoki matnda kimningdir ism-sharifi, lavozimi yoki boshqa shaxsiy ma'lumotlar orqali aniqlash.;
- *semantik identifikatsiya*: bu tushuncha biror so'zning yoki iboraning ma'nosini aniqlash, u nima yoki kimga nisbatan ishlatalayotganini aniqlashda qo'llaniladi;
- *referensial identifikatsiya*: odatda, til birliklari orqali ma'lum bir referentni (real dunyodagi obyekt yoki hodisani) aniqlash uchun qo'llanadi. Masalan, "bu" so'zi matndagi aniq bir narsa yoki shaxsga ishora qilishi mumkin (deyksis birliklar);
- *nutqiy identifikatsiya*: nutq aktlari davomida so'zlovchi yoki tinglovchi tomonidan foydalanilgan iboralar orqali kim yoki nima nazarda tutilganini aniqlashdir.

Demak, *lingvistik identifikatsiya* shaxs yoki obyektni til birliklari orqali aniqlash va belgilash jarayonidir. Bu jarayonda tilning leksik, sintaktik, va pragmatik elementlari ishlataladi. Masalan, shaxsni ismi, lavozimi, yoki boshqalarni til vositalari yordamida belgilash lingvistik identifikatsiya hisoblanadi. Shaxsning jamiyatdagi o'rni, roli, sotsial guruhi yoki sinfiga nisbatan belgilanishi ijtimoiy identifikatsiya deb ataladi. Ijtimoiy identifikatsiya natjasida shaxs jamiyat yoki ma'lum bir guruh a'zosiga aylanadi, natijada shaxslar sotsial mavqe hamda o'rnatilgan me'yordarga ko'ra turli sinflarga bo'linadi¹³⁷. Ijtimoiy identifikatsion belgilar tilga bilvosita ta'sir ko'rsatadi, chunki shaxslar o'z ijtimoiy qatlama yoki roliga qarab turli xil til birliklari va muloqot usullaridan foydalanadilar. Bu holat

¹³⁷ Maratov T. Shaxs identifikatsiyasi – psixologik fenomen sifatida// Academic research in educational sciences. 2021. – № 2/4. – B. 844–847.

tilshunoslikda “lingvistik repertuar” yoki “xushmuomalalik nazariyasi” deb ataladigan fenomenlarni ham o‘z ichiga oladi.

Badiiy matn xususiyatlarini sotsiopragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etdan X.Yuldosheva ijtimiy kontekstda quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozimligini yozadi: 1) til birliklarining ijtimoiy badiiy kontekstda qo’llanish xususiyatlari masalasi; 2) yozuvchi va u yaratgan personajlarning til belgisiga munosabat; 3) turli ijtimoiy qatlam vakillaridan iborat personajlarning til belgisiga munosabati; 4) personajlar nutqining muayyan ijtimoiy muhit, nutq vaziyati bilan bog‘liq holda shakllanishi; 5) personajlar tomonidan nutq vaziyatiga bog‘liq holda muloqot shakllarining tanlanishi; 6) turli sotsial guruhga mansub personajlar muloqotida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-madaniy omillar; 7) personajlar ijtimoiy mavqeyidagi tabaqalanish, rollaridagi farqlanish hamda kasb-kori, yoshi, jinsining badiiy matnda voqelanishi; 8) personajlar nutqida ijtimoiy xoslangan birliklarning faollashuvi kabilar¹³⁸.

Bundan ma’lum bo‘ladiki, badiiy matnda tilning qo’llanilishiga oid asosiy uchta jarayon tasniflanadi: *indeksatsiya, baholash va munosabatlarni belgilash*. Indeksatsiya tilda boshqa elementlarga murojaat qilish yoki ularga “ishora qilish” jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Shu orqali foydalanuvchilar o‘zlarini boshqalar, vaqtli va hududiy o‘lchovlar bilan bog‘liq holda joylashtiradilar. Baholash esa sotsiopragmatik maydon ichida bir obyektga nisbatan subyektning pozitsiyasini belgilashni o‘z ichiga oladi. Bu boshqalar yoki o‘zining xatti-harakatlarini situatsiyali kontekstlarda affektiv yoki axloqiy baholashning hamkorlikdagi qurilishini o‘z ichiga oladi. Nihoyat, munosabatlarni belgilash tilda yaqinlik, hamjihatlik, emotsionallik va boshqalarni amalga oshirish usullarini o‘z ichiga oladi. Demak, munosabatlarni belgilash boshqalar bilan doimiy munosabatlarning affektiv va axloqiy jihatlarini (nozik tarzda) muzokara qilish jarayonlarini o‘z ichiga olar ekan.

¹³⁸ Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. – Qarshi: Intellekt, 2022. – B.197

Quyida biz “Shaytonat” romanining bosh qahramoni Asadbek obrazi misolida shaxsning identifikasiya belgilari quyida 3.1.1-jadvalda ko‘rsatib o‘tamiz:

3.1.1-jadval.

Asadbek obrazining shaxsiy – ijtimoiy identifikasiya belgilari.

Asadbek obrazining shaxsiy – ijtimoiy identifikasiya belgilari	
Laqabi	O‘qilon
Unvoni	Bek
Millati	o‘zbek
Jinsi	Erkak
Yoshi	o‘rta, katta tajriba ega
Kasbi	Jinoyatchi – mafiya rahbari
Ijtimoiy mavqeyi	Jinoyat olamida yuqori mavqega ega
Oilasi	Oilali, 3 ta farzandi bor
Qaynota	Kuyovi Elchin
Diniy e’tiqodi	Dini islom, e’tiqodi sust, ammo din va uning vakillarini hurmat qiladi
Turmush darajasi	Yuqori, boy
Til bilimi	O‘zbek, rus tillarini yaxshi biladi, lekin asosan o‘zbek tilida muloqot qiladi
Ijtimoiy munosabatlari	Eng yaqin do‘sti bor – Jalil, lekin ko‘pchillikka shubha-gumon bilan qaraydi. Raqiblari, dushmanlari ko‘p
Siyosiy pozitsiyasi	Siyosat bilan bevosita shug‘ullamaydi, lekin siyosatchilar bilan aloqasi bor.
Psixologik holati	Kuchli, qat’iyatli, ammo o‘tmishdagi voqealarni unitolmay qiynaladi, qasoskor, ba’zan o‘y-xayollar girdobida qoladi.

Romanda Asadbek murakkab obraz bo‘lib, asarda u kuchli, obro‘li, yuqori mavqedagi shaxs sifatida tasvirlangan. Qahramonning bu ijtimoiy identifikatsion belgilari muloqotda kommunikatorlarning til tanloviga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi:

... Qorong‘ilikni titratib chiqqan Asadbekning qahrli ovozi oraga tushgan bir damlik sukulni buzdi.

– Mening qullarim ajib-bijib yotibdi. Sendan durustroq qul ham chiqmaydi. Sen... ashulangni bilsang bas. Boshqa ishlarga tumshug‘ingni suqma.

Elchin Asadbekning sensirashiga o‘tganidan bildiki, u g‘azab otiga mindi. – Sen mol emassan. U yoqdan burningni oqizib kelmagansan. Tishingni qayrab yuribsan.

– *Bek aka... – Elchin “mening hech qanday yomon niyatim yo ‘q”, deb gapni chalg ‘itmoqchi edi, Asadbek yo ‘l bermadi.*

– *Ovozingni o ‘chir! Men gapiryapman, haddingdan oshma, bola! Sen xotining o ‘ldirilganini, u yoqlarda yurib kelganiningni unut. Ammo Asadbek akangni unutma! Asadbek akang, Xudoga shukur, tirik. Mabodo u o ‘lib qolsa, o ‘ligidan ham qo ‘rq. Men go ‘rimda ham tinch yotmayman. Atrofingda kimlar bor.* (“Shaytanat”-1.)

Berilgan kontekstda Asadbek o‘zini “rahbar” sifatida identifikatsiya qilishi natijasida adresant bevosita direktiv nutq aktlaridan foydalanib, o‘zining kuch (hukmronligini), “bek ” ekanini namoyish etadi. Uning “*Ovozingni o ‘chir! Men gapiryapman...*” jumlalari uning ijtimoiy mavqeyi, obro’si dahldor informatsiyalari implitsit ifodalab, tahdid, ogohlantirish aktlari shakllantirgan. Keyingi “*Mabodo u o ‘lib qolsa, o ‘ligidan ham qo ‘rq*” imperativi adresant (Asadbek)ning ijtimoiy identifikatsiya belgisini yanada mustahkamlagan. So‘zlovchining bu muloqot strategiyasi adresatga yuzini - hurmatini hisobga olmaslik, hurmatsizlikni ko‘rsatish uchun qo‘llangan. Suhbatda adresatga qarata aytilgan “*Sendan durustroq qul chiqmaydi*”, “*Haddingdan oshma, bola*” ifodalar uning so‘zlovchidan ijtimoiy mavqeyi, kuchi past ekanligiga ishora qilgan. Demak, adresant nutqi bevosita (bald on record) strategiyasiga asoslangan, ammo xushmuomalalik ifodalash uchun emas, aksincha tinglovchining ijobiy va salbiy yuziga tahdid solish uchun foydalanilgan.

Kontekst orqali Asadbekning nutqiy strategiyasi o‘zgartirganini, “senlash” ga o‘tganini payqaymiz, bundan ma’lum bo‘ladiki, suhbat oldin “sizlash” bilan boshlangan va u “bo‘lajak qaynota” rolida suhbatni iliq tarzda boshlagan edi:

... *Siz... uylandingizmi?*

– *Yo ‘q.*

– *Tirikchilik nima bo ‘lyapti?*

– *O ‘zbekning to ‘yi bor ekan, xor bo ‘lmaymiz.*

– *To ‘yning ham to ‘yi bor. Kim aytsa boraversangiz obro ‘yingiz qolmaydi.*

Siz eng zo ‘r ashulachi bo ‘lishingiz kerak. Odamlar “xo ‘p” deyishingizga mahtal

bo‘lib haftalab ostonangizda yotadi. Bu yog‘ini menga qo‘yib bering. Televizor, radio faqat sizning ashulalaringizni beradi. Sherali-yu, G‘ulomlaringiz sariq chaqa bo‘lib qoladi. Siz ashula aytganingizda Ortiqlar “amma-xolasi havodor” deb etak ochib o‘tiradi.

– *Rahmat, Bek aka, bularning evaziga men nima qilishim kerak? Har holda “hisobli do‘st ayrimas”, deganlar. Siz ko‘p so‘ramaysiz, bilaman. Nari borsa, sizga qul bo‘lishim kerak-da, a?...*

Asadbek suhbatni masofaviy muloqotdagi xushmuomalalik (shaxsning erkinligini hurmat qilish) strategiyasi bilan boshlagan. Adresat (Elchin) so‘zlovchining bilvosita aytigan kommunikativ niyatini o‘z erkini cheklash, unga itoatda bo‘lish ma’nosida tushungani uchun “...Nari borsa, sizga qul bolishim kerak-da, a” deb aytgan kesatig‘i adresantni g‘azablantirdi, natijada sotsiopsixopravmatik vaziyat vujudga kelib, adresatning muloqot sitrategiyasini o‘zgartishga sabab bo‘ldi.

Romandagi Asadbek obrazi nutqi ko‘pincha tinglovchilarni ijtimoiy yuzga tahdid soluvchi (FTA) strategiyalar iborat bo‘lsa-da, xushmuomalalik strategiyalardan foydalangan o‘rinlar ham mavjud. Namuna sifatida bu usullarni 3.1.2-jadvalda ko‘rsatib o‘tamiz¹³⁹:

3.1.2-jadval.

“Shaytanat” romanidagi Asadbek obrazining nuqtiga xos xushmuomalalik strategiyalari.

Asadbek obrazi misolida	Bevosita (Bald on record)	Ijobiy xusmuomalalik (positive politeness)	Masofaviy muloqotda qo‘llanuvchi xushmuomalalik (negative politeness)	Bilvosita (off record)
Hurmatni ifodalash (Face – saving act)	– Senga ijozat, – dedi Asadbek, yumshoq ohangga o‘tib. – Aytigan ishni qil.	– Akamsan, sen akamsan...	– Ha, hofiz, eson–omon chiqib keldingizmi? Asadbekning ovozida piching yoki tahdid ohangi yo‘q edi.	– Gaping o‘zingdan ham sovuq, a?
Kontekst	Kesakpolvon (o‘ng qo‘li) bilan suhbat	Do‘sti Jalil bilan bo‘lgan suhbat	Elchin bilan bo‘lga suhbat	Do‘sti Jalil bilan bo‘lgan suhbat
Shaxsiy identifikatsiyasi belgisi	Xo‘jayin	Do‘st	Bo‘lajak qaynota	Do‘st

¹³⁹ Tohir Malik. “Shaytanat” –1. www.ziyouz.com

Braun va Levinson suhbatdoshlar foydalanishi uchun xushmuomalalik darajasini tanlashda va o‘z ijtimoiy yuzlariga tahdid miqdorini hisoblashda foydalanadigan uchta “sotsiologik o‘zgaruvchilar” ni sanab o‘tadilar¹⁴⁰: Bu esa (sotsio)pragmatik parametrlar deb ham nomlanadi. Pragmatik tadqiqotlarda uchta pragmatik parametrlar ko‘rsatib o‘tilgan: a) ijtimoiy masofa parametrlari; b) ijtimoiy maqom darajasi parametrlari; c) nutq akti darajasining parametrlari. Birinchi parametr -masofani baholash (distance rating); ikkinchi parametr – kuchni baholash (power rating); uchinchi parametr – nutq harakatini baholash darajasi (rank rating)¹⁴¹.

Ijtimoiy masofa darajasi parametrlari (simmetrik yoki nosimmetrik munosabat) tanishlik, jins, umumiylar farqlari va ijtimoiy madaniy muhit darajaralari bilan aniqlanadi. Nutqiy vaziyat simmetrik munosabat doirasida yuzga kelsa, fikr izhori ancha ochiq, kommunikativ maqsadlar aniq ifodalayotgan nutqiy harakatlar ijrosida kechadi¹⁴².

Bu komponentlarning barchasi so‘zlovchi va suhbatdosh o‘rtasidagi masofaga ta’sir qiladi. Do‘sti bilan uzoq vaqt yaqin munosabatda bo‘lgan kishi qo‘pol so‘zlarni qo‘llaganda hurmatsizlik deb hisoblanmasligi mumkin. Biroq hali yaqin munosabatda bo‘lmagan do‘sti bilan yoki tanishi bilan qo‘pol va odobsiz nutq vostilaridan foydalanish cheklangan bo‘ladi.

Tilshunoslikda ijtimoiy maqom (mavqe) va ijtioiy rol tushunchalariga turlicha tavslif beriladi, jumladan, Sh.Safarovning ta’kidlashicha, “Ijtimoiy status shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy o‘rni bilan belgilansa, ijtimoiy rolning mundarijasи esa unga ushbu jamiyatda ajratilgan talablar majmuasidan iboratdir”¹⁴³. Demak, ijtimoiy masofa ko‘p jihatdan insonlarning boshqalar bilan munosabatlarining yaqinlik darajasi bilan belgilanadi. Shuningdek, insonning jinsi boshqa insonlar bilan muloqot qilishda qo‘llaydigan til shakllari bilan ham aniqlanadi. Qo‘pol bo‘lishga moyil bo‘lgan so‘zlarni tanlash kamdan kam hollarda

¹⁴⁰ Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 228.

¹⁴¹ Brown P. and Levinson, K o‘rsatilgan manba. Pp. 74.

¹⁴² Sh. Safarov. Ko‘rsatilgan manba. – B. 160.

¹⁴³ Yo‘ldasheva X. Badiiy matnning sitsiopragmatik tadqiqi. – Qarshi: Intellektaul nashriyoti. 2022. – B.125.

ayol kishi tomonidan ifodalanadi. Qo‘pol va dag‘al so‘zlarni qo‘llash esa ko‘pincha erkaklar nutqiga xos.

Suhbatdoshlar orasidagi ijtimoiy masofa qanchalik katta bo‘lsa (masalan, agar ular bir-birlarini juda kam tanisalar), odatda shunchalik xushmuomalalik kutiladi. Tinglovchining so‘zlovchiga nisbatan (idrok qilingan) nisbiy kuchi qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik xushmuomalalik tavsiya etiladi. Eshituvchiga qo‘yilgan majburlash qanchalik og‘ir bo‘lsa (qanchalik ko‘p vaqt talab qilinsa yoki iltifot qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik xushmuomalalikdan foydalanish kerak bo‘ladi.

Jamiyatda insonlarning egallagan maqomlari, bajaradigan ijtimoiy rollarining muloqotda namoyon bo‘lishi masalasi nafaqat sotsiolingvistika, balki pragmalingvistika va sotsiopragmarikaning ham o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Ijtimoiy maqom darajasining parametri (kuch darjasasi) kommunikatorlar o‘rtasida assimetrik munosabatlar mavjudligini bilan tavsiflanadi, ya’ni “yuqori” va “past”, “boy” va “kambag‘al”, “bilimli” va “bilimsizlar”, “hokimiyat” va “hokimiyatga ega emas”... singari ijtimoiy maqom darajalari masalasi bilan bog‘liq. Muayyan kontekstda kuch (hokimiyat)ni taqsimlash pul, bilim, ijtimoiy obro‘, ijtimoiy roli, yoshi, unvoni va boshqa omillardan kelib chiqib aniqlanishi mumkin. Kuch namoyon bo‘lgan nutq harakatlar bevosita nazorat qilish buyruqlar, tahdidlar, qonunlar, qoidalar, ko‘rsatmalar va boshqalar kabi bilvosita tavsiyalar, maslahatlar direktiv funksiyaga ega bo‘lgan nutq orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi parametr harakat darjasasi (rank rating) – bu o‘zaro suhbatda ishtirok etadigan hissa (ulush) va so‘rovning darajaliligi. Kuch va ijtimoiy masofa bilan o‘zro bog‘liq holda namoyon boladi, ya’ni kuch darajasiga ega bo‘lgan yoki ega bo‘lmagan odamlarga qaratilgan bir xil so‘rov turli xil xushmuomalalikni talab qiladi. Agar suhbatdoshlar o‘rtasida ijtimoiy jihatdan dominant rolga ega shaxs mavjud bo‘lsa, masalan, yuqori ijtimoiy status, kuch yoki avtoritetga ega bo‘lgan agent (masalan, rahbar, katta yoshli yoki ekspert) bo‘lsa, kommunikatorlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa minimal bo‘lsa, unda so‘zlovchi bevosita illokutiv aktlardan foydalanishga moyil bo‘ladi. Bunday holatda, yuqori statusli shaxsning

kuch va mavqe imtiyozlari nutq harakatida pragmatik ehtiyotkorlik yoki xushmuomalalik strategiyalari talab qilmasligini anglatadi, bu esa nutqning bevosita performativ xarakterini kuchaytiradi.

Aksincha, suhbatdoshlar o'rtasidagi kuch differensiali past bo'lsa yoki kommunikatorlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa kattaroq bo'lsa (masalan, ijtimoiy distansiya yoki ijtimoiy kuch farqi sezilarli bo'lsa), unda so'zlovchi bilvosita illokutiv aktlarga murojaat qiladi. Bu bilvosita strategiyalar tinglovchining ijtimoiy yuzini saqlash (face-saving acts) va ijtimoiy munosabatlar kontekstida yuzaga kelishi mumkin bo'lган tahdidlarni minimallashtirish maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga, bu strategiyalar yuqori darajadagi pragmatik xushmuomalalikni saqlash va kommunikativ jarayonlarda ijtimoiy ierarxiyalarni yumshatish vazifasini bajaradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, har qanday suhbatda bu sotsiopragmatik parametrlar ishtirok etadi:

Er-xotinning bir-biriga unsiz tikilib turishi uch-to'rt nafas davom etdi. Ammo Asadbekning nazarida soniyalar soatlar kabi kechdi. Beixtiyor: "Gapir!"— dedi. Biroq, ovozini o'zi ham eshitmadi. Hatto tili ham muzlab qolganday g'o'dirandi. Manzuraga bu ovoz g'oyibdan eshitilganday bo'ldi. Gapirishga mador topolmay yutindi.

Asadbek o'zini qo'lga olishga harakat qildi:

– Topildimi?

Manzura "ha" deganday bosh irg'ab, yig'lab yubordi.

– Tirikmi?

Asadbek nima uchun bunday deb so'riganini o'zi ham bilmadi.

– Xudoga shukr, tirik... – Manzura shunday deb labini tishladi.

Shu so'z Asadbekka jonini qaytarib berdi. Shart o'rnidan turib xotiniga yaqinlashdi-da, uni ikki yelkasidan tutib, silkidi:

– Unda nimaga yig'laysan, nimaga vahima qilasan?

Manzura boshini egib, yig'lab yubordi. Asadbek, shu paytgacha xotinini chertmagan odam, tarsaki qo'yganini o'zi ham sezmay qoldi.

– Gapir, deyapman!

O‘zini qo‘lga olish uchun Manzuraga shu tarsaki kifoya edi.

- *Mengina o‘lay... qizingiz... aytolmayman, dadasi...*
- *Gapir, xuddi bo‘g‘ib tashlayman, – Asadbekning ovozi tahdidli, bu shunchaki bir po‘pisaga o‘xshamas edi. (“Shaytanat”- I kitob. 4-b.)*

Ushbu suhbat bosh qahramon Asadbek va uning turmush o‘rtog‘i bilan bo‘lgan muloqoti bo‘lib, ayolning Sharq dunyosiga xos bo‘ysunuvchan, kamtarlik, g‘amxo‘rlik, onalik tuyg‘ulari aks etganligini, ayol nutqida “*xudoga shukur*”, “*mengina o‘lay*” kabi birliklarning qo‘llanishida ham uning tabiatida shukronalik, itoatkorlik, tabitan yumshoqlik kabi fazilatlar ham yo‘g‘rilganini ko‘ramiz. Muloqot nosimetrik bo‘lib, ular bir oila vakillarining ijtimoiy masofasi yaqin bo‘lsa-da, kuch (erning xotindan yuqori maqom) ga egalik nuqtayi nazaridan xushmuomalalik bevosita (bald on record) strategiya asoslangan direktiv nutq aktdan foydalanilganligini kuzatamiz.

Ijtimoiy identifikatsiya orqali odamlar o‘zlarini ma’lum bir sotsial guruh bilan bog‘laydilar, bu guruh qadriyatlarini, normativlari, maqsadlari va hatto muloqot strategiyalarini o‘zlarining shaxsiy identifikatsiyalari bilan birlashtiradilar. Natijada guruh identifikatsiyasi shakllanadi. Guruh identifikatsiya nuqtayi nazaridan til muayyan sotsial qatam a’zolari orasidagi ijtimoiy munosabatlarni belgilaydi va ular o‘zaro muloqotda argo, jargon, laqab, sheva, elipsis (maxsus qisartmalar) kabi bir qancha maxsus nutq vositalaridan foydalanish natijasida muayyan qatlama mansubliklarini namoyon etadilar.

Yuqoridagi tahlilardan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy identifikatsiya hamda muloqot o‘zaro uzviy bog‘langan jarayonlardir. Muloqot orqali shaxslar, sotsial qatlamlar o‘z ijtimoiy o‘rnini, kimligini va guruh a’zoligini belgilaydi. Muloqotda foydalaniladigan til shakllari, kontekstual strategiyalar, lingvistik markerlar orqali ijtimoiy identifikatsiya ifodalanadi, mustahkamlanadi. Til shaxslarning ijtimoiy rolini, guruh ichidagi o‘zaro munosabatlarini aniqlashda asosiy vosita bo‘lib, u ijtimoiy tuzilma va madaniy konteksti aks ettiradi. Ijtimoiy identifikatsiya doimiy ravishda muloqot jarayonida shakllanadi, rivojlanadi, bu jarayon orqali guruhning ichki birdamligi hamda tashqi guruhlardan ajralishi ta’minlanadi..

3.2-§. Sotsiolektlarning guruh identifikatsiyasidagi o‘rni

Til va shaxs munosabatlarini yoritib berishda eng muhim manba bu badiiy matndir. Zero, u tilning barcha sathlarini mujassam etuvchi nutqiy tuzilma bo‘lishi bilan birga so‘zlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy kompetensiyasini o‘zida to‘liq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Matnning tashqi va ichki tuzilishi muayyan millatga mansub til egalarining shaxsning lisoniy qobiliyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos ko‘zguga o‘xshatish mumkin¹⁴⁴ va ana shu “ko‘zgu” ijtimoiy qatlamlar nutqining tadqiq etilishi uchun ham boy manba bo‘la oladi.

Ijtimoiy guruhlar – muntazam ravishda bir-birlari bilan o‘zaro munosabatga kirishadigan shaxslar qatlamidir. Ularning jamiyatdagi mavqeyi hukmron ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liqdir. Bir xil faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘xhash, maqsad va qadriyatları umumiyligi bo‘lgan kishilar ham alohida ijtimoiy guruh identifikatsiyani tashkil etadi¹⁴⁵ va ularning nutqida sotsiolektlar ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sotsiolekt – umumiyligi ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan muloqot shakli. Mazkur shakllar ijtimoiy chegaralangan kishilar guruhining kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qiladi¹⁴⁶. Sosiolektlarning asosiy xususiyatlari sotsial chegaralanganligi, o‘zaro tildan foydalanishda o‘ziga xos leksik, fonetik, grammatik, uslubiy farqlar mavjudligi, guruh identifikatsiyasini aks ettirishi, doim o‘zgarish va rivojlanib turishi bilan xarakterladi.

O‘zbek tilshunosligida sotsiolektlar *ijtimoiy chegaralanga leksika, ijtimoiy dialekt, maxsus leksika, yopiq leksika, noadabiy nutq birlıkları, noadabiy qatlamları* kabi nomlar bilan ataladi va bu borada Q.Rasulov, D.Satimova, X. Shaxabitdinova, X.Yo‘ldosheva kabi tilshunoslar maxsus tadqiqot olib borishgan bo‘lib, jargon, argo va slang terminlarining farqli belgilari, nutqda qo‘llanishini sotsiolingvistik, sotsiopragmatik jihatdan tahlil etganlar¹⁴⁷.

¹⁴⁴ Xudoyerdiyeva D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 5.

¹⁴⁵ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 60.

¹⁴⁶ Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2019. – B. 19.

¹⁴⁷ Rasulov Q. O‘zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtores – Toshkent, 2008. – B. 10.; Shaxabitdinova Sh., Satimova D. O‘zbek tilshunosligida sotsiolekt ko‘rinishlari tadqiqi va talqin // Qo‘qon

X.Yo'ldosheva badiiy matnda qo'llangan sotsiolekt turlarining deyktik xususiyatlarini tahlil qilib, ularga jargon, argo va slanglar kirishini ta'kidlaydi hamda ularni izohlaydi. Argo qo'lllanish doirasi tor ijtimoiy guruh manfaatlariga xizmat qiluvchi maxsus nominatsiyalarning yopiq leksik tizimdir. Jargonlar ma'lum bir ijtimoiy guruh va umumiylashtirish asosida birlashgan guruh vakillari o'rtasida o'zaro kelishuv asosida qo'llaniladigan va ma'nosi o'zlarigagina tushunarli bo'lgan til birliklaridir. Slang – so'zlashuv tilining me'yoriy leksik va frazeologik birliklarining amaliy ochiq quyi tizimi, uning stilistik xilma-xilligi, kuchaytirilgan ifoda va alohida baholovchi tusni ifodalash uchun mo'ljallangan.¹⁴⁸

Tohir Malikning asarlari o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ularning sotsiopragmatik jihatlari tadqiqot uchun boy manba bo'la oladi. Yozuvchining badiiy ijodida ko'pincha o'zbek o'g'rilar, jinoyatchilar, mafiya, o'smirlar va shu kabi ijtimoiy qatlamlarning hayoti yoritilgan. Ushbu guruhalor orasida qo'llaniladigan til, ya'ni sotsiolektlar, asarlarning badiiy matnida o'ziga xos leksik va stilistik ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida o'g'ri – mahbuslar hayotini tasvirlar ekan, bu qatlarning o'ziga xos nutqini ochib berish uchun noadabiy qatlamga mansub sotsiolektlardan unumli foydalangan Asarda "qonundagilar" so'zi ko'p bora qo'llangan bo'lib, bu so'z "взор в законе – qonundagi o'g'ri" birikmasining qisqargan ko'rinishidir. "Qonundagi o'g'rilar" (asarda qonundagilar deya qo'llangan) – bu jinoyat olamining eng nufuzli qatlami bo'lib, ular o'z qonunlariga, ya'ni o'g'rilar qonuniga har qanday holatda ham og'ishmay amal qiladigan odamlarni anglatadi, ya'ni bu yerda jamiyat tomonidan qo'llanadigan qonunlar bilan adashtirmaslik lozim¹⁴⁹. O'g'rilar nutqida "tojdor o'g'ri", "toj kiymoq" kabi birikmalar ham qo'llangan bo'lib, bu ularning "qonuni" da o'g'rilarning eng nufuzli va sanoqlilari toj kiyishdek o'ziga xos sharafga munosib ko'rilgan hamda ularning so'zлари, hukmlari bu doirada o'ziga xos qonun darajasida qabul qilingan. Bu ijtimoiy qatlam vakillari o'z "qonun" lariga qat'iy

DPI Ilmiy xabarlari, 2021, № 1. –B.146.; Satimova D. Ingliz va o'zbek yoshlar slengining qiyosiy tahlili: Filol. fan.bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Andijon, 2020. – B.12.

¹⁴⁸Yo'ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. – Qarshi: "Intellekt", 2022, – B. 179-188.

¹⁴⁹Zohidov A."Вор в законе" – "Qonundagi o'g'ri" kim? // Kun.uz. – 23.05.2023.

amal qilib, o‘zlarini “yuqori qatlam” vakillari deb hisoblaydilar va o‘z nutqilarida turli birikmalardan foydalanadilar: *o‘g‘rilarning muqaddas oilasi, mehribon, halol o‘g‘ri, ulug‘ o‘gri, tojdar o‘grilar, pok va muqaddas nom – o‘g‘ri nomi, o‘grilarning muqaddas olami, buyuk o‘g‘ri, o‘g‘rilar bir so‘zli, mehribon o‘g‘ri, mo‘tabar o‘g‘ri va h.k.* Bu kabi birliklar fanda oksymoron deb ataladi. Oksymoronda mualliflik voqealik faktlariga, turli hodisalarga munosabati, ularni ma’lum bir pozitsiyada turib baholashi badiiy tarzda o‘z aksini topadi. Tilshunoslik bo‘yicha yaratilgan lug‘atlarda ham uni izohlashda funksional uslubiy xususiyatlari o‘z aksini topadi: Mantiqan biri ikkinchisni inkor etadigan, bir-biriga qaramaqarshi bo‘lgan ikki tushunchani o‘zaro qo‘sishdan iborat uslubiy figura; badiiy adabiyotda ifodalilik va obrazlilik kabi maqsadlarda qo‘llanadi¹⁵⁰.

– *Knyazingning kuni bitdi, – dedi Qo‘tosga qarab. Bu kutilmagan xabar Nuriddinni ham, Qo‘tosni ham tang qoldirdi.*

– *Nima bo‘ldi? – dedi Qo‘tos o‘rnidan turib.*

– *Nima bo‘lardi, – dedi Koshak Nuriddinga qarab zaharli tirjayib, – kuni bitgandir-da. Qo‘llariga kishan urib, hibssonaga tashladilar.*

– *Kim tashladi? Nimaga tashladi?*

– *Nimaligini ulardan so‘ra. Knyazing keyingi paytda o‘zini rostdan ham “knyaz” deb ishonib qoluvdi. Uni uch harf tinchitadi endi.*

– *Koshak, sen bundan quvonyapsanmi? – dedi Qo‘tos achchiqlanib.*

– *Bo‘lmasam-chi! Endi bu yerda men knyazman!...*

(“Murdalar gapirmaydilar” 133-b.)

Bu matnda guruh ichida til birlarining qanday qo‘llanishi bo‘yicha aniq pragmatik konvensiyalar shakllangan. Bu konvensiyalar (kelishuvlar), odatda, ijtimoiy qatlam a’zolari orasida uzoq muddat davomida shakllangan bo‘lib va o‘zaro muloqot samarali, qisqa, tushumovchiliklardan holi bo‘ladi, chunki argolar ma’lum vaziyatlarda qaysi ma’noda qo‘llanishi barcha a’zolarga birdek ma’lum bo‘ladi. Demak, kontekstda qo‘llangan *knyaz* – *o‘g‘rilar yetakchisi, “uch harf”*

¹⁵⁰Yuldosheva M. Badiiy asarda qo‘llangan ayrim ijtimoiy qatlamlar nutqining sotsiopragmatik tahlili // NamDU axborotnomasi, 2023. – № 6. – B. 309-313.

argosi Soet ittifoqi davrida Davlat xavfsizlik tashkiloti “KGB” (Komitet Gosudarstvennoy Bezopasnosti) uch harfli qisqartma bilan tanilgan¹⁵¹ (O‘zbekistonda esa bu tashkilot “MXX”, keyinchalik “DXX” deb ataladi)ligi guruhning barcha a’zosi uchun tushunarli va bu qo‘sishimcha izoh talab etmaydi.

Qissada personajlar nutqida qo‘llangan bunday argo birliklar asosan yashirin yoki ma’lum submadaniy guruhlar orasida qo‘llanilishi, ma’lumotni yashirishga mo‘ljallanganligi, guruh ichidagi muloqotni maxfiy saqlash va tashqi odamlarni chalg‘itish maqsad qilganligi bilan ajralib turadi:

– *Sen, albatta, tuhmat bilan qamalgan bo‘lishing kerak, a?*

Qora bulut choki so‘kilib, birdan quyosh charaqlaganday bo‘ldi: Tengiz Tursunalining ko‘nglidagi gapni topib aytgan edi.

– *Ha, tuhmat bilan qamashdi, – dedi Tursunali yutinib.*

Bu yerdagilarning hammasi o‘zini passajir deb hisoblaydi. Seni bu yerga tuhmat boshlab kelmagan. Hasislik qilgansan. Pupkarlarni vaqtida moylash kerak edi.

– Kimni?

– Milisani! Nima, bunaqa so‘zlarga tushunmaysanmi?

– Ularni... rosa moylaganman. Bekorga yeb ketishdi.

– Yetarli moylamagansan. Molning chanqog‘ini tomizg‘ichdagi tomchi suvlar bilan qondirib bo‘ladimi?

– *Bizning ish Maskovning qo‘lida edi. Ularni chelaklab ham sug‘orib bo‘lmas ekan... (“Murdalar gapirmaydilar”, 5-b.)*

Mazkur kontekstda qamoqdagi o‘g‘rilar to‘da boshlig‘i Tengiz va yangi qamalgan Tursunali o‘rtasidagi suhbat keltirilgan bo‘lib, adresant (Tengiz) o‘g‘rilar to‘dasining boshlig‘i sifatida yuqori mavqega ega, bu uning suhbatda adresat (Tursunali) ga II shaxs birlik – “sen” olmoshi orqali murajaat qilganidan sezishimiz mumkin. U suhbat davomida o‘g‘rilar guruhiga xos argo so‘zlardan foydalangan, bu esa uning to‘da ichidagi mavqeyini namoyish etibgina qolmay, suhbat davomida o‘z ustunligini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Ammo Tursunali,

¹⁵¹ <https://ru.wikipedia.org>

yangi qamalgan bo‘lib, “*passajir*” – *tasodifan qamalgan odam*¹⁵², “*pupkar*” – *militsiya* kabi “parol” so‘zlarni tushunmaydi va bu uning guruhga mansub emasligi, yangi, tajribasiz ekanligini ko‘rsatgan. Argo tilidan foydalanish Tengiz uchun to‘da ichidagi o‘z mavqeyini mustahkamlash bilan birga ham tinglovchini sinash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. So‘zlovchining asosiy kommunikativ niyatini argolar orqali bilvosita ifodalangan, asl maqsad uni kimligini (qaysi guruhga mansubligini) aniqlash edi. Bu tushunmovchilik muloqotda ijtimoiy kuchning bir tomonlama bo‘lganligini va kommunikatsiyada qiyinchiliklarga vujudga keltirgan, ammo adresatning “*moylamoq*” – *pora bermoq*¹⁵³ so‘zini tushunishi suhbatni davom etishiga vosita bo‘ldi. Bu so‘z ommalashgan argo bo‘lib, u jinoyatchilikdan tashqari jamiyatning boshqa qatlamlarida ham ma’lum darajada tushunarli bo‘lib ketgan va o‘zini “sirliligi”ni yo‘qotgan.

Ushbu vaziyatda sotsiopragmatik diskrepans, ya’ni til ishlatalishidagi farqlar yoki tafovutlar yuzaga keladi. Guruh a’zolari “begona” kishi bilan bo‘ladigan suhbatdosh “tili”ni odatdagi tarzda qo‘llaganda yot kishi bu tilni tushunmaydi va muloqotning pragmatik maqsadi amalga oshmaydi. Buning natijasida guruh a’zolari o‘z so‘zlarini yoki ifodalarini “oddiyroq til” da qayta tushuntirishga majbur bo‘lishadi, bu esa muloqotning samaradorligini pasaytirishi mumkin:

...*Pachoqburun – bir mahbus yaqinlashib, he yo‘q, be yo‘q:*

– *Ey chuchmek, yur bu yoqqa! – deb buyurdi.*

Tursunali u damda osiyoliklarning “chuchmek” deb atalishini bilmas edi.

Shu sababli murojaat kimga qaratilganiga anglamay:

– *Menga aytyapsizmi? – deb so‘radi.*

Pachoqburun hech bir takallufsiz Tursunali tomon chirt etib tupurdi-da, labini kafti bilan artdi:

– *Senga aytyapman! – deb to‘ngilladi. (“Murdalar gapirmaydilar”, 48-b.)*

Tursunaliga o‘g‘rilar “tili”da gapirilishi, uning bu muhitda o‘zini begona va past mavqega ega deb his qilishiga sabab bo‘lgan. Guruh a’zosi “chuchmek”

¹⁵² Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. www.ziyouz.com

¹⁵³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. – B. 609. www.ziyouz.com

so‘zini qasddan ishlatib, o‘z ijtimoiy qudratini namoyish etibgina qolmay, tinglovchiga nisbatan haqoratni ifodalaydi. ”Chuchmek” so‘zi bir vaqlari Rossiyada Markaziy va Janubiy Osiyo (ayniqsa, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va boshqa o‘rta osiyoliklar) yoki Kavkazdan kelgan kishilarga nisbatan kamsituvchi yoki salbiy ma’noda qo‘llanilgan va milliy kamsitish, begonalarga nisbatan g‘azab, nafrat munosabatni ifodalash uchun xizmat qilgan. Bu so‘z talaffuzi turkiy tillar fonetikasiga yaqin, lekin etimologiyasi haqida aniq ma’lumot yo‘q, rus jamiyatida milliy ajratish yoki kamsitish maqsadida o‘zgartirilgan yoki qabul qilingan bo‘lishi mumkin¹⁵⁴. Demak, bu so‘z disfemik argo bo‘lib, kontekstda milliy ajralish va kamsitishning til orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatgan. Ammo adresat so‘zlovchining kommunikativ maqsadini tushunmadi, suhbat muvaffaqiyatsiz tugadi. Argo guruhgaga mansub bo‘lmagan yoki yangi a’zosiga nisbatan tushunarsiz bo‘lsa, bu so‘zlar tinglovchining salbiy yuziga (erkinligiga) tahdid soladi, chunki bu yashirin birliklar orqali adresat o‘zini yolg‘iz, cheklangan his qiladi.

Bundan ma’lum bo‘ladiki, guruh a’zolari parol so‘zlar orqali o‘zaro muloqotda tilni kodlash, shifrlash usullaridan foydalanib muloqot qiladilar. Bunday “parollash” begona kishilarni suhbatdan chetlatish uchun maxsus ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning suhbat mazmunini tushunishiga yo‘l qo‘ymaydi. Kodlangan tilni pragmatik ma’nosini bilib olish maxsus “kalitlar” guruhgaga begona bo‘lgan kishida bo‘lmaydi. Qachonki, u shu guruhgaga qabul qilinib va ma’lum vaqt dan so‘ng shu sotsial qatlam nutqini o‘zlashtirib olgandagina guruhgaga oid til identifikatsion belgilarni tushana boshlaydi.

A.Omonturdiyev bu kabi noadabiy nutq birliklari uchun “argo – simvolik evfemika” terminidan foydalanadi. Argonsimvolik nutq umumxalq nutqiga xos bo‘lmagan, ya’ni muayyan til egalari tomonidan bir xil tushunilmaydigan, ma’lum sotsial qatlam yoki kasb-hunar egalari (o‘g‘ri, qimorboz, chayqovchi, savdogar, jinoyatchi, bezori, harbiylar, yuristlar, mahbuslar va h.k.)ning ma’lum maqsad va

¹⁵⁴ <https://ru.wiktionary.org/wiki/chuchmek>

manfaatlari uchun xizmat qiladigan xususiy, yashirin muomala vositasi¹⁵⁵ deya izohlagan edi.

Argolarni tadqiq etish bo‘yicha Tohir Malik asarlari boy manba bo‘la oladi, biz ham adibning asarlarida tasvirlangan ayrim sotsial qatlam nutqidagi argotizmlar paradigmmasini 3.2.1.-jadvalda keltirib o‘tamiz:

3.2.1-jadval.

Tohir Malikning ayrim asarlarida qo‘llangan argolar paradigmasi

O‘g‘rilar nutqida qo‘llangan argotizmlar paradigmasi¹⁵⁶ (“Murdalar gapirmaydlar” qissasi asosida)		
Nº	Argo (o‘g‘rilar nutqidan)	Izoh
1	Kozyol	o‘g‘rilar orasidan qamoqxonaga ma’muriyatiga faol yordamchi
2	Biksa	xotin
3	Malyava	xat
4	Tramvayga qo‘yish	hammomga olib kirib, yigirma-o‘ttiz marta “gaplashib” qo‘yish (urish)
5	Bespredelshik	sadizmni xush ko‘rvuchi, “qonundagi” larning odatini tan olmovchi, vahshiysifat odam
6	Kum	qamoqxona lageri boshlig‘i
7	Lepila	do‘xtir
8	Lager teletaypi	o‘g‘rilar xabarnomasi
9	Qonundagilar	o‘g‘rilar, jinoyatchilar
10	Politbyuro	tojdor og‘rilardan iborat kengash
11	Xit	qonun odamlari
12	Kurort mavsumi	qamoq muddati
13	Qanjiq	o‘g‘ri nomi bilan niqoblangan qonunga sotilgan sobiq “jinoyatchi”
14	Tovuq	yomon axloqli ayol
15	Juchok	yosh o‘g‘rilar
16	Yenze	yarishirib qo‘yilgan aroq
17	Gaplashib qo‘yish	kaltaklash
18	Pupkar	tasodifan qamalgan odam
19	Passajir	militsiya
20	Chuchmek	osiyoliklarni nazarda tutuvchi haqoratli so‘z
21	Politbyuro a’zolari	o‘g‘rilar kengashining kozga ko‘ringan vakillari
22	Uch harf	DXX (bugungi kun bilan aytganda)
Giyohvandlar nutqida qo‘llangan argotizmlar paradigmasi “Eng kichik jinoyat” qissasidan		
21	Dori	giyohvand modda
22	Kayf qilmoq	giyohvand modda iste’mol qilmoq
23	Ko‘ki	dollar
24	Ignaga o‘tqazish	giyohvand moddaga o‘rgatish
25	“Kishmish” firmasi egasi	giyohvand moddalar yetkazib beruvchi
26	Parashok	kukun shaklidagi giyohvand modda turi
27	Nasha	giyohvand modda turi
28	Bexit	xavfdan holi
29	Ment	militsiya xodimi
30	Suxarik	nasha

¹⁵⁵ Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 58.

¹⁵⁶ Yuldasheva M. Badiiy asarda qo‘llangan ayrim ijtimoiy qatlamlar nutqining sotsiopragmatik tahlili // NamDU axborotnama, 2023. – № 6. – B. 309-313

Jargonlar kasbi, qiziqishi, yoshiga ko‘ra alohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og‘zaki nutqda ishatiladigan va ma’nosini boshqalar ko‘p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar¹⁵⁷ bo‘lib, quyidagi belgilarga ko‘ra argolardan farqlanadi:

- terminologik aniqlik, ya’ni jargonlar leksik birliklar orqali aniq va ma’lum bir semantik maydonga oid denotativ ma’nolarni ifodalaydi. Bu birliklar professional leksikon doirasida faqat shu sohadagi kommunikatorlar tomonidan to‘g‘ri dekodlanadi;
 - ma’lum bir sotsiumga xos bo‘lib, shu jamoa ichida foydalanish sotsiopragmatik identifikatsiya va guruhga oidlikni ko‘rsatadi;
 - kommunikativ-funksional jihatdan samarali muloqotni ta’minlash uchun ishlataladi. Ular lo‘nda va qisqa tarzda murakkab kognitiv jarayonlarni ifodalaydi;
 - jargonlar kontekstual determinatsiya (aniqlash)ga ega bo‘lib, ularning semantik va pragmatik ma’nolari faqat o‘zining ixtisoslashgan pragmatik makonida to‘g‘ri talqin qilinadi;
 - diaxronik lingvistika nuqtayi nazaridan doimiy ravishda rivojlanib boradi, hamda leksik taraqqiyot natijasida yangilanib, neologizmlar bilan boyib boradi;
 - turli kontekstiv aloqalarda semantik interferensiya (ta’sir qilishi) va pragmatik kontrast sababli tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. Bu esa lingvistik tranzaktsiyada (axborot almashunuvi) kommunikativ bo‘shliqlar paydo bo‘lishiga olib keladi.
- *Boshliq topqirligingga qoyil qoldi.*
 - *Qaysi topqirligim?*
 - *Diskotekada sovitgich orqali qoradori kukuni purkashlarini gumon qilganingda, to‘g‘risini aytsam, yosh bolaning laqmaligi deb o‘ylovdim. ... “Ish” yaxshi yakunlansa, yulduzchalaring ko‘payib qolishi hech gapmas... (“Eng kichik jinoyat”, 110-bet)*

Tergovchilar va huquq-tartibot organlari vakillarining nutqida keng qo‘llaniladigan “ish”, ”yulduzcha” so‘zlari maxsus kasbiy jargonlar sifatida

¹⁵⁷ Sayfullayeva R., Mengliyev B. va bosh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – B. 125.

namoyon bo‘lgan. “Ish” so‘zi tergov jarayoni yoki jinoyat ishi ma’nosini anglatadi, “yulduzcha” esa xizmatdagi yantuqlar va lavozim oshishini bildiradi. Ushbu jargon so‘zlarning kontekstual qo‘llanilishi ijtimoiy guruh ichidagi kommunikatsiyani optimallashtirgan va uning samaradorligini oshirishga sabab bo‘lgan. Bu so‘zlar lingvistik presuppozitsiya asosida ishlatiladi, ya’ni so‘zlovchi tinglovchining ushbu terminlarning maxsus kasbiy ma’nolarida nimani anglatishini oldindan biladi. Bunday presuppozitsiyalar soha vakillari o‘rtasidagi kooperativ kommunikatsiya (hamkorlik)ni ta’minlaydi, bilvosita kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu jargonlar miya faoliyatida ma’lum kognitiv tuzilmalar hosil qilib, ularning kontekstual ma’nosini tez va samarali anglash imkonini beradi. Xushmuomalalik strategiyalari nuqtayi nazaridan, bunday jargonlar ijtimoiy yaqinlikni oshiradi, soha ichidagi muloqotda do‘stona va hamkorlikka asoslangan muhitni mustahkamlaydi. Shu tariqa, ushbu jargonlar ijtimoiy guruh ichidagi muloqotning mazmunli va samarali bo‘lishiga katta hissa qo‘sadi, bu esa ularning kommunikativ ahamiyatini yanada oshiradi.

Slang – bu norasmiy til turi bo‘lib, odatda kundalik suhbatlarda qo‘llaniladigan so‘zlar va iboralardan iborat. U muayyan ijtimoiy guruhrar ichida paydo bo‘ladi va identifikatsiya qilish yoki birdamlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Slang tez o‘zgaruvchan bo‘lib, hudud, yosh va ijtimoiy kelib chiqishga qarab farq qilishi mumkin. U ko‘pincha tilni kreativ va noodatiy usullarda qo‘llashni, ya’ni leksik- semantik innovatsiyalarni yaratishni o‘z ichiga oladi, ko‘pincha standart til qoidalaridan chetga chiqadi, bu esa tilshunoslikda normadan chetlashish sifatida qaraladi. Shunga qaramay, slang til evolyutsiyasida, guruh identifikatsiyasini ifodalashda muhim sotsiopragmatik ahamiyatga ega.

M.Erkinova slangni izohlar ekan, ma’lum vaqt o‘tgach, iste’moldan chiqib ketishi mumkinligi va ularning o‘rnini yangi bir muqobili egallashini aytadi¹⁵⁸. Bundan ma’lum bo‘ladiki, bunday sotsiolektlar zamon bilam hamnafas yashaydi, jamiyat qatlamlari bilan teng eskiradi.

¹⁵⁸ Erkinova M. O‘zbek tilida jargon, argo va slenglarning qo‘llanishi // “O‘zbek flologiyasi muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy–amaliy anjumanasi. – Toshkent: Anorbooks, 2024. – B. 49-53.

— Paxan telefon qilib, eski mebellarni sot, deb buyurdilar. Amerikadan yangisini olib kelisharkan.

— Amerikadan? Shu yerning o‘zida Italiyanning zo‘r mebellari tiqilib yotibdi-ku?

— Paxanning o‘zi biladi, balki pulini u yoqda topib, mebelni shu yerda olgandir.

— Uylangan, deb eshituvdim, xotining ko‘rinmaydimi?

— Xotinni bir tepib kelgan joyiga ketkizvorganman.

— Nega?

— Shalava ekan, bilasan-ku, hozirgi tovuqlarga shunday bo‘layapti.

— Qarab, surishtirib ololmaysanmi?

— Babkam topgan edi, surishtirishga qo‘yarmidi?

— Buvning qayerdalar hozir?

— Bilasan-ku, buvim delovoy babka. Kunda bir bozorga tushmasa, kasal bo‘lib qoladi. (“Eng kichik jinoyat”, 60-b.)

Yuqoridagi dialogik kontekstda qo‘llangan *paxan*, *tovuq*, *babka* slanglari kommunikatorlarning yoshiga, shuningdek *paxan slengi* orqali – erkak kishi, ota; *tovuq* – qiz bola, *babka* (bab-; suffiks: -k; qo‘shimcha: -a¹⁵⁹.) – ayol kishi, buvi kabi sotsial identifikator belgilarga ishora qiluvchi ijtimoiy deyktik birligi vazifasini bajargan. *Shalava* slangi esa ayol kishining yomon tabiatli ekanligini ifodalash uchun qo‘llanuvchi salbiy ottenkali – disfemistik slang vazifasini bajargan. Bu esa adresatning ayollarga nisbatan salbiy munosabatni ko‘rsatgan. *Delavoy* – ishni ko‘zini biladigan, ishchan, ishbilarmon¹⁶⁰ ma’nosini beruvchi bu slang tinglovchiga adresantning buvisi, mehnatkash, harakatchan ekanligi haqida presuppozitsion axborot beradi.

Kontekstda qo‘llangan “*paxan*” so‘zi odatda jinoyat olamida avtoritet, kuch va guruhning yetakchisi sifatida yuqori ierarik maqomini ko‘rsatuvchi argo hisoblangan. Ammo sotsiopragmatik jihatdan bu so‘zning otaga nisbatan

¹⁵⁹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/babka>.

¹⁶⁰ <https://uz.wiktionary.org/wiki/delavoy>

qo‘llanishi so‘zning kontekstual moslashuvchanligi va uning konnotativ ma’nolari orqali anglashiladi. Oilaviy, ijtimoiy kontekstda “paxan” so‘zi otaning rahbarlik mavqeyini ifodalash uchun qo‘llangan.

Demak, slang til shakli sifatida, ijtimoiy dinamikalar, guruh identifikatsiyasi va shaxslararo munosabatlar haqida ko‘p narsalarni ochib beradigan o‘ziga xos sotsiopragmatik xususiyatlarga ega ekan. Ushbu xususiyatlar ichiga guruh ichidagi birdamlikni yaratish va mustahkamlash qobiliyati kiradi, bu orqali a’zolar o‘zlarini tashqaridagilardan ajratib ko‘rsatish uchun umumiyligining lingvistik kodlardan foydalanadi. Slangdan foydalanish, yosh, kasb yoki submadaniyatga asoslangan ma’lum bir ijtimoiy guruh a’zoligini ko‘rsatadi va shu bilan ijtimoiy identifikatsiya belgisiga aylanadi.

3.3-§. Tohir Malik asarlarida qo‘llangan laqablarining ijtimoiy-pragmatik tadqiqi

Til insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish va mustahkamlash uchun asosiy vosita bo‘lib, turli xil shaxslararo aloqalarni ifodalashga xizmat qiladi. Tilning semantik va pragmatik xususiyatlari orqali odamlar bir-birlarini aniqlash, tanish va tasniflash uchun turli xil nomlash usullaridan foydalanadilar. Ana shunday nominalizatsiya vositalaridan biri laqablardir.

“Laqab – shaxsning tashqi ko‘rinishi yoki xarakteridagi ma’lum belgi yoki xususiyatiga ko‘ra, uning ijtimoiy ahvoli yoki nasl-nasabiga ko‘ra nomlanishidir¹⁶¹. Laqablar maqom, obro‘, yutuq, imtiyoz, ijtimoiy mavqeyi, ijtimoy faoliyat natijasini ifodalaydi. Laqablar ko‘pincha ixtiyoriy shakllanmasligini, inson va jamiyat omillarini asosida kurtak otishini kuzatamiz. Badiiy matnda personajlarning laqabi ularning shaxs sifatidagi ijtimoiy belgilari: millati, jinsi, yoshi, kasbi haqida axborot berishga xizmat qiladi.

Laqablarda nominativlik bilan bir qatorda ekspressivlik mavjudligi, ba’zi laqablar salbiy emotsiyal bo‘yoqqa ega bo‘lsa, ayrimlari ijobiy bahoga ega bo‘lishi va boshqa xususiyatlari E.Qilichevning maqolasida yaxshi tahlil qilib

¹⁶¹ Ernest Begmatov/ O‘zbek tili antroponomikasi/ – Toshkent: Fan nashriyoti, 2013. – B. 50.

berilgan¹⁶². Bundan ma'lum bo'ladiki, o'zaro muloqotda laqablar shaxs haqida salbiy yoki ijobjiy baho ottenkasini ifodalash uchun bilvosita strategiyaning bir turi sifatda baholanishi mumkin ekan.

B.Qilichev S.Ayniy asarlaridagi antroponimlarni tadqiq etib, laqabning satirik ma'no ifodab kela olishini, xalq dostonlarda qo'llangan laqablar hazil yoki masxara ma'nosida qo'llanganligini yozadi¹⁶³. Ko'p hollarda shaxsning jismoniy kamchiligidan (shaxsning jismoniy kamchiligiga oid laqablar kishilarning tabiat, xarakteri, o'xshashligi, tug'ma yoki orttirilgan nuqsoni asosida) kelib chiqib qo'yilgan laqablar salbiy ma'no ifodalaydi¹⁶⁴.

Laqablar – bu shaxslar yoki guruqlar o'rtasidagi muloqotda muhim sotsiopragmatik (til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqani nutqning maqsadlari, ijtimoiy kontekst va tinglovchi bilan bog'liq bo'lgan tilshunoslik sohasi) funksiyalarini bajaruvchi til birliklaridir.

Laqablar, odatda, insonlarning fiziologik, kogniktiv (bilish, tushunish va aqliy qobiliyatlar bilan bog'liq jarayonlar), xulq-atvor, jinsiy, etnik yoki ijtimoiy xususiyatlariga asoslanadi. Shunga ko'ra Tohir Malik asarlaridagi laqablarning leksik-semantik strukturasini quyidagi 3.3.1-jadvalda keltirib o'tamiz:

3.3.1-jadval.

Tohir Malik asarlari qo'llagan ayrim laqablar paradigmatisasi

№	Ijtimoiy omillar	Laqab	Izoh
1.	Ma'lum bir belgi (sifat)ga ko'ra	Go'sala	Ismi Anvar, do'mboq, beg'am, doim iljayib turadi. ("Shaytanat" 1/ 147-b.)
		Akademik	Ismi Zelixon, puxta o'ylab ish qiladi. ("Shaytanat" 1/ 47)
		Hamzat	Ismi Nuriddin, mard, jasurligi uchun Hamzat ismli vatanparvarga nisbat berib qo'yilgan. ("Murdalar gapirmaydilar" 10-b.)
		Psix	Asabiy bo'lgani uchun ("Jinoyatning uzun yo'li", 69-b.)
		Shilimshiq	Ismi Jalol. "suyuq", shilqim", ayollarga suyagi yo'q. ("Shaytanat" -1. 202-b.)
		Chuvrindi	Ismi Mahmud. Haydar uni birinchi bor ko'rganda yupun, chuvrindi bir holda edi. ("Shaytanat" - 2. 55-b.)
		Sur	Ismi Axtam. Oldingi laqabi Murda bo'lgan. Surbet so'zining qisqargan shakli. ("Shaytanat" -5.70-b.)
		Pachoqburun	So'xtasi sovuq, odamxo'r maxluq kabi xunuk. ("Murdalar gapirmaydilar" 4-b.)

¹⁶² Киличев Э. Лақаблардаги номинативлик//Хива, 1991. – № 1.– Б.25.

¹⁶³ Kilichev B. Onomastika. O'quv qo'llanma. – Buxoro, 2023. – B. 123 -129.

¹⁶⁴ Qodirova X.Xorazm shevalaridagi laqablar va ularni tadqiq qilishning nazariy va amaliy ahamiyati// Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B.101-103.

		Bo‘tqa	Ismi Kenja. To‘ladan kelgan, barvasta, lazzatini ovqatdan topgan odam. (“Shaytanat” –1. 74-b.)
2.	Jismoniy atributlar asosida	Qarimulla	Ismi Karim To‘qsonovich. To‘rt oy badalida “oyatalkursi”ni yod ololmay, ikkita kichik sura bilan tirikchilik qiladi. Kinoya ma’nosida nomlangan.
		G‘ilay	Qamariddinning ko‘zi g‘ilay bo‘lgani uchun shunday nomlangan. “Alvido bolalik”
		Jinagalak soch	Jamshidnng laqabi. (“Shaytanat”–1. 18-b.)
		G‘iybat	Odati g‘iybat, fisq-u-fasod bilan shug‘ullanadi, ismiG‘ayrat. Yana bir laqabi “Ofat”. (“Shaytanat” – 4/57-b.)
		Undirkom	Ismi Mirzakalon, undirmoq fe’liga aloqador, undirib olgani uchun (“Ozod inson haqida qo‘sish”, 34-b.)
3.	Nutqiy faoliyat yoki fonetik jihatdan	Qulvachcha	Ismi Mardiql. Ibrohim unga bolalaigida hazil bilan Qulvachcha deyaverib, gapirishga o‘rganib qolgan. (“Iblis devori” 33-, 49-b.)
		Demokrat	Nutqida ko‘p demokrat so‘zini qo‘llayvergani uchun (“Ozod inson haqida qo‘sish”, 54-b.)
		Za	Zarinaning qisqartirilgan varianti (“Eng kichik jinoyat” 13-b.)
		Shurik	Shuhrat ismining talaffuz varianti. (“Eng kichik jinoyat” 59-b.)
		Zulya	Zulfira ismining talaffuz varianti (“Eng kichik jinoyat” 76 – b.)
		Murik Knyaz Qo‘tos Bublik Bifshteks Oqqush Olov Shimol Garbuz Koshak Cho‘mich	Argo laqablar o‘z-o‘zidan nafaqat shaxsni identifikatsiya qilish, balki guruhgaga oidlikni ifodalash va uning ichki ijtimoiy mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. “Murdalar gapirmaydilar” asaridagi o‘g‘ri – mahbuslar ichida qo‘llanilgan bu laqablar guruh a’zolari o‘rtasidagi aloqa vositasiga aylangan. Ular ko‘pincha kodlash orqali bilvosita ma’lumot uzatish, guruh ichidagi mavqe, kuch yoki ijtimoiy rolining aks ettirgan. Shuningdek, bu laqablardan ijtimoiy kuchlarni taqsimlash va nazorat qilishda ham foydalanilgan.
4.	Argo sifatida (Kriminologik xarakteragi	Qulqoq	Shalrangquloqligi uchun emas, ezmalikni kasb qilgani bois. (“Iblis devori”, 27-b.)
		Alkash	Ismi Suhrob, ko‘p ichadi, giyohvand. (“Murdalar gapirmaydilar”)
		Qudrat sohibi	Ismi Charlz Long, hamma narsani yo‘q qilish, bor qilish qo‘limdan keladi deb, odamlarni bo‘ysindirishga harakat qiladi. (“Zaharli g‘ubor”, 3-b)
		Maks	O‘g‘rilar hayoti tasvirlangan filmning bosh qahramoniga taqlidan qo‘yilgan, o‘zi ham jinoyatchi (“Eng kichik jinoyat”, 21-b.)
		Olg‘irtoy	Kimni qo‘lida, cho‘ntagida narsa ko‘rsa olib qo‘yishga, ilib ketishga usta edi. (“Eng kichik jinoyat”, 67-b.)
		Kesakpolvon	Ismi Haydar. Arzirli narsa deb og‘irlagan belbog‘i ichidan kesak chiqadi, egasi tahorat uchun olvolgan edi. (“Shaytanat” – 1. 38-b.)
		Hovuz polvon	Ismi Egamberdi. Qishloqdagi katta hovuzni o‘zi tozalab, hammani hayron qoldirgani uchun shunday atalgan. (“Shaytanat” – 2. 95-b.)
		Murda	Ismi Axtam. O‘ldi deb o‘likxonaga tashlanganda tirik qolgan. (“Shaytanat”–5. 68-b)
		Otarchi	Qo‘sishchi Elchinning laqabi (“Shaytanat”)

		Maymun	Qoshlarigacha qirib yuradi, sertuk. (“Murdalar gapirmaydilar”, 8-b.)
6.	Hayvonga xos belgilarga assotsiyalashuv asosida	Esh-shak	Qaysarliging uchun emas, o‘qimagan sababli esh-shaksan. Esh-shak ham o‘zining ota-bobolarini bilmaydi. (“Murdalar gapirmaydilar”, 10-b.)
		Ayiq	Gavdasi ayiq kabi, fe’li qutirgan itdek (“Ov”, 13-b.)
		Qirg‘iyburun	Burni qirg‘ynikiga o‘xshagan edi. (“Davron”, 9-b.)
		O‘qilon	Asadbekning laqabi, o‘ljasini yo‘q qilmaguncha tinchimaydi. (O‘qilon o‘zi kichkina bo‘ladi, bu ilon o‘qday uchib yuradi, odamga duch kelsa tovonidan teshib, miyasidan chiqadi) (“Shayatanat”–1. 19-b.)

Laqablar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, identifikasiya qilish (biror shaxsni yoki guruhni ajratib ko‘rsatish), ijtimoiy maqomni belgilash kabi vazifalarni bajaradi. Bu til birliklarining ishlatalishi nafaqat shaxsni ajratib ko‘rsatish yoki identifikasiya qilish bilan cheklanmay, balki ko‘pincha muloqot jarayonida quvvat asimetriyasi (nutq ishtirokchilarining ijtimoiy yoki psixologik quvvat pozitsiyalaridagi nomutanosiblik)ni shakllantirish, ijtimoiy tartibni saqlash, guruh ichidagi aloqalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Laqablarni nutqda qo‘llanishi, funksional shakliy belgisiga ko‘ra ikkiga ajratish mumkin:

- *atoqli ot sifatida mustaqil qo‘llanuvchi laqablar;*
- *shaxs ismi bilan birga keluvchi laqablar*¹⁶⁵.


Shaxs ismlari bilan birga keluvchi laqablar ko‘pinch ism tarkibiga qo‘shib yoziladi:

Ichkaridagilarning biri – uy egasi – Mirkomilhoji. Yaqin-yaqinlarda Mirkomilboy desa odam u yoqda qolib, daraxtlar ham bir silkinib tushardi. Toshkentdagи ikki zavodga ega bo‘lgan bu odamning salobati, o‘zini tutishini ko‘rgan kimsa, “bu zavodning egasimi yo dunyonig xo‘jasimi?” deya yoqa ushlardi. O‘n yettinchi yilning bahoridan to kuziga qadar xo‘pam muloyimlashdi. Ishchilarining maoshini oshirdi, yo‘qsillarga inomlar berdi. Ko‘z tikkan umidi – Qo‘qon muxtoriyati barham topgach, qolgan umrini toat-ibodatga bag‘ishlaganini e’lon qildi. Endi Mirkomilboy emas, taqvodor Mirkomil hoji nomi bilan atashdi.

(“Savohil”, 8-b.)

¹⁶⁵ Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. –Toshkent, 2017. – B. 120.

Ushbu badiiy kontekstda Mirkomilning “boy” va “hoji” laqabidan Mirkomilning o‘tmish va bugungi sotsial belgilari uning indentifikatsiyasiga ishora qiladi va buni quyidagi 3.3.1-chizma orqali izohlashga harakat qildik:



3.3.1-chizma. Laqabning ijtimoiy identifikatsiyaga ta'siri.

Bundan ko‘rinadiki, shaxs laqabining o‘zgarishi ijtimoiy maqomi va shaxsiy identifikatsiyasidagi sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘la oladi. “Hoji” unvoni islom dinidagi muhim ijtimoiy va diniy maqomni ifodalaydi, ya’ni haj qilib, Ka’bani ziyyarat qilib kelgan odamning faxriy unvoni, laqabidir¹⁶⁶. Garchi Mirkomil Kabani ziyyarat qilmagan bo‘lsa ham, u “hojilik” unvoniga teng ishlarni qilgani uchun xalq uni shunday nomlagan.

Laqablarning o‘zgarishi ijtimoiy kontekstda nutqiy harakatlar (nutq akti), nutqiy strategiyalarning o‘zgarishiga ham sababchi bo‘ladi. Bu sotsiopraktik tahlil yordamida laqablarning o‘zgarishi shaxsning ijtimoiy rollarini o‘zgartirishi va bu o‘zgarishlarning nutqiy amaliyotlar (ijtimoiy munosabatlarga qanday ta’sir ko‘rsatishida aniq ko‘rinadi. Muallif izohi bilan berilgan ma’lumotlar asosida “boy” – *dimog ‘dor, ijtimoiy mavqeyi va kuchi yuqori, bu uning nutqida bevosa strategiyalar* (direktiv nutq aktlari) ustunlik qilganini, “hoji” rolida muloyim-

¹⁶⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, H.544. www.ziyouz.com

lashgan, rasmiy, bilvosita strategiyalar asosidagi nutqiy harakatlarga almashganligini bilib olamiz.

Bu haqida Sh.Safarov “shaxs ijtimoiy mavqeyini farqlash uning kommunikativ faoliyatini o‘rganish uchun muhimdir. Ijtimoiy status va rollardagi farqlar, albatta, muloqot birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlarida “iz” qoldiradi”¹⁶⁷ deya yozgan edi.

Laqablar shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy yaqinlik yoki uzoqlik darajasi, ifodalash vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli, laqablar turli muloqot kontekstlarida qanday qo‘llanishi, qanday ijtimoiy ma’no kasb etishi va ularning muloqotdagi strategik ahamiyati alohida o‘rganilishi lozim.

Ba’zi hollarda laqablar ajratib ko‘rsatish yoki diskriminatsiya (ayrim shaxslar yoki guruhlarni nisbatan kamsitish yoki haqorat qilish) maqsadida ham qo‘llanishi mumkin:

– *Bo‘tqa! – deb baqirdi. Bo‘tqa – videobar egasi Kenjaning laqabi. U Asadbek kirib ketgach, joyiga borib o‘tirmay, eshik og‘zida turgan edi. Xo‘jayinning qahrli ovozini eshitgach, shoshilib kirdi.*

– *Labbay, okaxon, – dedi qo‘l qovushtirib. Asadbek hech narsa demay teskari shapaloq tortib yubordi. Og‘iz-burni aralash tushgan kutilmagan zarbdan Bo‘tqa muvozanatini yo‘qotib yiqilay dedi. Bir urishda odamning jonini sug‘urib oladigan bu yigit gavdasini rostlab, “xo‘jayin, yana uring, mazza qildim” deganday qo‘l qovushtirib, boshini egdi.*

– *Shu yerni ham harom qildingmi, hayvon! – dedi Asadbek unga qaramay.* (“Shaytanat” – 1. 39-b.)

Bo‘tqaga nisbatan Asadbekning munosabatida ba’zan salbiy ohang sezilsada, har doim ham uni haqorat qilmaydi. Guruh ichida laqablar tanib olish, ajratish (kod) vositasi sifatida qabul qilinadi. Kontekstda Bo‘tqaning qilgan ishi Asadbekning nafratini yanada oshirgan uchun uning laqabning ma’nosи yanada oydinlashgandek bo‘ladi: “*Shu yerni ham harom qildingmi, hayvon!*”. Haqorat

¹⁶⁷ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008 . – Б. 157

aktida qo‘llangan *ham* yukamasi oqali presuppozitsiya – oldin ham bu iflos ishlarni qilganligini eslatiladi. Bu nutqiy vaziyatda qo‘llangan laqab “*chalkashtirib, aralash-quralash qilib yuborilgan narsa*”¹⁶⁸ ni yeb yuruvchi shaxs ekanligiga ishora qiladi. Bunday haqorat, tanqid aktlari o‘z manfaatlari asosida uyushgan guruh a’zolari uchun salbiy baho haqorat sifatida qabul qilinmaydi. O‘z “rahbarlariga” bo‘ysinishlari esa unga nisbatan hurmatni bildiradi.

Tohir Malikning asalarida jinoyat olamiga mansub turli xil qatlamlar hayoti tasvirlangan bo‘lib, asar personajlarining deyarli har biri qaysidir laqab bilan ataladi. Yozuvchi bu quyidagicha izohlaydi: “*Har bir jamoaning ichki tartibi, rasm-rusumi bo‘lganidek, bu olamning ham o‘ziga yarasha qonun-qoidasi bor. Shulardan biri – bu olamga qadam qo‘ygan har bir tirik jonga laqab beriladi. Laqab osmondan olinmaydi, balki xatti-harakati, fe’liga qarab topiladi. Jussasiga qarab tanlanganida Haydar Kesak emas, Toshpolvon yoki Temir polvon bo‘lishi kerak. Uning panjalarini Xudo suyakdan emas, temirdan yaratgan*”¹⁶⁹. Bu bilan adib personajlarning laqablari ularning fe’l atvorlari, ijtimoiy faoliyatiga qarab nomlanganligiga ishora qiladi.

O‘zbek tilshunosligida atoqli otlar (laqablar ham) E.Begmatov tomonidan keng, izchil tahlil qilingan, lekin kriptonimlar (yashirin ismlar) masalasi yoritilmagan. Kriptonim ma’lum bir shaxs, joy, faoliyat yoki narsaga nisbatan yashirinchcha ishlatiladigan so‘z yoki kodli ism. Odatda, kriptonimlar harbiy sohaga tegishli bo‘lsa-da, o‘g‘ri, jinoyatchilar nutqini ham chetlab o‘tmagan. Adibning “Murdalar gapirmaydilar” qissasida *Bublik, Bishteks, Murik, Knyaz (ismi Tengiz), Garbz (ismi Oleg), Olov (ismi Valdemir), Shimol (ismi Boris), Kalina (ismi Vitya), Oqqush (ismi Saryoja), Janjal (ismi Ostap), Qo’tos (ismi Valera), Koshak, Murik, Cho’mich (ismi Galiulin), Kato, Kuyov, Yo’lbars, Sibir, Avliyo, Zolotoy (ismi Habib)*, *Udav* kabi bir qancha faqat o‘g‘rilar qatlami uchun kimligi ma’lum bo‘lgan laqablardan foydalanilgan¹⁷⁰.

¹⁶⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘at. – B. 421.

¹⁶⁹ Tohir Malik, “Shaytanat” – B. 18.

¹⁷⁰ Yuldasheva M. Badiiy asarda qo‘llangan ayrim ijtimoiy qatlamlar nutqining sotsiopragmatik tahlili. //NamDU axborotnama, 2023 6/2023. – B.309-313.

Laqablar ko‘p hollarda ixtiyoriy shakllanmasligini, jamiyat va inson omili asosida vujudga kelishini kuzatamiz:

Aybini e’tirof etishi xotinga xush yoqib, jilmaydi-da, “oting nima?” deb so‘radi. Zarina aytgach, uning tili kelishmadimi, har nechuk xizmatkoriga yangi ism (laqab) qo‘ya qoldi:

— Bugundan boshlab isming “Za” bo‘ladi. O‘zing kimsan, hindulardanmisan?..

Rangi qoramag‘izga nisbatan oq sariqqa moyil Zarina sochini shu rangga mos ravishda bo‘yab olgan bo‘lsa-da, xotinning hindularga o‘xshatishidan g‘ashi keldi. — Yo‘q, — dedi biz oz zardali ohangda.(“Eng kichik jinoyat”, 13-b)

Zarina va amerikalik o‘rtasidagi muloqotda yuzaga kelgan vaziyat lingvistik moslashuv jarayonining bir qismidir. Jiles va Coupland (1991) tomonidan ilgari surilgan kommunikativ moslashish nazariyasiga (Communication accommodation theory) ko‘ra, til ishtirokchilari o‘z nutqlarini boshqalar bilan muloqotni qulaylashtirish uchun moslashtiradilar¹⁷¹. Zarina amerikalik qahramon uning ismini to‘g‘ri talaffuz qila olmasligini sezib, unga qarshilik qilmasdan, talaffuzning qisqartirilgan shaklini qabul qilgan. Bu holat Zarinaning muloqotda amerikalikning talaffuz qobiliyatlariga moslashishini aks ettiradi va bu *sotsiopragmatik kompetensiya* deb ataladi. Kontekstda *sotsiopragmatik moslashuv* adresatning ismning qisqartirilishini qabul qilishi, u ijtimoiy va madaniy kontekstga moslashganligida namoyon bo‘lgan. Sotsiopragmatik kompetensiya bu yerda til va madaniy farqlarni yengillashtirish uchun qahramonning muloqotda o‘z nutq uslubini o‘zgartirishini anglatadi. Zarina o‘z yurtida bunday qisqartirishni yoqtirmagan bo‘ldi, lekin Amerika ijtimoiy-madaniy kontekstida u bu holatni qabul qilgan. Bu moslashuv jarayoni, qahramonning yangi ijtimoiy muhitga integratsiya bo‘lishiga yordam bergen va uning madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlagan. Ijtimoiy deyksis qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy maqom va munosabatlarni ifodalovchi til birliklarini o‘z ichiga oladi.

¹⁷¹ Howard Giles and Nikolas Coupland, Language: Contexts and Consequences" (Book Review) / Yaeger-Dror, Malcah. Language and Speech; London Tom 36, Izd. 1, (Jan 1, 1993): 113-117

Ismning qisqartirilishi amerikalikning Zarina ustidan ijtimoiy yoki madaniy ustuvorligini aks ettiradi. Bu vaziyatda u xizmatkor sifatida amerikalikning talaffuziga moslashadi, bu esa uning ijtimoiy maqomini va o‘z vazifasini anglaganligini ko‘rsatadi.

Demak, Zarinaning bu kontekstdagi xatti-harakati xushmuomalalik strategiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llashning bir namunasidir. U ingliz ayolning talaffuzdagi qiyinchiliklarini tushunib, muloqotga moslashadi va ijtimoiy keskinlikdan qochgan. Bu orqali u suhbatdoshining salbiy yuzini hurmat qilish, madaniyatlararo moslashish va yuzni saqlashni ta’minlash kabi xushmuomalalik strategiyalarini amalga oshirgan.

Laqablar vositasida hosil bo‘lgan ijtimoiy va ma’lum madaniyatga xos ma’nolarni aniqlash, ularning muloqot jarayonidagi rolini ochib berish bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu paragraf laqablarni sotsiopragmatik tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini, funksiyalarini va ma’no qatlamlarini o‘rganish orqali laqablarning lingvistik hamda ijtimoiy jihatlarini yoritishga harakat qildik. Shu bilan birga, laqablarning turli ijtimoiy guruhlar va muloqot kontekstlarida qanday shakllanishi va qo‘llanilishini ilmiy asosda tahlil qildik, bu esa tilshunoslikda yangi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari laqablar ijtimoiy yaqinlik belgisi sifatida xizmat qiladi, natijada boshqa onomastik birliklardan shu jihat bilan ajralib turadi. Biz buni quyidagi 3.3.2-chizma orqali izohladik:

Laqab	Ism	Familiya	Unvon
-------	-----	----------	-------

Eng kichik ijtimoiy masofa
Eng past ijtimoiy mavqe (kuch)

Eng uzoq ijtimoiy masofa
Eng yuqori ijtimoiy mavqe (kuch)

3.3.2-chizma. *Onamastik birliklarda ijtimoiy masofa va kuchning aks etishi*

Ushbu diagrammada odamlar o‘rtasidagi muloqotda onomastik birliklar (ism, laqab, familiya, unvon) orqali ifodalanadigan ijtimoiy masofa ko‘rsatilgan bo‘lib, shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy yaqinlik yoki uzoqlikni, shuningdek, ularning yosh va ijtimoiy qudratiga ko‘ra farqlanishini tasvirlaganmiz:

1. Laqab kommunikatorlar o‘rtasida jtimoiy masofaning eng yaqini va kuch jihatdan past darajasini bildiradi. Laqablar ko‘pincha yaqin do‘srlar, oila a’zolari, sotsial guruhlar yoki tanishlar o‘rtasida qo‘llanadi, bu esa ular o‘rtasidagi iliq munosabat va ijtimoiy yaqinlikni aks ettiradi. Laqab bilan murojaat qilish ko‘pincha norasmiy hamda qulay muloqot usuli bo‘lib, ijtimoiy mavqe (kuch)ni kamroq ifodalaydi.

2. Ism o‘rta ijtimoiy masofada qo‘llanib, chizmada laqab va familiya o‘rtasidagi pozitsiyani egallagan. Ism bilan murojaat qilish, odatda, rasmiy bo‘lman, lekin laqabdan ko‘ra bir oz ko‘proq ijtimoiy masofani (uzoqlik) ifodalaydi. Bu murojaat shakli do‘srlar, hamkasblar yoki tengdoshlar o‘rtasidagi muloqotda keng tarqalgan. Ism bilan murojaat qilish, laqabdan farqli o‘laroq, biroz rasmiyoq ijtimoiy kuchga ega bo‘lishi bilan laqablardan keyingi o‘rinni egallaydi.

3. Familiya uzoqroq ijtimoiy masofa belgisidir. Bu murojaat shakli odatda ko‘proq hurmat va rasmiylikni talab qiladigan kontekstlarda, masalan, rasmiy yig‘ilishlar yoki notanishlar o‘rtasida foydalilanildi. Familiya bilan murojaat qilish ko‘pincha yuqori ijtimoiy maqom yoki qudrat (kuch)ga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

4. Unvon eng uzoq ijtimoiy masofa va qudrat belgisidir. Unvon bilan murojaat qilish odatda juda rasmiy vaziyatlarda qo‘llaniladi va muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy masofani aniq aks ettiradi. Unvonlar ko‘pincha katta yoshli, yuqori maqomdagi yoki katta ijtimoiy qudratga ega bo‘lgan shaxslar uchun ishlataladi. Bu murojaat shakli, shuningdek, shaxslar o‘rtasidagi rasmiylik darajasini ham ko‘rsatadi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, ushbu onomastik birliklar muloqotda shaxslar o'rtasidagi sotsial munosabatlarni, ularning maqomini va ular o'rtasidagi ijtimoiy masofani aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Tohir Malik asarlarda qo'llangan laqablarni tadqiq qilish jarayonida ularning ko'pchiligi haqorat, masxara ma'nosida emas, ko'pincha samimiy va ijtimoiy yaqinlikni ko'rsatish, muloqotda qulaylikka erishish, ijtimoiy mavqe va kuchning pastligiga ishora qilish, guruh ichidagi identifikatsiyani ko'rsatish uchun qo'llanganligini kuzatdik.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Tohir Malik asarlaridagi personajlar o'rtasidagi ijtimoiy identifikatsiya jarayonida sotsiolektlar, onomastik birliklar, ayniqsa, laqablar shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda va ularning jamiyatda qanday qabul qilinishini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Bu birliklar shaxslarni guruh ichida yoki jamiyatda tanitish, ijtimoiy o'rmini belgilash uchun xizmat qilgan.

2. Badiiy matnda qo'llangan argo guruhlararo aloqalarda shaxslar o'rtasidagi maxsus kodlarni taqdim etadi va ushbu kodlar orqali ijtimoiy ajralishni, shaxslararo aloqalarni ko'rsatadi. Bu til birligi ko'pincha norasmiylik va ichki guruh identifikatsiyasi uchun ishlatiladi, shuningdek, guruh tashqarisidagi shaxslar uchun tushunarsiz bo'lib qoladi.

3. Jargon kasbiy yoki maxsus sohalarda ishlatiladigan terminlar va ifodalar orqali ijtimoiy, kasbiy maqomlarni aniqlashga yordam beradi. Muloqotda jargonlardan sotsial qatlamlar o'zлari uchun tushunarli qilib soddalashtirish hamda muloqot samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalaniladi.

4. Adib asarlarida qo'llangan slanglar ko'pincha yoshlar yoki submadaniyatlar o'rtasida ishlatiladigan til birliklari bo'lib, ularning o'ziga xos identifikatsiyasi hamda madaniy ajralishini aks ettirgan. Shaxslar o'rtasida o'zaro tushunishni kuchaytirish bilan birga norasmiylikni, guruhga tegishlilikni ta'kidlagan.

5. Tohir Malik asarla laqablar shaxslar o‘rtasidagi yaqinlikni va o‘zaro aloqalarni aks ettiruvchi sotsiopragmatik vosita sifatida xizmat qilgan. Ularda ko‘pincha muloqotda samimiylikni ta’minlash, rasmiylikni kamaytirish va shaxslarning guruh ichida qanday qabul qilinishini belgilash uchun qo‘llanilgan.

UMUMIY XULOSALAR

1. Sotsiopragmatika til va uning muloqotda qo'llanilishini ijtimoiy kontekstda o'rganadi. U til birliklarining shaxslar o'rtasidagi sotsial munosabatlarni qanday ifodalashini va nutq jarayonida ijtimoiy qoidalar qanday amal qilishini tadqiq qiladi. Sotsiopragmatikaning obyekti til ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir hamda bu ta'sirning til orqali qanday ifodalanishini o'rganishdir.
2. Badiiy kontekst sotsiopragmatik tadqiqotda shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, nutq ishtirokchilari va ularning til orqali ifodalanish shakllarini tahlil qilish uchun boy manba bo'lib, u obrazlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni sotsiopragmatik yondashuvda o'rganishga imkon yaratadi.
3. Xushmuomalalik nazariyasi shaxslar o'rtasidagi muloqotda ijtimoiy yuzni saqlashni ta'minlovchi strategiyalarni tadqiq etadi va muloqotda suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomini hurmat qilish, munosabatlarni saqlash, ijtimoiy to'qnashuvlarni oldini olishga qaratilgan.
4. Ijobiy yuz shaxsning boshqalar tomonidan ma'qullanish va tasdiqlanish istagini ifodalaydi, salbiy yuz esa shaxsning mustaqillik hamda harakat erkinligini saqlash istagidir. Ijobiy, salbiy yuzlarni himoya qilish, muloqotda ijtimoiy to'qnashuvlarni oldini olish, shaxslar o'rtasidagi hurmatni ta'minlash uchun xushmuomalalik strategiyalari muhimdir.
5. Bevosita strategiya muloqotda ochiq va fikrni to'g'ridan to'g'ri ifoda etishni o'z ichiga oladi. Bu strategiya ko'pincha vaqt cheklanganda yoki shaxslar o'rtasida yaqinlik mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Badiiy asarda bevosita strategiya orqali obrazlar o'rtasidagi munosabatlarni kuchliroq va yaqqol ifodalash imkonini beradi.
6. Ijobiy xushmuomlalik muloqotda shaxsning ijobiy yuzini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiyadir. Bu strategiya shaxslar o'rtasida iliq va samimiy munosabatlarni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Badiiy asarda ijobiy xushmuomlalik obrazlar o'rtasidagi yaqinlikni va ularning ijtimoiy munosabatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

7. Masofaviy nutqiy strategiya shaxsning salbiy yuzini himoya qilishga qaratilgan substrategiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu strategiya odatda shaxsning harakat erkinligini hurmat qilish va ijtimoiy masofani saqlash uchun foydalidir.

8. Xushmuomlalik strategiyalari muloqotda pragmatik birliklar orqali amalga oshiriladi. Bu birliklar muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy yuzlarini saqlash, ijtimoiy maqomni hurmat qilish va sotsial munosabatlarni mustahkamlash uchun qo‘llanadi. Pragmatik birliklar xushmuomlalik strategiyalarining samarali qo‘llanilishida hamda ijtimoiy aloqalarni muvaffaqiyatli o‘rnatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

9. Ijtimoiy identifikatsiya muloqotda shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi va ularning jamiyatdagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shaxslar o‘zaro muloqotda identifikatsiya vositalari orqali bir-birining ijtimoiy maqomini tan oladi.

10. Sotsiolektlar badiiy asarda obrazlar nutqini real va to‘g‘ri ifodalash uchun muhim vosita hisoblanadi. Ular obrazlarning ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyati, ijtimoiy guruhiга mos ravishda nutqni belgilashga imkon beradi. Sotsiolektlar yordamida badiiy asarda obrazlarning o‘ziga xosligi, ijtimoiy maqomi, guruh identifikatsiyasi ifodalanadi.

11. Laqablarning o‘zgarishi ijtimoiy kontekstda nutqiy harakatlar (nutq akti), nutqiy strategiyalarning o‘zgarishiga ham sababchi bo‘ladi. Bu sotsiopragmatik tahlil yordamida laqablarning o‘zgarishi shaxsning ijtimoiy rollarining almashishida va nutqiy amaliyotlar (ijtimoiy munosabatlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi)da aniq ko‘rinadi.

12. Sotsiopragmatik kompetensiya muloqotda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan bilim va qobiliyatlar yig‘indisidir. Bu kompetensiya shaxslarning til birliklarini to‘g‘ri qo‘llashi, ijtimoiy qoidalar, madaniy konteksti inobatga olish orqali muloqotni samarali hamda mos ravishda olib borishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docx/2968200>
 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docx/3107036>
 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ- 2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Manba: <https://lex.uz/docx/3117025>
 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docx/4561730>
 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docx/5058351>
 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5058351>
- Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. – Samarqand, 2006. – B. 17.

II. Imiy- nazariy adabiyotlar: **1) milliy nashrlar:**

7. Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. – Toshkent, 2017. – 180 b.

8. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2013. – 280 b.
9. Elova D., Safarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent: – 2021, – 228 b.
10. G‘ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965. – 310 b.
11. Kilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2023. – 215 b.
12. Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni. Toshkent: Bookmany print, 2023. – 190 b.
13. Mahkamov N. Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, –2013. – 180 b..
14. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Turon – Iqbol, 2006. – 246 b.
15. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 358 b.
16. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va bosh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – 534 b.
17. Shokirova H. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi. – Farg‘ona: Classic, 2023. – 266 b.
18. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2019. – 319 b.
19. Xolova M. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalk kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari: monografiya. – Buxoro, 2023. – 166 b.
20. Xudoyberdiyeva D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 255 b.
21. Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. – Qarshi: Intellekt, 2022. – 240 b.
22. Yorova S. Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy, madaniy xususiyatlari. – Samarqand: Fan bulog‘i, 2024. – 180 b.

23. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 212 б.
24. Кахаров К. Ўзбек ва немис нутқий этикетлари. – Фарғона: Classic, 2022. – 228 б.
25. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 294 б.
26. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Тошкент: Таълим, 2009. – 318 б.
27. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 248 б.
28. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.
29. Сафаров Ш.Г. Тоирова Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – 68 б.
30. Содиқова Ш.Б. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси. Монография. – Тошкент, 2010. – 128 б.
31. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд, 2001. – 360 б.
32. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, Академнашр: 2013. – 576 б.
33. Ҳакимов М., Ғазиева М. Ўзбек прагмалингвистика асослари. – Тошкент: Академнашр, 2020. – 201 б.
34. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 264 б.
35. Ҳусанов Б., Ғуломов В. Муомала маданияти. – Тошкент: Иқтисодмолия, 2009. – 190 б.
36. Юсупов Ў.Қ. Инглиз ва ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 144 б.

2) xorijiy nashrlar:

37. Abdul Aziz. Sosiopragmatik Politik: Kajian Sosiopragmatik Dalam Debat Pilkada. Indonesia: Syiah Kuala University Press, 2022. – 380 pp.

38. Ais Lu'luatus Shofa, Bald on record strategies used by the characters in secret society of second born royals movie. – Surabaya, 2022. – 278 pp.
39. Baresova I. Politeness stratedies In cross-cultural perspective. – Czechia, Olomouc: Palacký University, 2008. – 234 pp.
40. Bouchara A. Politeness in Shakespeare: Applying Braunand Levinson's Politeness Theory to Shakespeare's Comedies. – Germany: Bod Third Party Titles, 2009. – 129 pp.
41. Brown P. and Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 pp.
42. Casken S. Positive and Negative Politeness Strategies and Their Influence on American and British English Discourse. – USA: University of Hawaii, 1980. – 178 pp.
43. Cornelia Ilie and Neal R. Norrick (Eds.), Pragmatics and its Interfaces. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2018. –270 pp.
44. Culpeper J. Historical Sociopragmatics. – USA: John Benjamins Publishing Company, 2011. – 132 pp.
45. Dr. Nasarudin, Susi Susanti, Akmal... Pragmatik: Konsep Teori dan Praktek. Indonesia: Cetakan Pertama, 2023. – 192 pp.
46. Eva Alcón Soler, Learning how to request in an instructed language learning context. –Berlin: Peter Lang. 2008. – 352 pp.
47. Grice P. Logic and Conversation. In P. Cole, J. L. Morgan. (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3, Speech Acts. – New York: Academic Press.1975. – 358 pp.
48. Goffman, E. Interaction rituals: essays on face-to-face. – Garden city, NY: Anchor books, 1967. – 449 pp.
49. Harun Joko Prayitno, Studi Sosiopragmatik. Indonesia, Surakarta: Muhammadiyah University Press, 2017. – 372 pp.
50. Haugh M., Daniel Z. Kadar. Marina Terkourafi, The Cambridge Handbook of Sociopragmatics. New York: Cambridge university press, 2021. – 700 pp.

51. Holmes J. Women, Men and Politeness. – USA: Taylor & Francis, 2013.- 264 pp.
52. In C. Ilie and N. R. Norrick eds., Pragmatics and Its Interfaces. Amsterdam: John Benjamins, 2018. – 250 pp.
53. In W. Bublitz and N. R. Norrick, eds., Foundations of Pragmatics. Berlin: Mouton de Gruyter, 2011. – 406 pp.
54. J. Petre, The Sociopragmatics of Stance. Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2021. – 246 pp.
55. Jesüs Romero Trillo, Yearbook of Corpus Linguistics and Pragmatics. – Spain: Springer International Publishing Switzerland, 2016. – 430 pp.
56. Kasper G. and Blum Kulka S. (Eds.) Interlanguage pragmatics. – New York: Oxford University Press, 1993. –Pp. 265.
57. Kate Beeching, Helen Woodfield. Researching Sociopragmatic Variability. – USA: Palgrave Macmillan, 2015. – 35 pp.
58. Kipman U. The Politeness Phenomenon. – Germany: GRIN Verlag, 2010. – 328 pp.
59. Lich G.N. Principles of Pragmatics. – London and New York: Longman, 1983. – 410 pp.
60. Lich G. N. The Pragmatics of Politeness. New York: Oxford University Press, 2014. – 415 pp.
61. Lestari Amber Sukesti. Interlanguge pragmatics of invitation by Indonesian EFL learners. – Indonesia: CV. Rasi Terbit, 2014. – 425 pp.
62. Lakoff, R. and Ide S. (Eds.) Broadening the Horizon of Linguistic Politeness. Philadelphia: John Benjamins, 2005. – 344 pp.
63. Marmaridou S. Pragmalinguistics and sociopragmatics. – New York: Cambridge University Press, 2003. – Pp. 250.
64. Mills S. Gender and Politeness. – New York: Cambridge University Press, 2003. – 278 pp.
65. Millward C.M., Hayes M.A. Biography of the English Language. – Wadsworth Publishing, 2012. – 496 pp.

66. Ogiermann E. On apologising in negative and positive politeness cultures. – USA: John Benjamins Publishing Company, 2009. – 296 pp.
67. R. Kunjana Rahardi, M.Hum. Pragmatik kontekst ekstralinguistik dalam perspektif cyberpragmatics. – Yogyakarta: Diterbitkan oleh Penerbit Amara Books, 2020. – 270 pp.
68. Rahardi K. Sosiopragmatik. Jakarta: Erlangga, 2009. – 376 pp.
69. Satriani, S. Hum., M.Pd. Discourse analysis. – Indonesia / Pekalongan, Jawa tengah: Penerbit NEM, 2021. – 270 pp.
70. Seiwald R. The Importance of Face in "Politeness Theory". – Germany: GRIN Verlag, 2011. – 428 pp.
71. Senftleben A. The use of positive politeness strategies considering a specific speech act. – Germany: GRIN Verlag, 2005. – 520 p
72. Sifianou M. Politeness Phenomena in England and Greece. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – 232 pp.
73. Thielke S. Social Media and Politeness (Positive-politeness in virtual interaction). Kipman U. The Politeness Phenomenon. – Germany: GRIN Verlag, 2010.– 332 bb.
74. Trandborg A. Interlanguage pragmatics: requests, complaints and apologies. – Berlin: Mouton de gruyter, 2011. – 650 pp.
75. Ting-Toomey S. Understanding Intercultural communication. Oxford: Oxford University Press, 2005. – 424 pp.
76. Wolfram Bublitz, Neal R. Norrick (eds), Handbook of pragmatics. – Berlin/Boston:Walter de Gruyter, 2021. – 700 pp.
77. Watts, R. Politeness. - Cambridge University Press, 2003. – 640 pp.
78. Yasuko Obana and Michael Haugh, Sociopragmatics of Japanese. New York: Taylor & Francis, 2023. – Pp. 480 pp.
79. Yule G. Pragmatics. – New York: Oxford University Press, 1996. – 600 pp.
80. Анисимов. С. Ф. Введение в аксиологию. Учебное пособие для изучающих философию – Москва: Современные тетради, 2001. –128 с.

81. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: Введение в когнитивную лингвистику. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2014. – 236 с.
82. Ерзинкян Е. Л. Лингвистическая категория вежливости: семантика и pragmatika, Ереван, Издательство ЕГУ 2018, – 580 с.
83. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации. Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. –Москва: Рукописные памятники древней Руси, 2009. – 287 с.
84. Лукьянова Н. А. Экспрессивная лексика разговорного употребления: Проблемы семантики. Новосибирск: Наука, 1986. – 270 с.
85. Холиков Н. А. Стратегия вежливости в речевой коммуникации представителей таджикской и турецкой лингвокультуры. – Душанбе, 2019. – 148 с.

III. Lug‘atlar:

86. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. I jild.– Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 360 б.
87. Маҳмудов Н. Худойберганова Д. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 354 б.
88. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
89. Ўзбек тилининг изоҳли луғати бешинчи жилд шукrona – ҳ. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, Тошкент, 2008. – 591 б.
90. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат миллий нашриёти. Тошкент. 1981 – 544 б.
91. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 432 б.
92. Ҳожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 157 б.

IV. Badiiy adabiyotlar

93. Tohir Malik, “Shaytanat” – I. roman. – www.ziyouz.com. – 210 b.
94. Tohir Malik, “Shaytanat” – II. roman. – www.ziyouz.com. – 228 b.
95. Tohir Malik, “Shaytanat” – III. roman. – www.ziyouz.com. – 220 b.
96. Tohir Malik, “Shaytanat” – IV. roman. – www.ziyouz.com. – 498 b.
97. Tohir Malik, “Shaytanat” – V. roman. – www.ziyouz.com. – 642 b.
98. Tohir Malik, “Voy onajonim...”, hikoyalar to‘plami.– www.ziyouz.com. – 296 b.
99. Tohir Malik, “Davron”, qissa. – www.ziyouz.com. – 40 b.
100. Tohir Malik, “Ov”, qissa. – www.ziyouz.com. – 31 b.
101. Tohir Malik, “Zaharli g‘ubor”, qissa. – www.ziyouz.com. – 132 b.
102. Tohir Malik, “Ozod inson haqida qo‘shiq”, qissa. – www.ziyouz.com. – 85 b.
103. Tohir Malik, “Alvido bolalik”, qissa. – www.ziyouz.com. – 188 b.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

104. Adanboyeva N. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) ...diss. avtoref.– Farg‘ona, 2024. B. 55.
105. Buzrukova M. Iltimos Nutqiy aktining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o‘zbek materiallarida). Filol. fan. doktori (phd)...diss. – Smarqand, 2021. – B.169.
106. Ibrogimova E. O‘zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositlari: filol.fanlari nomz. ... diss. – Farg‘ona, 2001. – B. 47
107. Odinayev B. O‘zbek nutqiy muloqotning lingvopragmatik xususiyatlari (Erkin A’zam asarlari misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – B. 54.
108. Parmonov A. Badiiy kontekstda kinoya va uning lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss... avtoref. – Qo‘qon, 2024. – B. 12-14.

109. Rahimova F. Ta`limiy saytlarda axborot yoki ma`muriy murojaatlarning mikromatnlarda ifodalanishining pragmalingvistik xususiyatlari// O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2022. – № 14. – B. 258-268.
110. Rasulov Q. O‘zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref – Toshkent, 2008. – B. 10.
111. Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyalarining shartlanishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)...avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 48.
112. Satimova D. Ingliz va o‘zbek yoshlar slangining qiyosiy tahlili:Filol. Fan.bo‘yicha fals. dokt. (phd) ... diss. avtoref. – Andijon, 2020. – B.12.
113. Saydullayeva S. Ingliz va o‘zbek tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari: Filol.fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)...diss. Avtoref. – Samarqand, 2023. – B. 48.
114. Shanazarova D. Intervyu matnlarining kontekstiv tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. –Toshkent, 2024. – B. 21.
115. Shomaxmudova A, Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqealantiruvchi sotsiopragmatik omillar: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 14.
116. Holikov B. Detektiv romanlarda vogelikning badiiy talqinini tizimli modellashtirish (Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” va Tohir Malikning “Shaytanat” asarlari misolida”). Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2011. – B. 40.
117. Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. dokt. ...diss. Avtoref. – B. 30.
118. Yusupova G. Koreys va o‘zbek nutqiy etiketlarining sotsiolingvistik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 11.
119. Боймираева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникативпрагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д—ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 49.

120. Ирисбоев Т.Т. Ҳозирги ўзбек детектив адабиётининг тараққиёт хусусиятлари (Тоҳир Маликнинг “Шайтанат” асари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс.– Toshkent., 2001. – В. 157.
121. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 140.
122. Комилова Г.Р. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – Б .167.
123. Қазоқова Н. Гофур Ғулом насрий асарларининг прагмалингвистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док...дисс. Фарғона. – Б. 78.
124. Қодирова М.Т.Турли тизимли тилларда мурожаатнинг коммуникатив-прагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида): Фил. фан. номз. ... дисс - Термиз, 2021. – Б.196.
125. Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 238.
126. Маджидова Р.У. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида). Филол. фан. док. (DSc)... дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – Б. 76.
127. Маткаримова А.И. «Ҳурмат» семантик майдонини ташкил этувчи тил воситаларининг лингвопрагматик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. доктори (PhD) ...дисс. – Андижон, 2021. – Б. 147.
128. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий–лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари дри...дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 235.
129. Нязова Г. Детектив романларнинг тилининг сотаиопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари: Филол. фан. доктори (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2022. – Б.144.
130. Осимова Р. А. Ўзбек тилида баҳонинг аксиологик талқини. маг. дисс. – Фарғона, 2013. – Б. 90.
131. Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: фил. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2008. – Б.138.

132. Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 48.

133. Турдиева Х. Нутқий етиket бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 21.

134. Холмуродова М. Еркин Аъзам қиссалари тилининг социопрагматик аспекти: Филол. фан. докт. (PhD)...дисс. – Андижон, 2021. – Б. 132.

135. Худайкулова Ш.С. Ўзбек тили аксиологик лексикасининг семантик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 48.

136. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Фарғона, 1996. – Б. 165.

137. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 48

138. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини: Филол. фанлари доктю ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 265.

139. Ҳожиева Ҳ.Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний нутқий хусусияти. Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2001. – Б.150.

140. Юлдашев М. М. Бадиий матнининг лингвопоэтик тадқиқи, филол. фан. док. Дисс. – Тошкент., – 2008. – Б. 217.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar.

141. Aslanova H. Yozuvchi Tohir Malikning “Nafs kishanlari” asari badiiy va falsafiy tahlili // Internatsional scientific journal, 2023. № 5. – В. 97-100.

142. Blum-Kulka S. Indirectness and Politeness in Requests: Same or Different? // Journal of Pragmatics, 11 (2), 1987. – Pp. 131-146.

143. Davronov A. Tohir Malik ijodida uslubiy o‘ziga xoslik // Til va adabiyot ta’limi, 2020. № 12.– В. 30-31.

144. Erkinova M. O‘zbek tilida jargon, argo va slenglarning qo‘llanishi // “O‘zbek fologiyasi muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Toshkent: Anorbooks, 2024. – B. 49-53.
145. Fraser B. Perspectives on politeness / B. Fraser // Journal of Pragmatics: 1990. – P. 219-236
146. G‘ayiboyev X. Tohir Malikning “Shaytanat” romani qahramonlari tahlili va asarning jamiyatga ta’siri // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023. – B. 104-106.
147. Garcés-Conjeos Blitvich P. Introduction: Face, identity and im/politeness: Looking backward, moving forward: From Goffman to practice theory // Journal of Politeness Research. Vol. 9 (1). 2013. – Pp. 33.
148. Goffman E. On Face-Work: an Analysis of Ritual Elements in Social Interaction / E. Goffman // Communication in Face to Face Interaction, 2010. – Pp. 241- 249.
149. House J., Kasper G. Politeness markers in English and German // F.Coulmas (ed.), 1981. – P. 157-185.
150. F.Shamaxmudova, Hurmat tamoyillarini til tizimida voqelantiruvchi lisoniy harakatlar // Ilmiy axborotnoma, 2021. – № 2. B. 55-58.
151. Kaxarov Q. Mustafoyeva S. O‘zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari // FarDU ilmiy xabarlar, 2023. №3. – B. 527–530.
152. N. Xoshimova. Bilvosita gaplarning turli madaniylarda ifodasi // FarDU ilmiy xabarlar, 2022/3. – B. 184-186.
153. Norkuziyeva D. Zoomorfizmlarning etnolingvomadaniy xususiyatlari // Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, 2022. № 6. – B. 327-331.
154. Qodirova X. Xorazm shevalaridagi laqablar va ularni tadqiq qilishning nazariy va amaliy ahamiyati // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 101-103.
155. Saydullaeyva S. O‘zbek va ingliz tillarida sen/siz murojaat shakllari va lingvomadaniy xususiyatlari // Academic research in eductional science, 2022. №. 3. – B. 304-310.

156. Shamahmudova A. Zamonaviy tilshunoslikda bilvositalik va implitsitlik tushunchalari. Xorijiy fiologiya, 1/2017. –B. 86-90.
157. Shaxabitdinova Sh., Satimova D. O‘zbek tilshunosligida sotsiolekt ko‘rinishlari tadqiqi va talqin // Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlari, 2021. – № 1. – B.146.
158. Shermatova S., Fozilbekova Z. The role of nominalization in scientific writing // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023. № 3. – Pp. 495-498.
159. Tovboyeva G. Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasida o‘smir bolalarning taqdirlari tahlili // Novosti obrazavaniya: issledovanie v XXI veke, 2023. – № 10. – B. 38-40.
160. Turdonova S. Ingliz va o‘zbek tillarida “Kechirim” so‘rash nutq aktlari: o‘xhash va farqli jihatlari // Miasto przyszlosc, 2024. – B. 72-78.
161. Uzoqova Y. Tohir Malik asarlari vositasida talabalarda ma’naviy–axloqiy fazilatlarni rivojlantirish mexanizmlari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024. – № 2. – B. 308-309.
162. Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. – Qarshi. “Intellekt” 2022, – B. 179-188.
163. Yuldasheva F. Negative Politeness // International Journal on Integrated Education, 2021. № 4. – Pp. 468-471.
164. Yuldasheva M. Badiiy asarda qo‘llangan ayrim ijtimoiy qatlamlar nutqining sotsiopragmatik tahlili // NamDU axborotnomasi, 2023. – № 6. – B. 309-313.
165. Yusupjanov E. Lingistik presuppositsiya pragmatik muammo sifatida yuzaga kelishi va o‘rganilishi // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 2021. – B. 260-266.
166. Ziyodullayev N. Nemis va o‘zbek tillaridagi ot so‘z turkumining qiyosiy tahlili, 2023. – B. 7-10.
167. Zohidov A.“Vor v zakone”– “Qonundagi o‘g‘ri” kim? // Kun.uz. – 23.05.2023.

168. Алпатов В.М. Категория вежливости в современном японском языке. Москва.: Наука, 1973. – Б. 240.
169. Беляева Е.И. Принцип вежливости в речевом общении // Иностранные языки в школе, 1985, № 2. – С. 3-10.
170. Боймирзаева С. Матнда киноя мазмунининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №4 – Б. 111.
171. Ehlich K. On the Historicity of Politeness // R.J. Watts, S.Ide, K. Ehlich (eds.) Politeness in Language. Berlin: Mouton de Gruyter, 1992. – Pp.71-107.
172. Жахонова Н., Тоирова Г. Тавтология ва плеоназмнинг ўрганилиш тарихига бир назар // in Library, 2022. – № . – В. 124–129.
173. Земская Е.А. Категория вежливости в контексте речевых действий // Логический анализ языка. Язык речевых действий. Москва: Наука, 1994. – С. 131-136.
174. Қиличев Э. Лақаблардаги номинативлик // Хива, 1991. № 1.– Б. 25.
175. Шамахмудова А. Билвосита нутқий актларни талқин этиш тамойиллари (этнопрагматик омиллар). Хорижий филология, 2017. №4.– Б. 83-87.

VII. Foydalanilgan internet saytlari

176. <https://uz.wiktionary.org/wiki/yuho>
177. www.ziyouz.com
178. www.scholar.ru
179. <https://arxiv.org>
180. <https://www.researchgate.net/>
181. <https://media.natlib.uz>
182. <https://ziyonet.uz>
183. <https://unilibrary.uz>
184. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9642/622
185. <https://uz.wikipedia.org>
186. www.ares.uz
187. <https://lex.uz/docs/-3117025?ONDATE=06.04.2018%2000>

188. Shayx Yusuf Shabbir//<https://islamicportal.co.uk/importance-of-early-burial/>

189. <https://lex.uz/docs/-4561730>

190. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. BADIY KONTEKST SOTSIOPRAGMATIKASI VA TADQIQOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1-§. Sotsiopragmatikaning shakllanishi va taraqqiyoti.....	6
1.2-§. Sotsiopragmatikada xushmuomalalik strategiyalarining o‘rni va ahamiyati	17
Bob bo‘yicha xulosa	26
II BOB. TOHIR MALIK ASARLARIDAGI XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI	27
2.1-§. Nutqiy aktlarda bevosita strategiyaning namoyon bo‘lishi	27
2.2-§. Badiiy kontekstda ijobiy xushmuomalalik strategiyasining voqelanishi	40
2.3-§. Masofaviy muloqotda xushmuomalalik strategiyalarining qo‘llanishi	57
2.4-§. Kommunikativ niyatni implitsit ifodalovchi bilvosita substrategiyalar	71
Bob bo‘yicha xulosa	95
III BOB. TOHIR MALIK ASARLARIDA IJTIMOIY IDENTIFIKATSIYANI KO‘RSATUVCHI LINGVISTIK BIRLIKLAR TADQIQI.....	97
3.1-§. Ijtimoiy identifikatsiyasini ko‘rsatuvchi kategoriyalarining muloqot strategiyalarida ifodalanishi	97
3.2-§. Sotsiolektlarning guruh identifikatsiyasidagi o‘rni	107
3.3-§. Tohir Malik asarlarida qo‘llangan laqablarning ijtimoiy-pragmatik tadqiqi	117
Bob bo‘yicha xulosa	127
UMUMIY XULOSALAR	129
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	131

Ilmiy nashr

Mashhura Yuldosheva

XUSHMUOMALALIK NAZARIYASINING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

(*Tohir Malik asarlari misolida*)

Muharrir: Hurinisa Usmonova

Texnik muharrir: Qodir Mamadaliyev

Dizayner: Mirkomil Usmonov



Terishga 2025-yil 3-iyunda berildi.

Bosishga 2025-yil 10-iyunda ruxsat etildi.

Bichimi: 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasida

offset bosma usulida oq qog'ozga bosildi.

Hajmi 9,25 bosma taboq. Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Iste'dod ziyo press» nashriyoti,
Namangan shahri, 3-kichik tuman, 2-uy.